

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA‘LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI
MAGISTRATURA BO‘LIMI**

Qo‘lyozma huquqida
UDK: 811.512.133:81 373

QURBONOVA MAFTUNA IBROYIM QIZI
O‘ZBEK TILIDA MUROJAAT VOSITALARINI
IFODALOVCHI BIRLIKLAR

70230101 - Lingvistika (o‘zbek tili) mutaxassisligi bo‘yicha Magistr
akademik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYASI

Ilmiy rahbar:



Kurbanazarova N.
TerDU o‘zbek tilshunosligi
kafedrasi dotsenti v.b., f.f.f.d. (PhD)

Termiz – 2023

**Magistrlik dissertatsiyasi mavzusi Termiz davlat universiteti rektorining
2022-yil №2-T/M sonli buyrug‘i asosida tasdiqlangan.**

Magistrlik dissertatsiyasi Termiz davlat universiteti O‘zbek tilshunosligi kafedrasida bajarilgan.

Magistrlik dissertatsiyasi elektron nusxasi Termiz davlat universitetining rasmiy veb sahifasiga joylashtirilgan.

Dissertatsiya manzilining QR-kodi:




Magistrlik dissertatsiyasi bilan Termiz davlat universitetining axborot-resurs markazida tanishish mumkin (55 raqam bilan ro‘yxatga olingan. Manzil: Termiz shahri Barkamol avlod ko‘chasi 48-uy.)

Ilmiy rahbar

Kafedra mudiri:

Magistratura bo‘lim boshlig‘i



PhD. N. Kurbanazarova

PhD. N. Amonturdiyev

PhD. A.B. Narbayev

70230101 - Lingvistika (o‘zbek tili) mutaxassisligi magistranti
Qurbonova Maftuna Ibroyim qizining “O‘zbek tilida murojaat vositalarini
ifodalovchi birliklar” mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasi

ANNOTATSIYASI

Tadqiqot obekti – Ishning tadqiq obyekti – o‘zbek tilidagi rasmiy murojaat vositalari. O‘zbek tilidagi mavjud asarlar, kundalik gazeta-jurnallar, shuningdek, rasmiy uchrashuvlar, majlislar, yig‘inlar, teleeshittirishlar (teleshoular) ishning materiali hisoblanadi.

Ishning maqsadi – Magistrlik dissertatsiya ishining maqsadi murojaat vositalari va rasmiy murojaat vositalarini tavsiflash, tadqiq qilishdan iborat

Tadqiqot metodlari - Tadqiqotning metodologik asosi mustaqillik mafkurasi, dialektika kategoriyalari, shuningdek, umumiy tilshunoslik nazariyasi namoyandalari (Y. D. Deshriyev, V. Kolesov, V. Humboldt, G. Grays, S. Levinson, F. Sosyur) va o‘zbek tilshunoslari (A. Abduazizov, D. Ashurova, Sh. Safarov, S. Mo‘minov, Sh. Iskandarova, M. Sulaymonov, Q. Rasulov) ning qarashlari, tilning milliy mentalitetni saqlash va voqelantirish vazifasini tadqiq qilish konsepsiyasidir. Tadqiq usuli sifatida differensial-semantik, tipologik, qiyosiy-tarixiy metodlari xizmat qildi.

Olingan natijalar va ularning yangiligi –

- Avvalo, murojaat vositalari haqida umumiy, nisbatan to‘liqroq ma’lumotlar to‘plandi;
- Mavjud o‘zbek tilidagi asarlardan murojaat ifodalovchi vositalarni to‘plab va tadqiq qilindi;
- Rasmiy murojaatlarning namoyon bo‘lish sharoit va vaziyatlari o‘rganildi, uni shu va boshqa jihatlar yuzasidan ichki guruhlarga bo‘lindi, tavsiflandi;
- Shuningdek, zamonaviy va tarixiy (diaxron, sinxron) prinsiplardan kelib chiqqan holda ushbu mavzulardagi asarlardan namuna olinib tavsiflandi ;
- Rasmiy murojaat vositalarining turli ko‘rinishlarini guruhlarga ajratildi va ichki tasniflandi;
- O‘zbek tilidagi rasmiy murojaatlarni gender jihatdan tadqiq qilindi;

Amaliy ahamiyati - Mazkur tadqiqotdagi materiallardan va uning natijalaridan umumta'lim maktablari, akademik litsey, kasb-hunar kollejlari va oliy o'quv yurtining o'zbek filologiyasi yo'nalishida tahsil olayotgan bakalavr bosqichi talabalari uchun "Hozirgi o'zbek adabiy tili" fanidan o'quv-uslubiy majmua tayyorlashda va o'qitishda keng foydalanish mumkin.

Qo'llanilish sohasi – Oliy ta'lim va umumiy o'rta ta'lim muassasalari.

Master's dissertation on the topic "Units representing means of reference in the Uzbek language".

ANNOTATION

Research object - The research object of the work is official means of reference in the Uzbek language. Existing works in the Uzbek language, daily newspapers and magazines, as well as official meetings, assemblies, gatherings, television broadcasts (television shows) are the material of the work.

The purpose of the work - the purpose of the Master's thesis is to describe and research means of reference and official means of reference

Research methods - The methodological basis of the research is the ideology of independence, categories of dialectics, as well as representatives of the theory of general linguistics (Y. D. Deshiriev, V. Kolesov, V. Humboldt, G. Grays, S. Levinson, F. Saussure) and Uzbek linguists (A. Abduazizov, D. Ashurova, Sh. Safarov, S. Mominov, Sh. Iskanderova, M. Sulaymanov, Q. Rasulov) views, is the concept of researching the role of language in preserving and realizing the national mentality. Differential-semantic, typological, comparative-historical methods were used as a research method.

The obtained results and their novelty –

- First of all, general, relatively more complete information about means of appeal was collected;
- Collected and researched means of expression from existing works in Uzbek language;

- The conditions and situations of the appearance of official appeals were studied, it was divided into internal groups based on these and other aspects, and described;

- Also, based on modern and historical (diachronic, synchronous) principles, examples of works on these topics were described;

- Various forms of official reference tools were divided into groups and internally classified;

- The official appeals in the Uzbek language were studied in terms of gender;

Practical importance - from the materials of this research and its results, the subject "Current Uzbek literary language" can be used for undergraduate students studying Uzbek philology in general schools, academic lyceums, vocational colleges and universities. can be widely used in the preparation and teaching of the curriculum.

Field of application – Higher education and general secondary schools.

MUNDARIJA

KIRISH.....	7
BIRINCHI BOB. MUROJAAT VOSITALARI VA ULARNING TAVSIFI HAQIDA UMUMIY MA'LUMOT	
1.1. O'zbek tilida undalma va murojaat vositalari.....	13
1.2. Murojaat vositalarining ichki guruhlanishi	20
Bob bo'yicha xulosa.....	37
IKKINCHI BOB. RASMIY MUROJAAT VOSITALARI VA ULARNING TASNIFLANISHI	
2.1. Rasmiy uslub va unda murojaat vositalarining qo'llanilishi.....	38
2.2. Rasmiy murojaatlarning ichki semalariga ko'ra tasnifi.....	40
Bob bo'yicha xulosa.....	59
UCHINCHI BOB. TOTEMIK MUROJAATLAR VA ULARNING BADIY ADABIYOTLARDA BERILISHI	
3.1. Usmon Azim ijodida qo'llanilgan totemik murojaatlar.....	61
3.2. Mumtoz adabiyotimizda qo'llanilgan diniy murojaat vositalari.....	64
Bob bo'yicha xulosa.....	71
UMUMIY XULOSALAR.....	72
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	74

KIRISH

Til va uning birliklari kishilar tomonidan nutqda qo'llanganda, talaffuz etilganda yuzaga chiqadi va shu tufayli til o'zining asosiy vazifasini – aloqa vositasi bo'lish funksiyasini bajaradi. Lekin tilning funksiyasi bu bilan chegaralanib qolmaydi. Uning barcha funksiyalari katta ehtiyoj tufayli ana shu ehtiyojga javob tarzida yuzaga kelgan. Nafaqat vazifalar, tilning o'zi ham ehtiyoj mahsulidir, uning “vujudga kelishi insoniyatning ichki ehtiyoji bilan shartlangan”. Kishilar bir-biriga til birliklaridan foydalanib fikr uzatganlar, o'zlarining turli munosabatlarini bildirganlar, ehtiyojlarini qondirganlar. Bu jarayonda – munosabat bildirish, fikr uzatish, qabul qilish jarayonlarida – albatta, bir-birlariga murojaat qilingan. Murojaatning o'zi ham ana shu tarixiy jarayon va oqimning mahsuli sifatida shakllangan. Chunki “...inson qayerda paydo bo'lmasin, insonligicha qoladi, u boshqa o'zi singarilar bilan muloqotga kirishadi, institutlar tashkil etadi, qonunlar yaratadi...”.

Mamlakatimizda olib borilayotgan oqilona til siyosati natijasida tilshunoslik sohasi jadal sur'atlar bilan rivojlanib bormoqda. Xususan, Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning 2019-yil 21-oktabrda o'zbek tilining xalqimizning ijtimoiy hayotidagi hamda xalqaro nufuzi va maqomini tubdan oshirish maqsadidagi farmoni mazkur sohaning rivojlanishi uchun yana bir turtki bo'ldi.

Jamiyat a'zolari, insonlar aloqa-muloqot vositasi bo'lgan tildan o'z maqsad-muddaolarini, istak, orzu-xohishlarini namoyon qilish orqali foydalanganliklari holda boshqalar bilan ma'lumot-axborot almashadi, muloqot qiladi va bu hodisa hayot qonun-qoidalarini muvozanatda tutib turadi.

Ma'lumot-axborot almashinish jarayoni, ya'ni muloqot I shaxs-so'zlovchi va II shaxs-tinglovchi o'rtasida o'zaro dialog, polilog (ba'zan monolog ko'rinishida so'zlovchining o'ziga murojaati) shaklida amalga oshadi va uni mazmunli, chiroyli, to'g'ri amalga oshirish uchun turli unsurlardan: mimika (yuz harakati, qo'l harakati), grammatik vositalar (morfema, xususan, kichraytirish-erkalash,

ko'plik-hurmat morfemalari), leksik birliklar (ko'chma ma'noli, bo'yoqdor so'zlar)dan unumli foydalanish muhim ahamiyatga egadir. Shuni aytish kerakki, muloqot uchun muhim bo'lgan vositalardan yana biri, shubhasiz, murojaat vositalaridir. Umumiy muloqot jarayoni(kontekst)ning qanday boshlanib, qanday tugashida shaxslararo murojaat so'zning o'rni muhim. Murojaat vositalari bevosita so'zlovchining maqsad-muddaosini ifodalab, uning kayfiyatiga hamohang tarzda namoyon bo'ladi.

Odatda, murojaat shakli haqida gapirilganda, eng avval, tinglovchi nazarda tutiladi. Aslida bu murojaatning ikkinchi obyektidir. Tinglovchi ham ijtimoiy – mantiqiy obyekt sifatida, ham lingvistik obyekt sifatida bir-biriga to'la mos tushadi: tinglovchi – sen, ya'ni ijtimoiy shaxs sifatida – o'zga. Buning nutqdagi ifodalanishi – mantiqiy-grammatik shakllanishi ham o'zga, ya'ni ikkinchi shaxs, birlik yoki ko'plik. Bu ijtimoiy o'zga – grammatik ikkinchi shaxs so'zlovchining ziddi bo'lib, u fikr qabul qiluvchi sifatidagi ijtimoiy figuradir – nutq va u orqali ifodalanayotgan fikr unga qaratilgan.

Mavzuning dolzarbligi. O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va madaniy-ma'naviy sohalardagi rivoji fan va ta'lim darajasini yanada kuchaytirish, fanlarning iqtisodiy va ijtimoiy samaradorligiga erishishning yangi bosqichlariga ko'tarishni dolzarb qilib qo'yimoqda. Ayniqsa, til ta'limining milliy ma'naviyatni yuksaltirishdagi roli haqida so'z ketar ekan, bu borada jamiyatimizda til madaniyatini oshirish borasida hali ko'p ish qilishimiz lozimligini ham unutmasligimiz kerak. Ayniqsa, rasmiy doiralarda adabiy til qoidalariga rioya qilmaslik, faqat ma'lum bir hudud doirasida ishlatiladigan sheva elementlarini qo'shib gapirish holatlari uchrab turishi bu masalalarning hali-hanuz dolzarb bo'lib qolayotganini ko'rsatadi. Bu haqida so'z yuritganda bobomiz Alisher Navoiyning "Tilga ixtiyorsiz - elga e'tiborsiz" degan so'zlarida naqadar chuqur hayotiy haqiqat mujassam ekanligiga yana bir bor ishonch hosil qilamiz. Darhaqiqat, istiqlol xalqimizning ma'naviy uyg'onishi uchun to'la imkoniyat yaratdi.

Dunyo tilshunosligining hozirgi holati fanimizda yangi yo‘nalishlarning shakllanishini taqozo qilmoqda. Ular diqqat markazida “lison-nutq” masalasini turli daraja va ko‘rinishda namoyon qiluvchi “til va jamiyat”, “til va madaniyat”, “til va shaxs”, “milliy til va milliy tafakkur” kabi substansial asoslarda hal qilinuvchi nutqiy muammolar turadi. Jahon tilshunosligida XX asr so‘nggida shakllanib, jadal rivojlanayotgan fanning yangi tarmoqlari (paradigmalari) bo‘lgan sotsiolingvistika, pragmalingvistika va ularning sintezidan iborat sotsiopragmalingvistika kabi ilg‘or fan yo‘nalishlari aynan shu masalalar tadqiqi bilan shug‘ullanmoqda. O‘zbek tilidagi lisoniy hodisalarning nutqiy voqelanishini ijtimoiy-lisoniy nuqtayi nazardan, ya’ni so‘zlovchi va tinglovchi shaxsi bilan bog‘liq ravishda tadqiq qilish bu boradagi muammolar yechimiga daxldorligi bilan xarakterlanadi. Xususan, milliy ma’naviyat va shaxsning madaniy saviyasi hamda etnik xarakterini yaqqol namoyon qiluvchi muloqot jarayonidagi murojaat vosita va shakllarini so‘zlovchi tomonidan qay darajada mohirona ishlatish ham tilshunoslik jihatdan, ham nutqiy vaziyat jihatidan nihoyatda dolzarb. Bugungi kunda, muloqot madaniyatini shakllantirishga alohida e’tibor berilayotgan bir sharoitda, muloqot jarayonida foydalanilayotgan murojaat vosita va shakllarini, xususan, rasmiy murojaatlarni adabiy til normalariga to‘liq amal qilgani holda uni o‘rganish, tekshirish va amaliy hayotga tadbiiq etish nihoyatda muhimdir. Muloqot yoxud kontekstda murojaat qiluvchi va uni qabul qiluvchi shaxs munosabati, nutq sharoiti va nutq vaziyati nuqtayi nazardan rasmiy murojaatlarni o‘rganish dolzarb masalalardan hisoblanadi. Shu jihatdan, zamonaviy tilshunoslik nuqtai nazaridan kelib chiqib, tilni har tomonlama o‘rganish va u orqali insonlarga manfaat keltirish jihatidan so‘zlashuv nutqida juda ahamiyatli bo‘lgan murojaatlarni tadqiq etishga katta ehtiyoj sezilmoqda. Ayniqsa, mustaqil davlatimizning istiqbolli va istiqboli mustahkamlanib borayotgan hozirgi davrimizda rasmiy murojaatlar yuzasidan tekshirishlar olib borish nafaqat, murojaat vositalarining keng ko‘lamda o‘rganishini ta’minlaydi, balki rasmiy-idoraviy uslubning imkoniyatlarini yuqori darajada ochib beradi. Umumiy tarzda katta ko‘lamda o‘rganilmagan murojaat vositalarini, shu jumladan, rasmiy murojaat shakllarini o‘rganish tilshunoslik

jihtadan nihoyatda ahamiyatli bo'lsa, ushbu tilda muloqot qiluvchi keng xalq-omma uchun ham shu darajada ahamiyatliligi mavzuning o'rganilish dolzarbligiga yana bir yaqqol isboti ekanligini ko'rsatadi.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. O'zbek tilshunosligida rasmiy murojaatlar, umuman murojaat shakllarining o'ziga xos xususiyati, turlari hamda vazifalarini aniqlashga oid tadqiqotlar sanoqli. Masalan, murojaat vositalari to'g'risida Z.Akbarova "O'zbek tilida murojaat shakllari va ularning lisoniy tadqiqi" dissertatsiyasi (fan nomzodlik Toshkent, 2007) va N.Ahmedova "O'zbek tilida murojaat birliklarining semantik-konnotativ tadqiqi" dissertatsiya (fan nomzodlik Toshkent, 2008)lari shular jumlasidandir.

Shuni aytish kerakki, sotsiolingvistik atama bo'lgan *murojaatlar* tilshunoslikning sintaksis bo'limida *undalma* nomi ostida anchayin to'liq tadqiq qilingan, o'rganilgan. Xususan, A.R.Sayfullayev "O'zbek tili sodda gap qurilishida uchinchi darajali bo'laklar" (1972), A.H.Sulaymonov "O'zbek tilida atov gap, undalma va vokativ gaplar" (1956), A.G'. G'ulomov "Hozirgi zamon o'zbek tilida konspektiv kurs" (1948), "Sodda gap" (1955), A.G'. G'ulomov, M. A. Asqarova "Hozirgi o'zbek adabiy tili. Sintaksis" (1965), B.O'rinboyev "Hozirgi o'zbek tilida vokativ kategoriya" va boshqa ko'plab ilmiy tadqiqot ishlari keng qamrovli tarzda talqin etilgan.

Olib borilgan ilmiy tadqiqotlardan shuni kuzatishimiz mumkinki, murojaat vositalari turli olimlar tomonidan turli jihatlari o'rganilgan. Jumladan, murojaatlarning ijtimoiy mohiyatini sotsiolingvistik jihatdan (Z.Akbarova), shuningdek, semantik jihatdan (N.Ahmedova) tadqiqi va undalma nomi ostida ko'plab turlari keng yoritilgan bo'lsa-da, ammo murojaatning tarkibiy qismi bo'lgan rasmiy murojaatlar keng o'rganilmagan bo'lib, aynan biz shu jihatlarni o'rganishni asos qilib oldik.

Tadqiqotning maqsad va vazifalari.

Magistrlik dissertatsiya ishining maqsadi rasmiy murojaat vositalarini tavsiflash, tadqiq qilishdan iborat. Bu maqsadga quyidagi vazifalarni bajarish asosida erishiladi:

- avvalo, murojaat vositalari haqida umumiy, nisbatan to‘liqroq ma’lumot berish;
- mavjud o‘zbek tilidagi asarlardan murojaat ifodalovchi vositalarni izlash, to‘plash va tadqiq qilish;
- rasmiy murojaatlarning namoyon bo‘lish sharoit va vaziyatlarini o‘rganish, uni shu va boshqa jihatlar yuzasidan ichki guruhlariga bo‘lish, tavsiflash;
- mavjud o‘zbek tilidagi asarlardan unumli foydalanib rasmiy murojaatlarni, izlash, to‘plash va tadqiq qilish;
- shuningdek, zamonaviy va tarixiy (diaxron, sinxron) prinsiplardan kelib chiqqan holda ushbu mavzulardagi asarlardan namuna olish va tavsiflash ;
- rasmiy murojaat vositalarining turli ko‘rinishlarini guruhlariga ajratish va ichki tasniflash;
- o‘zbek tilidagi rasmiy murojaatlarni gender jihatdan tadqiq qilish;
- rasmiy murojaatlarni yozma va og‘zaki turlarga bo‘lish orqali nafaqat asarlardan, gazeta-jurnallardan, balki turli rasmiy yig‘ilishlar, majlislar, eshittirishlar, namoyishlar, mitinglar, tele va radiodasturlarda foydalaniladigan murojaatlarni izlash, to‘plash, tavsiflash.

Ishning tadqiq obyekti, predmeti va materiali. Ishning tadqiq obyekti – o‘zbek tilidagi rasmiy murojaat vositalari. Ishning tadqiq predmeti rasmiy murojaatlarni izlash, to‘plash ularni o‘xshash va farqli belgilar asosida ichki guruhlariga bo‘lish orqali ularning turli sema (ma’no) qirralarini ochib berish hisoblanadi. O‘zbek tilidagi mavjud asarlar, kundalik gazeta-jurnallar, shuningdek, rasmiy uchrashuvlar, majlislar, yig‘inlar, teleeshittirishlar (teleshoular) ishning materiali hisoblanadi.

Tadqiqot metodlari. Tadqiqotning metodologik asosi mustaqillik mafkurasi, dialektika kategoriyalari, shuningdek, umumiy tilshunoslik nazariyasi namoyandalar (Y.D.Deshiriyev, V.Kolesov, V.Humboldt, G.Grays, S.Levinson, F.Sossyur) va o‘zbek tilshunoslari (A.Abduazizov, D.Ashurova, Sh.Safarov, S.Mo‘minov, Sh.Iskandarova, M.Sulaymonov, Q.Rasulov)ning qarashlari, tilning milliy mentalitetni saqlash va voqelantirish vazifasini tadqiq qilish konsepsiyasidir.

Tadqiq usuli sifatida differensial-semantik, tipologik, qiyosiy-tarixiy metodlari xizmat qildi.

Magistrlik dissertatsiya ishining tuzilishi va hajmi. Magistrlik dissertatsiya ishi kirish, uch asosiy bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, sahifani tashkil qiladi.

Bajarilgan ishning asosiy natijalari. 2022-yilda “ Talqin va tadqiqotlar” respublika ilmiy uslubiy jurnalida “Usmon Azim ijodida Allohga murojaat shakllari”, 2023- yilda “Academic Research in Modern Science” xalqaro konferensiyasida “O‘zbek tilida qarindoshlik nomlari bilan qilinadigan murojaat shakllari”, “Journal of Advanced Research and Stability” xalqaro jurnalida “Murojaat shakllarining tematik jihatdan tasnifi” nomli Magistrlik dissertatsiya ishi mavzusi bilan bog‘liq maqolalar e‘lon qilingan.

I BOB. MUROJAAT VOSITALARI VA ULARNING TAVSIFI HAQIDA UMUMIY MA'LUMOT

1.1. O'zbek tilida undalma va murojaat vositalari

O'zbek tilshunosligida undalma va uning xususiyatlari yuzasidan bir qator ilmiy ishlar amalga oshirilgan bo'lib, ularda asosan, undalmaning lingvistik xususiyatlari ochib berilgan. Shu o'rinda zamonaviy o'zbek tilining dastlabki asoschilari bo'lgan jadid ma'rifatparvari A. Fitrat va Zunnun kabi bir qator olimlar tomonidan undalma haqida fikr-mulohazalar bildirilgan, ilmiy ishlar qilingan. Chunonchi, A. Fitrat 1924- yilda nashr etilgan "Nahv" (Sintaksis) asarida gap turlarini ajrata turib, "undashli gap" atamasi ostida undalmali gaplarni ajratadi va undalmaga quyidagicha ta'rif beradi: "Undashli gap – gap kimgadir qaratib aytilgan bo'lsa, shuning oti gapning bosh tomonida yo orasida, yo o'rtasida aytilsa, ana shunday gapga undashli gap deyiladi. Shu otning o'zi undash oti bo'ladi:

Yigitlar, qo'lingizdan kelgancha bilimingizni orttiring.

Undash oti gapning bosh tomonida bo'lsa, undan keyin, oxirida bo'lsa, undan burun, gap orasida bo'lsa ikki tomondan “,” belgisi yoziladi. Undashli gap oxirida undash belgisi “!” qo'yiladi. Undashka kuch bermak, qaynab qichqirib undamakni ko'rsatmak uchun undash otidan burun “E” so'zi, undash otidan keyin ham undash belgisi qo'yiladi. Undash oti yolg'iz o'zigina emas, uzun-uzun sifatlari bilan birlashib keladi”¹. Shuningdek, Fitratdan keyin Sh. Zunnun 1925-yilda nashr etilgan "Til qoidalar" nomli kitobida undalma haqida quyidagi fikrlarni bayon qiladi: "Gapning ichida tovushni ko'tarib bir kishiga yoki bir narsaga yondashib aytilgan so'zlar "undosh so'z" ataladi:

Mehnatkashlar, birlashingiz"².

"Undalmaning vazifasi aytilayotgan fikrga tinglovchining diqqatini tortishdir"³, - degan fikrni A.G'ulomov o'zining 1955- yilda qayta nashr qilingan "Sodda gap" nomli kitobida aytgan edi. Bu fikr undalma faqat shaxsni bildirgan so'zlar bilan ifodalanganda to'g'ri bo'ladi. Lekin undalma hayvonlarni, jonsiz

¹ A. Fitrat "Nahv. O'zbek tili qoidalar" to'g'risida bir tajriba." Ikkinchi kitob. – Samarqand – Toshkent, 1924 32-bet

² Sh. Zunnun "Til qoidalar" Toshkent, 1925

³ A. G'ulomov "Sodda gap" Toshkent 1955

predmetlarni ifodalovchi soʻzlar bilan ifodalangan boʻlsa yuqoridagi qoida biroz “torlik” qiladi. Keyinchalik “Oʻzbek tili grammatikasi” kitobining 1944-1976-yilgi nashrlarida undalmalarga: “Soʻzlovchining nutqi qaratilgan, shaxsni yoki predmetni bildirgan soʻzlar”, - deya taʼrif berildi va bu taʼrif shu davrgacha undalmalar haqida aytilgan va bildirilgan barcha fikrlarning jamlanmasi edi. Bugungi kun tilshunosligida ham undalmalar fikr qaratilayotgan shaxs yoki predmetni ifodalash uchun qoʻllaniladi.

Rus tilida, oʻzbek va boshqa turkiy tillarda yaratilgan ilmiy ishlarda murojaat soʻzlari, yaʼni chaqirish, undash maʼnosidagi soʻzlar *chaqiriq soʻz*, *chaqiriq forma*, *chaqirish kelishik*, *vokativ forma*, *vokativ kelishik*, *undash kelishik*, *murojaat soʻzlar* kabi turli-tuman terminlar bilan yuritilgan.

Undalma boʻyicha alohida tadqiqot olib borgan A.Sayfullayev undalmaning leksik-semantik xususiyatlari, gapdagi oʻrni va uning tarkibi haqida batafsil maʼlumot beradi⁴. Baʼzi tilshunoslar undash, chaqiriq maʼnolarini qamrab olgan soʻzlarni vokativ formadagi soʻzlar deb izohlaydilar. B.Oʻrinboyev undalma termini oʻrnida “vokativ kategoriya” terminini qoʻllaydi. Undalma oʻzbek tilshunosligida koʻproq sof lingvistik tomondan tahlil qilingan boʻlib, keyingi yillardagi tadqiqotlarda esa undalmaning ijtimoiy-lisoniy xususiyatlariga ham eʼtibor kuchaydi⁵. Ijtimoiy tilshunoslik nuqtayi nazaridan qaraganda, koʻpgina ishlarda “*undalma*” termini oʻrnida “*murojaat shakllari*” termini qoʻllanilmoqda. Mustaqillik yillarida “*murojaat*” termini faol qoʻllanilib, u koʻproq sotsiolingvistikaning oʻrganish obyekti tashkil qiladi. Bundan tashqari, murojaat shakllari termini undalma terminiga nisbatan keng qamrovli hisoblanadi.

Shu oʻrinda undalma soʻzining kelib chiqishi-yasalishi etimologiyasiga nazar solsak, soʻzning oʻzagi un boʻlib, tovush, ovoz, maʼnosini anglatgan⁶. Qadimgi

⁴ Sayfullayev A. Hozirgi oʻzbek adabiy tilida undalma. –Toshkent: Fan, 1968.

⁵ Moʻminov S. Oʻzbek muloqot xulqining ijtimoiy–lisoniy xususiyatlari: filol. fanlari dokt. ...diss. –Toshkent, 2000; Iskandarova Sh. Oʻzbek nutq odatining muloqot shakllari: filol.fanlari nomz. ...diss. –Toshkent, 1993; Rasulov Q. Oʻzbek muloqot xulqining funksional xoslanishi: filol. fanlari nomz. ...diss. –Toshkent, 2008; Akbarova Z. Oʻzbek tilida murojaat shakllari va uning lisoniy tadqiqi: filol. fanlari nomz. ...diss. –Toshkent, 2007; Ahmedova N. Oʻzbek tilida murojaat birliklarining semantik – konnotativ tadqiqi: filol. fanlari nomz. ...diss. –Toshkent, 2008;

⁶ Oʻzbek tilining izohli lugʻati, –Toshkent, 2006.

turkiy tilda ham shu ma'nononi ifodalagan bu ot *ön* tarzida talaffuz qilingan. O'zbek tilida *ö* unlisining yumshoqlik belgisi yo'qolgan va natijada un holiga kelib qolgan: *ön*>*un*⁷.

Un (ovoz, tovush) otidan "biror ish harakatni bajarishga chaqirmoq, da'vat etmoq, buyurmoq"⁸ ma'nosini anglatuvchi *unda-* fe'li yasalgan. Ayni fe'lning kelib chiqishi etimologik manbalarda quyidagicha izohlanadi: Bu fe'l qadimgi turkiy tilda "ovoz ma'nosini anglatgan *ön* otidan *dä* (< *-lä*)" qo'shimchasi bilan yasalgan: *ön*+*dä*=*öndä*. Bu fe'l asli "ovoz chiqar, chaqir" ma'nosini bildirgan bo'lib, "da'vat et" ma'nosi shu ma'no asosida yuzaga kelgan⁹. *Undamoq* fe'lidan *-l* qo'shimchasi orqali majhul nisbat hosil qilingan va bu shaklga ot yasovchi *-ma* qo'shimchasining qo'shilishi natijasida *undalma* til birligi kelib chiqqan.

"Murojaat" so'ziga izohli lug'atda shunday ta'rif beriladi:

- ko'rib chiqish, taqqoslash;
- biror narsa so'rash, ishni qayta ko'rish;
- birovga qarata aytilgan gap, qilingan da'vat, chaqiriq¹⁰;

Qayd qilingan ma'nolardan "birovga qarata aytilgan gap, qilingan da'vat, chaqiriq" ma'nosini adresant va adresat nutqida namoyon bo'lish va vazifasini kuzatib, ularning ijtimoiy-lisoniy va boshqa jihatlardan tasniflash asosida tahlil qilishga harakat qilamiz. Ko'rinib turibdiki, murojaat, asosan, kommunikantlar o'rtasida tinglovchi diqqatini tortish uchun xizmat qiladi. Murojaat shakllarining ijtimoiy-lisoniy xususiyatlari Sh. Iskandarova, S. Mo'minov, M. Sulaymonov, Z. Akbarovalarning ilmiy ishlarida qayd qilingan¹¹. Z. Akbarova tomonidan murojaat shakllarining ijtimoiy xususiyatlari, undalma va murojaatning umumiy yoki farqli tomonlari, ifodalanish usul hamda vositalari, murojaat ifodalanishining ekstralingvistik va psixolingvistik vosita, omillari, murojaat leksikanining tematik tasnifi keng yoritib berilgan. Tadqiqotchi Z. Akbarova undalma va murojaatning

⁷ Rahmatullayev Sh. "O'zbek tilining etimologik lug'ati (turkiy so'zlar)", - Toshkent. Universitet, 390-bet

⁸ O'zbek tilining izohli lug'ati, II tom. –Moskva, 1981. 277-bet.

⁹ Rahmatullayev Sh. "O'zbek tilining etimologik lug'ati (turkiy so'zlar)", - Toshkent. Universitet, 391-bet

¹⁰ O'zbek tilining izohli lug'ati, 2 jild. –Toshkent, 2006. 645-bet

¹¹ Mo'minov S. O'zbek muloqot xulqining ijtimoiy-lisoniy xususiyatlari: filol. fanlari dokt. ...diss. – Toshkent, 2000; Iskandarova Sh. O'zbek nutq odatining muloqot shakllari: filol.fanlari nomz. ...diss. – Toshkent, 1993; Akbarova Z. O'zbek tilida murojaat shakllari va uning lisoniy tadqiqi: filol. fanlari nomz. ...diss. –Toshkent, 2007.

farqli va o'ziga xos tomonlarini yoritarkan, murojaat ifodalovchi so'z ham mohiyatan grammatik aspektda yondashilsa, u undalmaga to'la mos tushadi degan fikrni bildiradi. Lekin mazmunan murojaat obyektini ifodalovchi so'z murojaat shakli sifatida, so'zlovchining nutqi qaratilgan shaxsnigina emas, har qanday obyektini ifodalaydi¹². Demak, murojaat shakllari undalmaga nisbatan kengroq tushuncha ifodalaydi. Murojaat shakllarini ijtimoiy-lisoniy jihatidan tahlil qilganda, u adresant va adresat o'rtasida aloqani vujudga keltirish bilan bir qatorda, suhbatning qanday davom etishini, kommunikantlarning bir-biriga bo'lgan turli munosabatini, hurmati, yoshi, jinsi, shu bilan birga, milliy madaniyatini ham namoyon etadi.

Inson tashqi olam bilan, ijtimoiy munosabatlardan kelib chiqib bog'lansa, faqat til orqali aloqaga kirishadi, aloqaga kirish imkoniga til tufayli ega bo'ladi, tashqi ijtimoiy-siyosiy, ilmiy-falsafiy, ruhiy-ma'naviy dunyo mazmun-mohiyati bilan ham til tufayli tanishadi. U o'z dunyoqarashini ham ana shu munosabatlar tufayli va til vositasida olgan bilimlari zamirida shakllantiradi. Tashqi olam, obyektiv borliq inson uchun makromaydondir. Mikromaydoni esa inson o'zi bevosita aloqa bog'layotgan, muloqotga kirishayotgan o'zga – suhbatdoshdir. Ana shu o'zga – ikkinchi subyekt haqida ham uning nutqi orqali ma'lumot olinadi – o'zganing intellektual va ruhiy-ma'naviy dunyosi faollashgan til tufayli bilib olinadi. Shuningdek, ayni damda, birinchi shaxs – birinchi subyektning, ya'ni so'zlovchining o'zida ham ana shu ijtimoiy mazmun-mohiyat til tufayli shakllanadi.

Yangi davr adabiyotida shoir o'z joniga murojaat qilishi poetik vazifa bajaradi, muallifning g'oyaviy maqsadini ochish uchun detal sifatida xizmat qiladi. Badiiy matnda murojaat, grammatik ifoda bilan aytganda, undalma faqat muayyan shaxs, narsa, hodisa, umuman, tegishli nutq qaratilgan obyektini ishoralash va ko'rsatish uchungina xizmat qilmaydi. Har qanday murojaatning asosiy va birlamchi vazifasi apellyativlik, ya'ni chaqirish mazmuni bo'lsa-da, bu vazifa badiiy matnda kuchsizlanishi va unga qo'shimcha ravishda undalma

¹² Akbarova Z. O'zbek tilida murojaat shakllari va uning lisoniy tadqiqi: fil.fan.nomz.diss. –Toshkent, 2007. 21-bet.

yana boshqa vazifalarning ifodachisiga ham aylanishi mumkin. Shu sababdan, poetik sintaksis izlanuvchilari undalmaning uch asosiy turini e'tirof etganlar:

1) adresatsiya va xarakterzatsiya vazifalarini o'zida birlashtirgan undalmalar (adresatni tavsiflovchi undalmalar);

2) adresatsiya va nominatsiya vazifalarini o'zida birlashtiruvchi undalmalar (undalma-nominatsiyalar);

3) uch vazifasining barchasi (adresatsiya, nominatsiya va xarakterzatsiya)ni mujassamlashtirgan undalmalar (undalma pozitsiyasidagi fraza-nominatsiyalar). Bunday undalmalar poetik sintaksisning o'ziga xos o'tkir vositasiga aylanadi.

O'zbek poetik matnlarida ushbu tur undalmalarning betakror namunalari mavjud. Poetik matnda murojaat qilinayotgan obyektini ko'rsatish barobarida uni ayni paytda tavsiflovchi undalmalar badiiy fikr sig'imining yanada kengayishi uchun xizmat qiladi. Masalan:

*Og'ir yigit, sening go'zal, nurli ko'zingda,
Bu millatning saodatin, baxtin o'qudim.
O'ylashingda, turishingda hamda o'zungda,
Bu yurt uchun qutulishning borlig'in ko'rdim.*

(Fitrat. "O'gut")

Bu parchadagi *og'ir yigit* undalmasi murojaat obyektini bo'lgan shaxsni faqat nomlaydigina emas, balki uni tavsiflaydi ham, ya'ni bir paytning o'zida mazkur birlik ikki vazifani bajaradi. *Og'ir yigitga* qaratilgan bu murojaatda bir shoir iltijosi, da'vatigina emas, bu haroratli ovozda kamida bir millatning asriy istagi, qalb chaqirig'i yangraydi. Murojaat obyektini ifodalash va uni nomlashdan iborat poetik polifunksionallikni namoyon etuvchi undalmalar ham o'zbek poetik matnlarida ko'plab uchraydi. Masalan:

*Nekrasov hasrati, o, rus hasrati,
Poyoning bormikan, hadding bormikan.*

(A. Oripov "Nekrasov hasrati")

Parchadagi Nekrasov hasrati, rus hasrati undalmalari murojaat qilinayotgan obyektini ifodalaydi, ayni paytda nominativ vazifani ham bajaradi, albatta, bu polifunksionallik matndagi badiiy mazmun salmog‘ini orttirishga xizmat qiladi. Quyidagi misollarda ham mazkur holatni ko‘rish mumkin:

Sen esding – ochildi yorning jamoli,
O, yurtim shamoli, yurtim shamoli.

(A. Oripov “Yurtim shamoli”)

Jaloliddin samani bo‘lib,
Sakrab o‘tding Amudaryodan.
Sensan o‘sha samanim manim,
O‘zbekiston, Vatanim manim.

(A. “Oripov O‘zbekiston”)

Ham adresatsiya, ham nominatsiya, ham xarakterizatsiyadan iborat poetik polifunksionallik undalmalarning badiiy qimmatini yanada oshiradi, yaxlit matnning ta‘sir kuchiga kuch qo‘shadi. Mazkur uch vazifa mahorat bilan mujassamlashtirilgan undalmalarning juda ham tig‘iz zanjiri qo‘llanilgan quyidagi she‘riy parchani ko‘raylik:

Ey mulkini bir chekkada tinch kemirib yotgan zot,
Besh tiyinga qadrini ham, xalqini ham sotgan zot,
Ko‘kragida na himmatu na g‘ayratdan asar bor,
Yuragida na oriyat, na shavq bor, na kadar bor,
Umrída hech qilgan emas, moldan o‘zga bir niyat,
Seni deya tiladimi yuraklarga hurriyat?

(E.Vohidov “Og‘riqli savollar”)

Parchada qo‘llangan beshta undalma zanjiridagi (mulkini bir chekkada tinch kemirib yotgan zot; besh tiyinga qadrini ham, xalqini ham sotgan zot; ko‘kragida na himmatu, na g‘ayratdan asar bor; yuragida na oriyat, na shavq bor, na kadar bor; umrída hech qilgan emas, moldan o‘zga bir niyat) har bir undalma ham murojaat obyektini ifodalaydi, ham uni nomlaydi va ayni paytda bu obyektning mutlaqo original tavsifini aniq-tiniq namoyon qiladi. Xullas, tilning

apellyativ vazifasi uning kommunikativ va hatto poetik vazifasidan ajratilgan holda tasavvur etilmaydi, ammo bu vazifalarning bevosita amalga oshishida u yoki bu tarzda murojaat unsuri ishtirok etadi. Ayni paytda shuni ham ta'kidlash joizki, ayniqsa, apellyativ vazifaning ijrosi jarayonida murojaat alohida o'rin tutadi. Shuningdek, tilning poetik-estetik vazifasining amalga oshishida ham murojaatning o'rnini inkor etib bo'lmaydi.

Sotsiolingvistika fani tilning jamiyatga, jamiyatning tilga munosabati masalasini o'rganar ekan, ijtimoiy muhitni ham nazaridan chetda qoldirmaydi. Kommunikantlarning qaysi muhitda yashashi masalasini ham tahlil qiladi. "Muhit tushunchasi o'z ichiga oilani, jamiyatni, davr va tarixni, tabiatni qamrab oladi. Insonni qurshab turuvchi barcha narsa: turmush va uning jihozlari, tabiat, jamiyat va davlat, shaxs, tarix, ya'ni turli davr va xalqlarning madaniyatlari muhit tushunchasiga kiradi"¹³. Demak, inson yashab turgan tabiat va jamiyat muhitni tashkil qiladi. Inson o'sha muhitda yashar ekan, bu uning fe'l-atvoriga, shuningdek, muloqot madaniyatiga ham o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmaydi. "Insondagi o'zgarishlar, eng avvalo, uning xulqida, jumladan, muloqot xulqida namoyon bo'ladi. Demak, ekologiya ijtimoiy muhitga, ijtimoiy muhit esa muloqot xulqiga ta'sir ko'rsatadi"¹⁴. Til jamiyat taraqqiyoti natijasida rivojlanar ekan, ijtimoiy muhitning til va uning namoyon bo'lish shakli – nutqqa ta'siri juda katta. Inson mansub bo'lgan muhitning tabiati uning nutqida ham yorqin namoyon bo'ladi. Kishilarning yashash tarzi, ish faoliyati, o'qish tartibi, sharoiti, atrof-muhitning o'zgarishi uning nutqida ham namoyon bo'ladi. Ijtimoiy muhitning tilga ta'siri masalasi sotsiolingvistik tadqiqotlarning diqqat markazida turadi. Tadqiqotchi S.Mo'minovning mazkur masala bilan bog'liq tadqiqot ishida ham ijtimoiy muhitning muloqot xulqiga ta'siri, ya'ni qishloqliklar va shaharliklar nutqining o'ziga xos farqli jihatlari asosan muhit bilan bog'liq ekanligi

¹³ Nosirov A. Tarixiy haqiqat va uning badiiy talqini ("Yulduzli tunlar" romani misolida): filol.fanlari nomzodi. ... diss. – Toshkent, 1999. 11–bet.

¹⁴ Mo'minov S. O'zbek muloqot xulqining ijtimoiy-lisoniy xususiyatlari: filol. fanlari d-ri. ...diss. – Toshkent, 2000. 136-bet.

ta'kidlangan. Sotsiolog va psixologlar ham kommunikantlar nutqining o'ziga xos tarzda shakllanishida ijtimoiy muhitning alohida o'rin tutishini ta'kidlaydilar.

So'zlovchi va tinglovchining jamiyatda qanday o'rin tutishi, yoshi, jinsi, lavozimi, kasb-koriga qarab murojaat shakllari o'zgarib boraveradi. "Shuni ham ta'kidlash kerakki, murojaat shakli xalqning o'zligini anglashi qay darajada ekanligini ko'rsatuvchi mezonlardan biridir". "Murojaat birliklari kundalik hayotimizda nutq faoliyati, nutq jarayonida keng qo'llaniladigan, o'zaro aloqalaralashuvga xizmat qiladigan, so'zlovchining tinglovchiga bo'lgan munosabatini ifodalaydigan, o'zida turlicha konnotativ ma'nolarni, semantik "ohanglarni" tashiydigan o'tkir ta'sirchan vositadir"¹⁵. Sh. Iskandarova o'zbeklar muloqotida ishlatiluvchi murojaat shakllarini bir nechta omil bilan belgilaydi¹⁶. Bular:

- ijtimoiy mansublik;
- kasb-lavozim, unvon;
- suhbatdoshlarning tanish notanishligi;
- nutqiy harakat sharoiti;
- muloqotchilarning yoshi;
- ularning jinsi;
- yashash joyi;
- uslubiy holati;
- muloqotchilar xarakteri.

1.2. Murojaat vositalarining ichki guruhlanishi

Murojaat shakllarini qaysi jihatiga ko'ra sinflarga ajratish tilshunos olimi Z. Akbarova ishlarida keng yoritib berilgan¹⁷. Shu va shunga o'xshash tasniflar yuzasidan biz murojaatlarni obyektiv munosabatiga ko'ra, avvalo, quyidagi 3 katta turga ajratdik:

1. Shaxsga murojaat

- Qani, Davron aka, nima deysiz? (Qahhor "Kartina" hikoyasi)

¹⁵ Ahmedova N. O'zbek tilida murojaat birliklarining semantik-konnotativ tadqiqi: fil.fan.nomz. ...diss. Toshkent, 2008. 122-bet.

¹⁶ Iskandarova Sh. O'zbek nutq odatining muloqot shakllari: fil.fan.nomz...diss. Toshkent, 1993. 67-bet.

¹⁷ Z. Akbarova "O'zbek tilida murojaat shakllari va uning lisoniy tadqiqi" 74-76-betlar

➤ Yot, birpasdan keyin toyday chopib ketasan, o‘g‘lim. (Oybek “Bolalik” qissasi)

2. Narsa- predmet nomlariga murojaat

➤ Bor ekansan-ku, tulporim. (O‘. Hoshimov “Ikki karra – ikki besh”)

➤ Govmishim, sen ro‘zg‘orimiz obodi bo‘lding, bolalarimiz rizq-u ro‘zi bo‘lding, oqligi bo‘lding. (T. Murod “Momoyer qo‘shig‘i” qissasi)

➤ Qo‘rqma, jonivor, qo‘rqma. Sovqotibsan, kel, isitib qo‘yay. (S. Ahmad “Laylak keldi”)

3. Tangriga murojaat

➤ Xudoyim, qanaqa kunlar boshlanar... (U. Azim “Saylanma”)

➤ Tangrim, bu jonni o‘zing bergansan. Endi omonatingni ol. (S. Ahmad “Azroil o‘tgan yo‘llarda” hikoyasi)

Shaxsga murojaat – so‘zlovchi tomonidan tinglovchiga ismi, mansab-unvoni, yoshi, jinsi, kasb-kori va boshqa o‘ziga xos xususiyatlariga ko‘ra nomlash bilan ifodalanadi. Shuni ta’kidlash kerakki, shaxsga murojaat asosiy o‘rganiladigan shakl bo‘lib, keyingi ikkita murojaat vositasi shartlidir va uslubiy xoslanish xususiyatiga ega. Ular, asosan, badiiy, so‘zlashuv, qisman publitsistik uslub doirasida qo‘llaniladi. Insonga murojaat shakllari turlicha bo‘lib, ular quyidagi ko‘rinishlarga ega:

Shaxs nomlari-ismlar

➤ Biz yorug‘ dunyoni ko‘rish uchun tug‘ilganmiz, Turg‘unoy. (A. Qahhor “Maston” hikoyasi)

kasb-hunarlarini nomlari

➤ Endi, do‘xtirjon, bizga javob bersangiz...(O‘. Hoshimov “Ikki karra – ikki besh” qissasi)

qarindoshlik nomlari

➤ Yur, o‘g‘lim, Zulfining oldiga boramiz... (Oybek “Bolalik” qissasi)

mansab-unvonlari nomlari

➤ Uch kundan keyin imtihon, Rais bova! (O‘. Hoshimov “Ikki karra – ikki besh” qissasi)

noodatiy nomlar, ya'ni shaxsning turli o'ziga xos xususiyatlari

➤ Obbo, tegirmonchining qizi! (Qahhor “Dahshat” hikoyasi)

Yuqoridagi ko'rinishlar yuzasidan Z.Akbarovning murojaat shakllari yuzasidan qilgan tasnifini aynan keltirishni ixtiyor etdik. Ustozning tasnifida murojaat shakllari to'qqiz asosga ko'ra xillarga ajratilgan. Murojaat shakli nutq qaratilgan obyektни ifodalovchi so'z yoki so'zlar birikmasi sifatida belgilash tushunchani aniqroq ifodalaydi. Chunki nutq so'zlovchining o'ziga qaratilgan bo'lishi ham mumkin. Murojaat shakllari ma'lum asoslarga ko'ra guruhlanadi:

I. Adresant qo'llayotgan so'zning qaysi tilga mansubligi jihatdan murojaat shakllari ikki turga bo'linadi: o'z qatlam va o'zlashma qatlam. O'zbek tili murojaat shakllarining ifodalanishida o'z qatlamdan tashqari, arab, fors-tojik va rus tillariga oid so'zlar ham faol qo'llaniladi.

Mulla, xalfa, azamat kabi arabcha so'zlar; birodar, oshna, do'st kabi fors-tojikcha so'zlar; serjant, mayor, kapitan kabi rus tilidan o'zlashgan so'zlar nutqda ko'plab uchraydi. Murojaat shakli sifatida qo'llangan so'zlarga asoslanib, xalqning milliy mentaliteti, jamiyatdagi turli tabaqalar orasidagi rasmiy va norasmiy bo'lgan ijtimoiy munosabatlar, ruhiy, ma'naviy o'ziga xosliklar belgilanishi mumkin.

1. — Hazratim, bergan o'gitingizni bebaho gavhar o'rnida qabul qilurmiz, — dedi Nigor xonim. (P. Qodirov “Yulduzli tunlar”)

2. — O'rtoq leytenant, agar mumkin bo'lsa bir narsani so'ramoqchi edim. (A. Hakimov “Oqsoq bo'ri”, 158-b.)

II. Semantik tabiati bo'yicha murojaat ifodalovchi so'zlar o'z va ko'chma ma'noda qo'llanadi.

“Bolam, tura qolgin. Jon bolam, kun yoyilib ketdi. Turaqol, jon bolam”

(S. Ahmad “Ufq”, 12-b.)

Ushbu gaplarda “*bolam*” so'zi o'zining lug'aviy ma'nosida — “*farzand*” ma'nosida qo'llangan.

“Qayig'ingizdan foydalansak, otaxon.” (H. G'ulom “Mash'al”)

Bu gapdagi “otaxon” ko‘chma ma’noda ishlatilgan, bundan tashqari, -xon qo‘shimchasi qo‘shilganda, uning adresantning otasi emasligi yaqqol anglashilib turadi. Ko‘chma ma’noda qo‘llanadigan murojaat shakllari o‘z ichida yana turkumlanishi mumkin.

a) Metaforik: “Shunqorim, mard lochinim! Bu yoqqa qarachi, ko‘zlaringga to‘yib boqay!” (Ch. Aytmatov “Jamila”)

b) Metanimik: “Qo‘yma, «8-Mart», qo‘yma!” (kolxoz nomi) (T. Murod “Ot kishnagan oqshom”)

“Xudoyo xudovando, bolaginangning o‘lganini ko‘r, sendaychikin shapkalar!” (T. Murod “Ot kishnagan oqshom”)

c) Sinekdoxa usuli bilan: “Dunyoda o‘zimizdan keyin qoladigan tuyog‘imiz...” (A. Qodiriy “O‘tkan kunlar”).

III. Murojaat shakllarining tematik jihatdan tasnifi. Bu jihatdan murojaat shaklini – adresatni ifodalovchi so‘zlar quyidagicha guruhlanadi.

1. Qarindosh-urug‘chilik maydoniga doir so‘zlar:

➤ “Sizga taraf yo‘q, tog‘a.”

➤ “Jiyan, - dedi Rahmatga qarab, - boshlab uylanishning albatta ota-onang uchun bo‘lib ulardan ranjib yurishning o‘rni yo‘q.” (A. Qodiriy “O‘tkan kunlar”)

➤ “Shu odatingiz qolmadi-da, opoqi, - dedi kuyinib Zahira hamon devorda turgan Tojixonga, - aytib yuragini ezib nima qilardingiz bechorani.”(R. Fayziy “Hazrati inson”)

➤ “Senga nima bo‘ldi, bolam? “

➤ “Qo‘yaver, aya.” (S. Ahmad “Ufq”)

➤ “Eh, tentak qizim, qo‘zichog‘im.” (Oybek “Navoiy”)

➤ “Yo‘q, xotin, Alisher yozgan xat katta, - dedi Umurzoq ota Xolbibini yupatib.” (Oybek “Navoiy”)

➤ “Otasi, qizingiz uyquga ketipti.”

➤ “Dadajon! Nega, axir?.. Shuncha ham chopadimi odam.”

➤ “Oyijon! Nima gap? Xat keldimi?” (Sh. Rashidov “G‘oliblar”)

- “Maktab qochib ketmaydi, enajon, — dedi Nazrulla.”
- “Qani kaklik? Momo?!” (Sh. Xolmirzayev qissalari)
- “Qay nuktada, padari muborak?” (X. Sultonov “Saodat sohili”)

2. *Do ‘stlik-o ‘rtoqlik maydoniga doir so ‘zlar:*

➤ Qoyil! – Sergey uning yelkasiga qoqdi. – Bayram shu bilan shirin-da, og‘ayni! (“Mash’al”)

➤ Bizni kechirasiz, bek aka, - deb Rahmat uzr aytdi.

➤ Yo‘q, o‘zim keldim, boy aka.

➤ Ajablanmangiz, o‘rtoq, - dedi, - bekning mundan keyingi sog‘ligi sizning ixtiyoringizda; bu o‘yin emas – to‘g‘ri gap. (“O‘tkan kunlar”)

➤ Qoyil! – Sergey uning yelkasiga qoqdi. – Bayram shu bilan shirin-da, og‘ayni! (“Mash’al”)

➤ Barakalla, tasadduq! – deydi Ermon buva jilmayib. – Umringizdan baraka toping... (“Dunyoning ishlari”)

➤ Qadrli do‘stlar! – dedi Jo‘raboyev o‘rnidan turib. (“G‘oliblar”)

➤ Endi sizlarga bir ko‘nglimni to‘kib solsam, azizlarim, - Muhammadjon aka gapga juda chechan, notiq odam edi. (U. Hamdam “Muvozanat”)

➤ Bekor urinyapsan, oshna, men oshimni oshab bo‘ldim.

➤ Yugurmasak bo‘lmaydi, og‘aynichalish, qora tortib kelishyapti, yaramaslar. (A. Hakimov “Oqsoq bo‘ri”)

➤ Hoy, birodar, turing shaharga keldik, - deb uyg‘otib qoldi. (M. Ismoiliy “Farg‘ona tong otguncha”)

➤ Chilvir? Qanaqa chilvir? Okun, mehmoni azizsiz, bo‘hton qilmang!

➤ To‘riq, kel, haqingni ol!— dedi. (“Ot kishnagan oqshom”)

➤ Ko‘zimiz to‘rt bo‘ldi, poshshaxon, bazmingizga mushtoqmiz, qani o‘tiring. (“Qutlug‘ qon”)

➤ Alloh sabr bersin, habibim. (X. Sultonov “Saodat sohili”)

2. *Lavozim maydoniga doir so ‘zlar:*

➤ Janob me'mor, tavochilar navkarlikka odam olmoqdalar, istasangiz borib navkar bo'ling! — degan kinoyasi uni o'ziga keltirdi.

➤ Janob eshik og'a, ijozat bering, kamina Bobur Mirzo huzurlariga kiray! (“Yulduzli tunlar”)

➤ Uyqum kelmayapti, o'rtoq muallim. (Sh. Xolmirzayev)

➤ O'rtoq serjant, leytenant bu yerdan uzoqdami?

➤ Leytenant, bu yoqqa yugur. Tezroq! Tezroq! (“Oqsoq bo'ri”)

➤ Shukur muxbir aka, shukur.

➤ Bormayman, kapitan uka, bormayman. (“Ot kishnagan oqshom”)

➤ Ay, Abil hisobchi, ko'p karillama! (“Momo Yer qo'shig'i”)

3. *Ijtimoiy faoliyat maydoniga doir so'zlar:*

➤ Keling, shoir, yashang! (T. Murod “Momoyer qo'shig'i”)

➤ Odam so'zlashib topishadi, yilqi kishnashib topishadi, Ziyodulla chavandoz!

➤ Xo'sh choyxonachi, baliqpaz... Buguncha bo'ldi, aka, qolganini boshqa kun gaplashamiz.

➤ Bo'ldi-e, juvozkash-e, bo'ldi-e!

➤ O, ritsar! XX asr ritsari! (“Ot kishnagan oqshom”)

➤ Oling, dehqon aka!..

➤ Obbo, tegirmonchining qizi!.. Bitta qo'yni nazarlari ilmaydi!

(A.Qahhor “Dahshat”)

4. *Jismoniy belgi maydoniga doir so'zlar:*

➤ Chilimni sol, cho'loq, hazilni bilmagan kal Fozil! (“Saodat sohili”)

5. *Yer va osmon jismlari maydoniga doir so'zlar:*

➤ Xayr, ey, maskanim - tuqqan yerlarim,

Xayr, ey, sahrolar, xayr, ey, tog'lar. (A.Oripov “Saylanma”)

6. *Hayvon va parrandalar maydoniga doir so'zlar:*

➤ To'xta, tillaqo'ng'iz, u yoqqa borma. (M. Yusuf “Tillaqo'ng'iz”)

➤ Qorning ochgandir, arslontoyim, — paranji va savatni ayvonga uloqtirib, - dedi Kampir.

- Bundan ko‘ra go‘ng titganing yaxshi emasmi, kekxa tovuq!
- Yo‘q, tuzim, nonim sani quturtirgan, it! — o‘dag‘ayladi Salim.
- Ha, noinsof, ha, ko‘ppak!— Qoratoy boyni so‘ka boshladi.
- Bas, uyatsiz maxluq!.. Kim uni zaharlaydi?
- So‘zga quloq sol, shallaqi makiyon!—Yormat ko‘zlarini nayzaday qadadi.

➤ Obbo, la’nati kalxamaj! (“Qutlug‘ qon”)

8. *Oziq-ovqat maydoniga doir so‘zlar:*

➤ Obbo tutxo‘r-ey! – Rais buva qo‘ltig‘imdan olib tol tagiga sudradi. (“Ikki karra – ikki besh”)

➤ Voy uyingga bug‘doy to‘lgurlar, voy ko‘paygurlar, kela qolinglar, – deydi ovozi tovlanib. (“Dunyoning ishlari”)

9. *O‘simliklar maydoniga doir so‘zlar:*

➤ Lola, lolajonim, lolaqizg‘aldoq! (M. Yusuf “Lolaqizg‘aldoq”)

➤ Binafsha, senmisan, binafsha – senmi. (Cho‘lpon “Binafsha”)

➤ Rayhon, hidlaringni yo‘llaringga sep... (“Biz baxtli bo‘lamiz”)

IV. Murojaat shakllarining hududiy xoslanishi ayrim shevalarda fonetik jihatdan ham farqlanadi. Qarindoshlik giponimlarida bu ayniqsa yaqqol ko‘zga tashlanadi. Shunga muvofiq, hududiy xoslanish bo‘yicha umumtilga va shevaga xos murojaat shakllari ajratiladi. O‘zbek tilining qarluq-chigil-uyg‘ur dialekti uchun xos bo‘lgan “o” lashish hodisasi Toshkent shahar shevasida ham uchraydi. Badiiy asar personajlari nutqida ham bunday fonetik dialektizmlarning turli o‘ziga xosliklari namoyon bo‘lib boradi. Umumtilda qo‘llanadigan “aka”, “opa” murojaat shakllari ba’zi shevalarda asliy shaklidan fonetik o‘zgarishga uchrashi bilan farqlanadi.

➤ E, qanday suzadi, apa, ko‘zi ko‘rmaydi-ku uning! – deydi sho‘xroq fe’li otasiga tortgan to‘ng‘ich o‘g‘il qiqirlab. (E. A‘zam “Chapdast”);

➤ Chilvir? Qanaqa chilvir? Okun, mehmoni azizsiz, bo‘hton qilmang! To‘riq, kel, haqingni ol!— dedi. (“Ot kishnagan oqshom”).

Yuqoridagi misollar nutqning shevaga xos shakliga mansub bo‘lib, ularda Buxoro shevalariga mansub birliklarni ko‘rish mumkin. Personajlar tilida qo‘llangan “ako”, “akomullo”, “do‘xtar”, “jo‘ra” kabi murojaat shakllari o‘zbek va tojik tillari mustahkam aloqadorlikda bo‘lgan shevalarda uchraydigan leksik va fonetik dialektizmlardir.

V. Murojaat shakllari iste‘mol faolligi bo‘yicha o‘zaro farqlanadi. Bu jihatdan ular faol (aktiv) va nafaol (passiv) murojaat shakllariga ajratiladi. Faol murojaat shakllari hozirgi kunda adabiy va so‘zlashuv tilida keng qo‘llaniladi. Ayni vaqtda faol murojaatlar nutqda odatiy so‘zlarga aylanib ulgurgan. Bu kabi murojaat shakllarining asosini oila-urug‘chilik maydoniga doir so‘zlar tashkil etadi.

➤ “Oyijon! Nima gap? Xat keldimi?” (“G‘oliblar”).

Nafaol iste‘molda bo‘lgan murojaat shakllariga mansub so‘zlarning ko‘pchiligi bugungi kunda nisbatan kam qo‘llaniladigan eskirgan so‘zlardir. Bunday murojaatlarga, odatda, tarixiy kasb-hunarga, saroy hayotida qo‘llangan so‘zlarni kiritish mumkin.

➤ “Bo‘ldi-e, juvozkash-e, bo‘ldi-e!” (“Ot kishnagan oqshom”)

➤ “Hazrati oliylari, yana chopar yuborishga farmon berurlarmi?” (“Yulduzli tunlar”).

VI. Murojaat shakllarini tasnif qilishda uning stilistik tomonlarini ham e‘tiborga olish lozim. Bu jihatdan ular bo‘yoqsiz (neytral) va bo‘yoqdor murojaat shakllariga bo‘linadi. Murojaat shakllarida uslubiy bo‘yoqdorlik turli xil usullarda ifodalanadi. Ma‘no ifodalash jihatdan neytral bo‘lgan, ya‘ni bo‘yoqsiz murojaat shakllarida, odatda, subyektiv baho mavjud bo‘lmaydi. Ulardan farqli ravishda adresant nutqining bo‘yoqdor murojaat shakllarida kelayotgan so‘z yoki ibora obrazlilik bilan boshlanadi – nutqiy maqsad va vazifani yanada konkretlashtiradi

Murojaat ifodalovchi so‘zlarda bo‘yoqdorlikni oshirish bilan erkalash, ta‘kidlash kabi modal ma‘nolarni yuzaga chiqaradi.

➤ “Rahmat, inim Miris’hoq. Biron xizmat bo’lsa, tayyorman! — boyvachchanning orqasidan qichqirib qoldi chol” (“Qutlug‘ qon”).

Faqatgina ism bilangina cheklanmay, inim so‘zining qo‘llanilishi ta’kidni, so‘zlovchining tinglovchiga yordam berishga tayyor ekanligini ifodalagan. Mana shu so‘z bilan ijobiy bo‘yoqdorlik yuzaga chiqqan.

➤ “Qorning ochgandir, arslontoyim, — paranji va savatni ayvonga uloqtirib, - dedi kampir” (“Qutlug‘ qon”).

Bu gapdagi murojaatda esa birdaniga so‘zlovchining munosabati yuqori darajaga ko‘tarilgan. Ham egalik, ham ikki erkalash ma’nosini beruvchi so‘zlarning birgalikda kelishi ijobiy bo‘yoqdorlikni oshirgan.

VII. Murojaat shakllari shakliy jihatdan ham tasnif qilinadi. Bu jihatdan murojaat shakllari ikki xil ko‘rinishga ega: sodda va murakkab. Sodda murojaat shakllari:

➤ “Xo‘jayin, har yerda bir g‘alva ko‘tarasiz” (“Qutlug‘ qon”).

➤ “Odamxo‘rlar!.. – deb qichqirdi va u oldinga otildi” (“Opa-singillar”).

Murakkab murojaat shakllarining imkoniyatlari sodda murojaat shakllariga nisbatan ancha ko‘p. Chunki murakkab murojaat shakllarida adresantning adresatga bo‘lgan munosabatini har tomonlama ochib berishga harakat qilinadi:

➤ Olloning quli Kazangapning farzandi Sobitjon, mening chap tomonimda tur... (“Asrga tatigulik kun”)

➤ Otilib bo‘lgan bu jahannam tepkilari! – Qamchi ko‘zlari chaqnab, g‘azablanib gapirdi. (“Mash‘al”)

➤ Bo‘pti, qoravoylar, popuklar, yaqinroq kelinglar. (“Dunyoning ishlari”)

➤ Odamlar-u odamlar, tog‘da bitgan bodomlar, eshitmadim demanglar! (“Ot kishnagan oqshom”)

➤ Xayr, ey, bearmon kezgan qirlarim,

➤ Xayr, ey, yiroqqa qochgan so‘qmoqlar. (A. Oripov Saylanma)

➤ Yetti iqlimning shamsi anvori, zarofatliq podshohimiz Zahiriddin Muhammad Bobur Mirzo hazrati oliylariga duoyu ehtiromlarimiz bo‘lg‘ay!
(“Saodat sohili”)

Bu misollardan shuni anglashimiz mumkinki, sodda murojaat shakllari sifatlovchilar bilan kengayganda murakkab murojaat shakllari hosil bo‘ladi.

So‘zlashuv nutqida ham, badiiy asar tilida ham so‘zlovchi nutqiy muloqotining mazmuniy yaxlitligi saqlanadi, ya’ni murakkab murojaat ifodasi shaklan murakkab bo‘ladi, xolos.

VIII. Murojaat shakllari nutq uslublariga ko‘ra xoslanishi bo‘yicha ham tasnif etiladi. Bunda mavjud nutq uslublariga xoslangan barqaror etiket shakliy rasmiy uslubga xos. Barcha harbiy unvonlar atamalari ana shu tipga kiradi. Bunday uslubda boshqa uslublarga xos murojaat shakllari ham keng qo‘llanaveradi. Umuman, nutq uslublariga xoslanishi bo‘yicha murojaat shakllari asosan quyidagi to‘rt uslubda qo‘llanishi kuzatiladi:

1. So‘zlashuv uslubida: Bardammisiz, boboy? (“Qutlug‘ qon”)
2. Badiiy uslubda: O‘g‘lim, jigargo‘sham, aytgin-chi nahot, Achinmaydi joning onang holiga. (M. Yusuf “Onamdan xat”)
3. Rasmiy uslubda: O‘quvchi Qurbonov, senga aytyapman! (T. Murod “Ot kishnagan oqshom”)
4. Publitsistik uslubda: Muhtaram radiotinglovchilar! – dedi muxbir.
(“Momo Yer qo‘shig‘i”).

IX. Tarixiylik jihatidan murojaat shakllari yangi va eskirgan shakllarga bo‘linadi.

- Hazrat begim! Shahzoda! Tezroq chiqinglar! (“Yulduzli tunlar”)
- O‘rtoq serjant, leytenant bu yerdan uzoqdami? (“Oqsoq bo‘ri”)

Bundan tashqari, murojaatlarda qarg‘ish so‘zlarning ham ifodasini kuzatishimiz mumkin. Ularni shartli ravishda ezgulikka yog‘rilgan qarg‘ish so‘zlar hamda duoyibad (yomon niyat) murojaatlarga ajratish mumkin.

Ezgulikka yo‘g‘rilgan qarg‘ish so‘zlar orqali murojaatda so‘zlovchining tinglovchi yoki borliqqa bo‘lgan xayrixohligi, kuchli his-hayajoni, nutq qaratilgan shaxs yoki predmetga ijobiy nazar bilan qarashini ko‘rishimiz mumkin:

- Hoy oqsoqollar, baraka topkurlar, astaroq gaplashinglar, eshitishga xalaqit beryapsizlar, – dedi kimdir. (“G‘oliblar”)
- Voy uyingga bug‘doy to‘lgurlar, voy ko‘paygurlar, kela qolinglar, – deydi ovozi tovlanib. (“Dunyoning ishlari”)
- Ha, bo‘yingdan momong aylansin, o‘ynay ber, o‘zim kelin qilaman! (“Ot kishnagan oqshom”)
- Hech kimga aytmang, o‘layjon. (E. A‘zam “Guli guli”)
- Barakalla, tasadduq! – deydi Ermon buva jilmayib. – Umringizdan Baraka toping... (“Dunyoning ishlari”)

Duoyibad murojaatlarda esa so‘zlovchining birinchi o‘rinda qattiq nafratlanish, jirkanish kabi tuyg‘ularni anglaymiz:

- Muncha xor qildinglar lahatga kirgurni, juvon o‘lmagurlar!.. (“Opa-singillar”)
- Imoning kuygurlar! Bir mo‘min bandani o‘ldirasanmi! — dedim. (“Ot kishnagan oqshom”).

O‘zbeklar muloqot madaniyatiga xos katta yoshli suhbatdoshlarga hurmat murojaat shakllari orqali ham ifodalanadi. O‘zbek muloqot xulqida, asosan, katta yoshli kishilarga “siz” lab murojaat qilinadi. Bunday holat begona kishilarga murojaat qilishda ham uchrab turadi. “Sen/siz shakllarining almashinishi ijtimoiy vazifa-mavqelarning o‘zgarishi bilan ko‘rinadi: shunchaki tanish bo‘lgan kishilarning qadrondlashishi, sharoitning rasmiydan norasmiyga o‘tishi yoki aksincha”¹⁸. Bundan tashqari, yoshi katta so‘zlovchilar nutqidagi murojaat shakllari o‘zining ma‘no bo‘yoqdorligi bilan ham xarakterlanadi. Ular nutqida “bo‘tam”, “arslonim”, “toychoq‘im”, “jonim”, “bolam”, “farzandi aziz”, “sher

¹⁸Iskandarova Sh. “O‘zbek nutq odatining muloqot shakllari”, fil.fan.nomz.diss.avt.ref. T., 1993y. 16-bet.

o‘g‘il” kabi murojaat shakllari hamda tinglovchining ismiga “xon”, “jon” kabi qo‘shimchalarni qo‘shish holatlari uchraydi.

Tilning turli tomondan har xilcha o‘rganilishi tilning takomiliga yuqori darajada o‘z hissasini qo‘shadi. Shu ma’noda Z.Akbarovanning tasnifi va yuqoridagi turlardan kelib chiqib, insonga murojaat shakllarini quyida turlicha tasnif qildik:

I. Qarindoshlik nomlari bilan bog‘liq murojaat vositalari – genetik xususiyatga ega bo‘lib, ushbu tasnif ham o‘z ichida quyidagicha bo‘linadi.

1. Yaqin qarindoshlar nomlari bilan bog‘liq murojaat vositalari

Oyi, domlamiz ikki so‘m pul olib kelinglar deb buyurdi... (Oybek “Bolalik” qissasi)

Yaqin qarindoshlik nomlari bilan bog‘liq murojaat vositalari avtobiografik jihatdan xarakterli bo‘lib, yaqin qarindoshlar ya’ni oila a’zolariga qilinadigan murojaatlardir. Murojaatning ushbu shaklini ham o‘z ichki guruhlariga bo‘lgan holda quyidagicha ifodalash mumkin.

Otaga murojaat (padarim, padari buzrukvorim, valadim, dada, ada, ota)

➤ Dadachi, dada, enam bugun sizga uch qozon palov damlab qo‘ydilar.

(O‘. Hoshimov “Ikki karra – ikki besh” qissasi)

➤ Tirikchilik-da, qanday qilay, ota? (Oybek “Bolalik” qissasi)

Yuqoridagi shakllar umumiy nom ostida otaga murojaatni ifodalasa-da, turli ichki semalari bilan bir-biridan farq qiladi. Xususan, padarim, padari buzrukvorim, valadim badiiy-nazmiy nutq uchun xoslangan bo‘lib, fors va arab tillaridan o‘zlashgan so‘zlardir. Qolganlari (dada, ada, ota) sof o‘zbekchadir. Ular ichida bosh dominanta so‘z ota bo‘lib, dada va ada bir so‘zning turli ko‘rinishlari sifatida so‘zlashuv uslubida keng qo‘llaniladi.

➤ Dadachi, dada, enam bugun sizga uch qozon palov damlab qo‘ydilar.

(O‘. Hoshimov “Ikki karra – ikki besh” qissasi)

Onaga murojaat (volidam, volidayi muhtarama, ona, oyi, aya, ena)

➤ Qarang, oyi, yetti og‘ayni orasidagi eng yorug‘ yulduz- meniki...

(O‘. Hoshimov “Dunyoning ishlari” qissasi)

➤ Ena, men ham boray, qarashaman... (Sh.Xolmirzayev “Zov ostida adashuv” hikoyasi)

O‘zbek xalqida onaga murojaatda muloyimlik, yaqinlik, erkalash ma’nolari ustunvor bo‘lib, murojaat shakllarida kichraytirish-erkalash, egalik morfemalari qo‘shilish holatlari mavjud. Yuqoridagi shakllardan volidam, volidayi muhtarama, shuningdek, erkalash, mehribonlik ma’nosida mushtiparim, mehribonim kabi murojaatlar badiiy nutq uchun xoslangan bo‘lib, oyi, aya, ena shakllari esa so‘zlashuv nutqi uchun xosdir. Ona leksemasi dominantadir.

➤ Qarang, oyi, yetti og‘ayni orasidagi eng yorug‘ yulduz- meniki... (O‘.Hoshimov “Dunyoning ishlari” qissasi)

➤ Ena, men ham boray, qarashaman... (Sh.Xolmirzayev “Zov ostida adashuv” hikoyasi)

Akaga murojaat (aka, og‘a)

➤ Qo‘ying, akajon, – dedi Naima. (Sh.Xolmirzayev “Kechagi kun kecha” hikoyasi)

Opaga murojaat (opa)

➤ Opa, to‘y-ku, nima qilib ishlab o‘tiribsiz? (Oybek “Bolalik” qissasi)

Ukaga murojaat (uka, ini)

➤ Yur, ukam, mashinada tikishni o‘rgataman. (Oybek “Bolalik” qissasi)

Singilga murojaat (singil)

➤ Singlim, sharm-hayoning vaqti emas... (Sh.Xolmirzayev “Kechagi kun kecha” hikoyasi)

Boboga murojaat (bobo, buva, doda)

➤ Qayoqqa boramiz, buva, Mirahmad buvaning oldigami? (Oybek “Bolalik” qissasi)

Buviga murojaat (buvi, momo, bibi)

➤ Buvijon, ish ko‘p, juda zerikdim. (Oybek “Bolalik” qissasi)

➤ Momo, vaqtim ziq, sizdan bir narsa so‘ray deb keldim. (Sh. Xolmirzayev “Ahad Mirzo yig‘ladi” hikoyasi)

Er-turmush o‘rtoqqa murojaat (dadasi, adasi, (bolalarimning) otasi, bobosi)

➤ Dadasi, endi tuzukman, qizimni saharlari uyg'otmang. (A.Qahhor "Bemor" hikoyasi)

Shuningdek, ayol tomonidan eriga qilinadigan murojaatlarda hurmat yuzasidan ismi aytilmay balki, O'zbekistonning ba'zi hududlarida katta o'g'ilning ismiga "otasi" murojaat shakli qo'shib aytiladi.

Ayol-turmush o'rtoqqa murojaat (onasi, ayasi, enasi, xotin, azizam)

➤ Qaysi go'rdan paydo bo'ldi u? Otib o'ldiraymi, onasi.

(Sh. Xolmirzayev "Ukki sayrayapti" hikoyasi)

O'g'il farzandga murojaat (o'g'lim, ulim, bolam, kenjatoyim, chirog'im)

➤ Abror, qo'lga suv ol, o'g'lim. (A.Qahhor "Asror bobo" hikoyasi)

➤ Men o'g'irlik qiloyotganim yo'q-ku, bolam. (O'.Hoshimov "Dunyoning ishlari" qissasi)

Qiz farzandga murojaat (qizim, bolam)

➤ O'zingni teja, qizim, o'ringni qalin qilib burkanib yot, terlasang yorisharsan, qizim. (A.Qodiriy "O'tkan kunlar" romani)

Yaqin qarindosh nomlari bilan bog'liq murojaat vositalarida hurmat, ehtirom, erkalash, ovutish, kabi yashirin semalar mavjud bo'lib, bu kontekst sharoiti va murojaatdagi turli morfemalar bilan yuzaga chiqadi. Xususan, yaqin qarindoshlarga murojaatlarga egalik va kichraytirish-erkalash morfemalari qo'shilishi xarakterlidir. Farzandlarga murojaat doimo egalik morfemasi bilan ifodalanadi (o'g'lim, bolam, qizim)ki, bu farzandni erkalash, suyish kabi semalarni ifodalaydi. Lekin ota-ona, bobo-buviga murojaatda egalik morfemalari qo'llanilmaydi (ota, dada, ona, oyi, bobo, buvi). Sabab o'zbek xalqi tarixan ota-ona, bobo-buvilariga nisbatan itoatkor munosabatda bo'lishgan ushbu holat ish-harakatlar orqali o'z tasdig'ini topganidek, so'zlarda, xususan , murojaatlardayam namoyon bo'lgan.

2. Uzoq qarindoshlar nomlari bilan bog'liq murojaat vositalari

Amaki

➤ Amaki, hikmatli gaplar ko'p ekan. (Oybek "Bolalik" qissasi)

Amma

- Qani, fotiha bering, amma. (Oybek “Bolalik” qissasi)

Tog‘a

- Tog‘a, men darrov kelaman! (Sh.Xolmirzayev “Ukki sayrayapti” hikoyasi)

Xola

- Nima qilib qo‘ydingiz, xola (O‘.Hoshimov “To‘ylar muborak” dramasi)

Jiyan

- Qani, jiyan, nonni to‘g‘rab sho‘rvani urib oling. (Oybek “Bolalik” qissasi)

Qarindoshlik nomlari bilan bog‘liq murojaat vositalari tilshunoslik uchun alohida katta mavzu bo‘lgan qarindosh-urug‘ terminlari bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, qarindoshlik nomlarini ayrim tilshunoslar ikki guruhga ajratadilar:

a) qon-qarindoshlik otlari: *aka, amma, amaki, bobo, buvi, jiyan, nevara, ona, opa, ota, singil, tog‘a, uka, xola, chevara, evara, o‘g‘il, qiz;*

b) nikoh qarindoshligi otlari: *boja, kelin, kuyov, ovsin, pochcha, xotin, er, yanga, qayin, quda, qayliq, o‘gay*¹⁹.

- Quda, bu ishning shundoq bo‘lishini kim biluvdi, deysiz.

(S. Ahmad “Poyqadam” hikoyasi)

- Yanga, upangizdan bering. (S. Ahmad “Cho‘l burguti” hikoyasi)

➤ Kelinjon, chiroqni kechgacha yoqmanglar... (O. Muxtor “Egilgan bosh”)

- Pochcha, siz nima qilib turibsiz bu yerda? (O. Muxtor “Egilgan bosh”)

- “Shundaymi, unda, maylingiz. O‘zi, kelin qayerda, quda?”

- “Ay, qaynim-e, ay, kalla-e!” (T. Murod “Ot kishnagan oqshom”)

3. *Qarindosh bo‘lmagan shaxslarga qarindoshlik nomlari bilan murojaat*

¹⁹ Narziyeva M.J. O‘zbek tilida shaxsni yosh jihatidan tavsiflovchi otlarning ma’no tarkibi: filol. fan. nomz... diss. – Buxoro, 1992. 49–bet.

➤ So‘zingizga tushunolmadim, ota, - dedi,- shundog‘ bo‘lsa ham javob beraman: bu kungacha siz yolg‘iz meninggina emas, bizning oilamizga otaliq mavqe‘ida turib, yaxshiliqdan boshqani sog‘inmay kelasiz. (A.Qodiriy “O‘tkan kunlar” romani)

Tilimizda qarindosh bo‘lmagan shaxslarga qarindoshlik nomlari bilan murojaat qilish holatlari keng uchraydiki, buning o‘ziga xos leksik-semantik jihati notanish bo‘lmagan kishiga murojaatda I shaxs-so‘zlovchi tomonidan II shaxs-tinglovchiga qarindoshdek murojaat qilinib, avvalo, unga bo‘lgan hurmat-ehтиromni o‘zida aks ettiradi va shuningdek, muloqotning mazmuni bo‘lgan ish-harakatni tez va oson hamda o‘zining foydasiga hal qilish ma’nosi ham mujassam bo‘ladi.

Mazkur holatda murojaat shakllari kommunikantlarning jinsi, yoshiga qarab tanlanadi:

—*Siz ham biz bilan birga bo‘lingiz, quvonchli bu... — dedi u va uyalgansimon kulib, yerga qaradi.*

—*Rahmat, **singlim**, — titrab gapirdi Sultonmurod, — to‘ylaringga borurmen... Baxtlaring quyoshdek porloq bo‘lsin, xayr!* (Oybek “Navoiy” romani)

Keltirilgan dialogdan ko‘rinib turganidek, erkak tinglovchi tomonidan qarindosh bo‘lmagan ayol tinglovchiga nisbatan *singlim* qarindoshlik termini qo‘llangan. So‘zlovchi yoshining tinglovchi yoshidan katta ekanligi ana shu kabi murojaat shaklining ishlatilishini talab qilib turadi. Agar tinglovchi bilan so‘zlovchi o‘rtasida qarindoshlik munosabati mavjud bo‘lsa, ularning ismi murojaat shakli sifatida qo‘llanilishini kuzatish mumkin.

Katta yoshli erkaklarga murojaatlarda tog‘a, amaki, keksa yoshlilarga nisbatan bobo(buva), doda, (hurmatsizlik ma’nosida) boboy, qariya shakllari ishlatiladi. Kichik bolalarga bola(kay), yigitcha, o‘smir yoshli va undan katta yoshli yigitlarga yigit, polvon shakllari qo‘llanilib, bu shakllar ham shartlidir, chunki murojaatda turli yoki bir xil yoshdagi, turli yoki bir xil mansabdagi, jinsdagi kishilar murojaatida shakllar ham turlicha bo‘ladi. Biz faqat umumiy bo‘lgan jonli so‘zlashuv tilidagi holatlarni keltirdik, xolos. Jumladan, tengdosh

yoshdagi yigitlar bir-biriga oshna, o‘rtoq, do‘st, bo‘la shakllari ba‘zan esa aka yoki uka kabi murojaat shakllaridan foydalanadilar.

II. Idora va ishxona xodimlari nutqida qo‘llaniladigan murojaat vositalari – asosan, kasb va unvon nomlari asosida yuzaga kelib, rasmiy xarakterdagi, turli emotsiya va bo‘yoqdorliklardan xoli bo‘lgan murojaat shakli, uning tasnifi quyidagicha:

1. Kasb-hunar bilan bog‘liq murojaat vositalari

- Haqiqatan, o‘rtoq shoir, juda qiziq kinokomediya qilish mumkin.

(A. Qahhor “Kartina” hikoyasi)

Murojaatning ushbu shaklini har bir kasb yoxud hunar bilan bog‘liq murojaat shakllari sifatida kichik guruhlarga ajratish mumkin.

2. Mansab-unvon bilan bog‘liq murojaat vositalari

➤ Rais bobo, yoshingiz nechada a? (Sh. Xolmirzayev “Og‘ir tosh ko‘chsa” hikoyasi)

3. Organ xodimlari nutqida qo‘llaniladigan murojaat vositalari

➤ Xo‘sh, o‘rtoq komandir, qanaqa kino ko‘rdingiz? (A. Qahhor “To‘y” hikoyasi)

III. O‘ziga xos xususiyatiga ko‘ra murojaatlar

1. Yosh xususiyati bilan bog‘liq murojaat vositalari (*bola(kay), yigitcha, yigit, qariya, chol, qizcha, qizaloq, juvon, kampir*)

- Ey, qariya, charchading, bas. (Oybek “Bolalik” qissasi)

2. Shaxs ismlari bilan bog‘liq murojaat vositalari

➤ Fahriddin, bir martaba borib eshikdan “qalaysan” deb kelsangiz bo‘lmaydimi? (A. Qahhor “Boshsiz odam” hikoyasi)

3. Tashqi ko‘rinish bilan bog‘liq murojaat vositalari (*semiz, oriq, jingalak, silliq*)

- Nafasing qursin, cho‘tir. (Oybek “Bolalik” qissasi)

➤ Man araqni sening pulingga ichibmanmi, go‘rso‘xta, padles... (Oybek “Bolalik” qissasi)

4. *Ijtimoiy xususiyatiga ko‘ra murojaat vositalari* (boy(vachcha), begim, xo‘jam, kambag‘al, faqir, gadoyvachcha)

➤ Yo‘q, begim, ikki ko‘zdan ajragan kambag‘alning orzusi andoq bo‘lmaydi... (A. Qahhor “Ko‘r ko‘zning ochilishi”)

5. *Xarakter xususiyatiga ko‘ra murojaat vositalari* (bilag‘on, aqlli, ahmoq, tentak, xumpar, ayyor, tulki, shumtaka)

➤ Qo‘rqmaysan, shumtaka, darrov o‘t bu yoqqa. (Oybek “Bolalik” qissasi)

BOB BO‘YICHA XULOSA

Tilning asosiy funksiyasi ham, bundan tashqari qator vazifalari ham u yoki bu darajada, albatta, murojaat bilan bog‘lanadi. Masalan, apellyativ vazifa – chaqiruv bevosita murojaat bilan aloqadordir. Chaqiruv tinglovchiga qaratilgan bo‘ladi va bu orqali u nutqni eshitish hamda qabul qilishga chaqiriladi. Aloqa o‘rnatish (kontaktoustanovlivayushaya) funksiyasi zaminida ham murojaat bilan bog‘liq tushunchalar yotadi: bu vazifa tinglovchini xabar – ma‘lumotni qabul qilishga tayyorlash, uning e‘tiborini tortish orqali bajariladi. Umuman tilning barcha vazifalari – kommunikativ, emotiv, volyuntativ, aloqa o‘rnatish – sotsiativ, reprezentativ funksiyalari so‘zlovchi va tinglovchi orasidagi turli tuman munosabatlarni ifodalaydi. Chunki til har doim fikr uzatish (bu so‘zlovchi uchun) hamda fikr qabul qilish, anglash (bu tinglovchi uchun) vositasi bo‘lib kelgan.

Tilning turli tomondan har xilcha o‘rganilishi tilning takomiliga yuqori darajada o‘z hissasini qo‘shadi. Shu ma‘noda Z.Akbarovanning tasnifi va ko‘rsatilgan turlardan kelib chiqib, insonga murojaat shakllarining tasnifi ham mazkur bobda keltirilgan.

Xullas, murojaat shakllari insonlar o‘rtasidagi ijtimoiy munosabatni, yosh darajasini ifodalaydi. Murojaat shakli sifatida qo‘llangan so‘z va so‘zlar qo‘shilmasida ma‘lum bir davr ijtimoiy mazmuni ham aks etadi. Ular orqali biz nutq qaratilgan obyekt haqida ma‘lumotlar olamiz. Ayniqsa, so‘zlovchining unga bo‘lgan subyektiv munosabati bahosini bilishimiz mumkin.

II BOB. RASMIY MUROJAAT VOSITALARI VA ULARNING TASNIFLANISHI

2.1. Rasmiy uslub va unda murojaat vositalarining qo'llanilishi

Yuqorida murojaat vositalarining turli u yoki bu jihatlariga ko'ra tasniflarini keltirdik. Shuningdek, murojaat vositalarini yana har xil tasniflar asosida ichki guruhlariga ajratish mumkin. Zero, shu yo'sinda til o'zining keng qamrovli takomiliga ega bo'lib boradi. Quyida murojaatlarni umumiy tasniflarini keltirdik.

Gender jihatdan:

Erkaklarga murojaat

Ayollarga murojaat

Tabiatiga ko'ra:

Yozma

Og'zaki

Elektron

Janriga ko'ra:

She'riy

Nasriy

Qo'llanish doirasiga ko'ra:

Hududiy

Milliy

Xalqaro

Maqomiga ko'ra:

Rasmiy

Norasmiy

Ko'rinib turganidek, tilimizda murojaatlar keng qamrovli bo'lib, ularni o'rganish katta ilmiy tadqiqotlarga sabab bo'ladi. Shu jihatdan, biz faqat murojaatlarning maqomiga ko'ra rasmiy guruhiga kiruvchi rasmiy murojaatlar haqida to'xtalish bilan cheklandik. Shunga muvofiq, avvalo, rasmiy uslub va unda qo'llaniladigan murojaatlar yuzasidan quyida ma'lumotlar beramiz.

Rasmiy-idoraviy nutq uslubi jamiyatdagi ijtimoiy-huquqiy munosabatlar, davlat va davlatlararo rasmiy siyosiy-iqtisodiy, madaniy aloqalar uchun xizmat qiluvchi uslubdir. Bu uslub hujjatchilik xarakteri bilan ajralib turadi. Shunga ko‘ra yozma nutqning xizmatga doir bu turi davlat qonunlari, farmonlar, bayonotlar, shartnomalar, e‘lonlar idora hujjatlari va boshqa rasmiy yozishmalar uslubi hisoblanadi. Rasmiy uslub tilining asosiy xususiyati aniqlik va ixchamlikdir, unda muayyan nutqiy qoliplar, kasb-hunar so‘zlari, atamalar, tayyor sintaktik qurilmalar keng qo‘llanilib, nutqning aniq va ravshan ifodalanishini ta‘minlaydi. Tayyor nutq qurilmalari (shu asosda: *shunga ko‘ra; ma‘lum qilamizki; ...ni e‘tiborga olib; ...ga ko‘ra; ...biz, quyida imzo chekuvchilar; ...ga asosan (muvofig); ...uchun; ...dan kelib chiqib; ...sharti bilan; ...berilsin; ...taqdirlansin* kabi) hujjat matnining darak-hikoya xarakterda bo‘lishini, so‘zlarning bir ma‘noda ishlatilishini, badiiy-tasviriy vositalarning bo‘lmasligini, fe‘lning majhullik, buyruq-istak shakllarining qo‘shma gap turlarining keng qo‘llanilishini talab qiladi. Til materiali hujjatning turi va xarakteriga qarab tanlanadi²⁰.

Yozma nutqning rasmiy uslubida, asosan, quyidagi munosabatlar doirasidagi hujjatlar tuziladi:

1. Huquqiy munosabatlarga oid: qonun, fuqarolik va jinoyat aktlari nizom, shartnoma va boshqalar
2. Idoraviy-ma‘muriy shaklga oid: dalolatnoma, buyruq, farmoyishlar, turli ish qog‘ozlari (ariza, tavsiyanoma, tilxat, ma‘lumotnoma kabi).
3. Diplomatik munosabatlarga doir: bayonot, bitim, nota, memorandum va boshqalar.

Rasmiy xatlarda bayon qilingan fikr mantiqiy izchillikda ifodalanishi, yetarli dalillar bilan asoslanishi va xulosalanishi lozim. Zarur holatlarda o‘rinli e‘tiroz va takliflar bildirilishi mumkin. Ammo mutasaddi rahbarga nisbatan hurmat saqlanishi, murojaat odobiga amal qilinishi zarur. Shu maqsadlarda:

- rahbar murojaat shakli “Siz” so‘zini bosh harfda yozish orqali ifodalanadi (Sizdan, Sizga kabi);

²⁰ N. Mahmudov, A. Rafiyev, I. Yo‘ldoshev “Davlat tilida ish yuritish” darslik “Cho‘lpon” Toshkent - 2010

- fikriy bog‘liqlik “bu”, “ushbu”, “mazkur”, “shu sababli” “shunga ko‘ra (muvofiq)” so‘zi bilan ta‘minlanadi;

- taklif va e‘tirozlar “bizningcha”, “shartnomaga ko‘ra”, “biroq”, “shu bilan bir qatorda”, “deb o‘ylaymiz” kabi so‘z va so‘z birikmalari orqali ifodalanadi.²¹

2.2 Rasmiy murojaatlarning ichki semalariga ko‘ra tasnifi

Rasmiy murojaatlar - davlat va jamoat rahbarlarining o‘zaro rasmiy uchrashuvlardagi suhbatlarida, yig‘inlarida, yozishmalarida, tashkilot, idora, ofislarda rahbar va ishchi xodimlar o‘rtasidagi muloqot jarayonida, ko‘pgina rasmiy hujjatlarda, shuningdek, notanish kishilar o‘rtasidagi muloqotning boshlanish jarayonida turli emotsiyalardan (faqat hurmat ma‘nosidan tashqari) holi ravishda qo‘llaniladigan murojaat shakllaridir.

Muhtaram Vladimir Vladimirovich!

Hurmatli davlat rahbarlari!

Hamdo‘stlik davlatlari sammiti ishtirokchilarini qutlashga va Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Vladimirovich Putinga samimiy qabul va mehmondo‘stlik, shuningdek, uchrashuvimiz yuksak darajada tashkillashtirilganligi uchun chuqur minnatdorlik bildirishga ijozat bergaysiz.

(O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi davlat rahbarlari kengashi majlisidagi nutqidan).

Yuqoridagi misolda *Muhtaram Vladimir Vladimirovich! Hurmatli davlat rahbarlari!* rasmiy murojaat bo‘lib, unda aynan murojaat shaklidan oldin *muhtaram, hurmatlidek* hurmat-ehtiromni ifodalovchi leksemalardan foydalanilyaptiki, bu ushbu murojaat turining o‘ziga xos jihati hisoblanadi. Rasmiy murojaatlar, umuman, murojaatlar yoki undalmalar o‘rniga ko‘ra gap boshida, gap o‘rtasida va oxirida kelishi mumkin bo‘lib, nutq vaziyati, kontekstning sharoitiga nisbatan ko‘p o‘rinlarda namoyon bo‘ladi va bu holat turli ma‘no qirralari bilan bir-biridan farq qiladi. Xususan, undalmalar gap boshida kelsa, murojaat, chaqiriq

²¹ Ko‘rsatilgan manba

ma'nosini ifodalab, shu ohangda aytiladi. Gap o'rtasida kelganda kirish so'z intonatsiyasiga yaqin, tez va past ohangda talaffuz qilinadi. Oxirida kelgan undalmalarda pauza bo'lib, xabar, ogohlantirish ohangi bilan aytiladi. Qiyoslang:

Aziz birodarlar, vatan yagonadir, vatan bittadir.

Siz, o'rtoq serjant, miltig'ingizga devona to'rvasiga yopishganday olibsiz.

Usta parashyotchi, mohir to'quvchi bo'lasiz, Bashoratxon.

So'roq gap oxirida keluvchi undalma birinchi yuqori talaffuz qilinadi va undalmadan oldin qisqa pauza (to'xtam) bo'ladi.

Qayoqqa shoshilyapsiz, mayor?

Sizlar kim bo'lasiz, yigitlar?

Yuqorida aytilganidek, murojaatlarning kelish o'rni nutq vaziyatiga bog'liq, shu ma'noda, davlat va tashkilot rahbarlari xodimlarga nisbatan qo'llaydigan rasmiy murojaatlar, shuningdek, turli rasmiy uchrashuvlar, yig'ilishlar, sessiyalarda tinglovchilar uchun foydalaniladigan murojaatlar gap boshida keladi, chaqirish, murojaat, da'vat etish kabi ma'nolarni ifodalaydi va bu holat kontekst, nutqning tarkibida ham takrorlanib turadi.

Rasmiy murojaat vositalari quyidagi ko'rinishlarda namoyon bo'ladi:

- ijtimoiy mansublik;

Oling, dehqon aka!.. (Oybek "Qutlug' qon" romani)

- kasb-hunar nomlari;

Janob sudya, siz bo'ladigan gapni ayting. (Sh.Xolmirzayev "Ikki jahon ovora" hikoyasi)

- mansab-unvon nomlari;

Menga qarang, Rais aka, sizga hech kim azob berayotgani yo'q. (S.Ahmad "Azob" hikoyasi)

- suhbatdoshlarning tanish notanishligi;

Keling, mehmon, yo'l bo'lsin? (S.Ahmad "Iqbol chiroqlar" hikoyasi)

- shaxs ismi, familiyasi va otasining ismi bilan;

Biz tuproqdan tashqari odammiz, Juma Nazarovich, yashirayotganim yo'q... (O. Muxtor "Egilgan bosh" romani)

Rasmiy murojaatlarni o‘rganar ekanmiz, avvalo, ularni diaxron va sinxron jihatdan

tarixiy rasmiy murojaatlar

zamonaviy rasmiy murojaatlar kabi tiplarga ajratish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

1) Tarixiy-rasmiy murojaatlar:

➤ Rahmat fuqaro! Orqamda sizningdek fuqarom turg‘anda menga hech bir qayg‘u yo‘qdir! (Oybek “Navoiy”)

Tarixiy murojaat so‘zlar o‘zbek leksikasining tarixiy so‘zlar guruhiga kirgani holda ularni ham 2 ga ajratish muhim ahamiyat kasb etadi:

a) Istorizmlar, ya‘ni hozirgi jonli so‘zlashuv tilida qo‘llanilmaydigan, ma‘lum bir davrga xos bo‘lgan rasmiy murojaat shakllari bo‘lib, ular quyidagi ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi:

➤ Siz kim Kumushbibi Mirzakarim qizi, o‘zingizni toshkandlik, musulmon Otabek Yusufbek hoji o‘g‘liga bag‘ishlamoq vakolatini amakingiz Muhammadrahim Yo‘ldosh o‘g‘liga topshirdingizmi?

➤ Taqsir, sizga arz bor. (“O‘tkan kunlar”)

➤ Tez bo‘ling, Bek afandi! – degan hokimona tovushi eshitildi. (“Mash‘al”)

➤ Hazrati oliylari, yana chopar yuborishga farmon berurlarmi? (Oybek “Navoiy”)

➤ Amirzodam, hozirgina bir mashqdan chiqdingiz. Boshqa mushkul mashqlarni ertaga qoldiring. (Oybek “Navoiy”)

➤ Mirzom!.. Tangri sizga quvvat bersin! Endi bizning pushti - panohimiz

o‘zingizsiz! Ikki tarafimizni yog‘iy bosgan. (Oybek “Navoiy”)

➤ Janob eshik og‘a, ijozat bering, kamina Bobur Mirzo huzurlariga kiray!

➤ Janob amirlar, sizlarning fikrlaringiz qalay? (Oybek “Navoiy”)

➤ Mulla Fazliddin, yog‘iy kelsa po‘lat sandig‘ingizni tinch qo‘ymas, — dedi pochchasi. (Oybek “Navoiy”)

➤ Hazrat shoh, tuni bilan qor bo‘roni ichida muzlab qolishdan qo‘rqmaysizmi? (Oybek “Navoiy”)

➤ Hazrat begim! Shahzoda! Tezroq chiqinglar! (“Yulduzli tunlar”)

Istorizm xususiyatli tarixiy murojaat so‘zlarni shartli ravishda quyidagicha guruhlash mumkin:

1. Ijtimoiy-siyosiy nomlar: *podshoh, vazir, qul, qarol.*

2. Mansab, unvon, lavozim nomlari:

a) yuqori darajadagi unvon va mansablar: *qozikalon, miroxo‘r* (podshoh otboqarlarining boshlig‘i), *parvonachi* (podshoh farmonlarini yozib oluvchi va ishlar bo‘yicha podshohga ma‘ruza qiluvchi amaldor), *muhrdor, dorug‘ayi kutubxonai humoyun* (podshoh kutubxonasining boshlig‘i), *beklarbegi* (viloyat va katta shaharlarning boshlig‘i), *shayx ul-islom* (diniy ishlar bo‘yicha amaldor), *dorug‘a* (shahar idorasi boshlig‘i, bosh mirshab), *muhtasib* (diniy ishlarning musulmonlar tomonidan bajarilishini taftishlab yuradigan ma‘mur), *dorug‘ayi kabutarxonai humoyun* (podshoh kabutarxonasining boshlig‘i), *sadr* (vaqf va diniy ishlarni boshqaruvchi ma‘murlar), *bosh haram og‘asi* (haramdagi xotin-qizlarni kuzatib yuruvchi bichilgan qullar boshlig‘i), *qal‘a begi* (qal‘a boshlig‘i), *boyon* (boylar), *sohibi devon* (mahkama boshqaruvchisi).

b) quyi lavozimlar: *eshik og‘asi, muboshir* (soliq yig‘uvchi), *ichkilar* (saroy yumushlarini bajaruvchi maxsus beklar), *yasovul* (qurolli soqchi, posbon), *tovonchi* (dasturxonchilar, ziyofatni boshqaruvchi), *mirob* (suv taqsimotini nazorat qiluvchi shaxs), *oqsoqol* (qishloqqa boshliq bo‘lgan amaldor), *chopar, mulozim, kanizak, g‘unchachi, zakotchi.*

c) unvonlar: *mahd ulyo* (xon yoki amirlik oilasidagi ayollarga berilgan unvon), *mu‘tamid ul-saltanat va mu‘imtan ul-mamlakat* (podshohlik va mamlakatning ishonchli odami).

Shuningdek, o‘tgan asrda davr nuqtai nazaridan qo‘llanilgan *raykom, obkom, partkom, kolxozchi, grajdanin, pioneer* kabi leksemalar.

➤ O‘rtoq kolxozchilar! Tushining axir! Orif oqsoqolni hammamiz hurmat qilamiz! (O‘.Hoshimov “Ikki eshik orasi”)

➤ Xo‘p bo‘ladi, raykom bobo! (Sh.Xolmirzayev “Biz kech qolib yuramiz”)

➤ Bo‘pti, o‘tavering, grajdanin. (O‘.Hoshimov “Musofir bo‘lmaguncha”)

➤ Mana, o‘zingiz ayting, o‘rtoq partkom, sira u kishini ko‘ndirolmayapmiz. (S. Ahmad “Cho‘l burguti”)

3. Kasb-hunarni ifodalovchi istorizmlar: *aslahafurush* (qurol-yarog‘ sotuvchi), *mudarris* (madrasada dars beruvchi), *bakovul* (oshpaz), *muarrix* (tarixchi), *sahhof* (muqovachi), *bazzoz* (gazlama sotuvchi), *halvofurush*, *munshiy* (kotib), *mug‘anniy* (cholg‘uchi), *bo‘zchi*, *kosib* (mayda hunarmand), *kafshdo‘z*, *jomado‘z* (tikuvchi), *kosagar*, *baqqol* (mayda mollar sotuvchi kichik savdogar), *soqiy* (may quyuvchi), *sarroj* (ot asboblari yasovchi hunarmand), *hakimi hoziq* (usta tabib).

b) Arxaizmik rasmiy murojaatlar tarixiy taraqqiyot natijasida o‘z lug‘aviy ma‘nosini biroz o‘zgartirgan yoki yangi ma‘no kasb etgan murojaat so‘zlardir. Tarixiy murojaatning ushbu turi nisbatan kamsonli bo‘lib, quyidagilar misol bo‘la oladi.

1. Ijtimoiy-siyosiy nomli arxaizmlar: vazir, hokim.

2. Mansab, unvon, lavozim nomlari: xazinabon, mirob, mudir(a), oqsoqol, rais,

➤ Rais bova, Xolyor polvonga duo bering ukasining ori uchun olishsin! (T. Murod “Yulduzlar mangu yonadi”)

➤ Balki uch hissa oshirarmiz, rais. (O‘. Hoshimov “Ikki eshik orasi”)

➤ Ko‘rib turibsiz, oqsoqol. Zamon shunaqa...

(O‘. Hoshimov “Ikki eshik orasi”)

3. Kasb-hunarni ifodalovchi istorizmlar: bakovul, bo‘zchi, baqqol, kosib, kotib(a),

Fikringni aniqlab, takliflaring bilan kelmaysanmi, kotib?

(A. Muxtor “Chinor” romani)

➤ Ay bakovul, shunday haq olib yegandan ko‘ra, ko‘chadan... terib yesalaring bo‘lmaydimi? (“Ot kishnagan oqshom”)

➤ Insof qiling, baqqol aka! — qichqirdi Yo‘lchi. (“Qutlug‘ qon”)

2) Zamonaviy-rasmiy murojaatlar:

➤ O‘rtoq serjant, leytenant bu yerdan uzoqdami? (“Oqsoq bo‘ri”)

➤ Hamidov muallim, bu qanday mashina bo‘ldi? — dedim. (“Ot kishnagan oqshom”)

➤ Nimaga o‘z ukalaringiz chetda qoldi, ellikboshi, shu ham insofmi? (“Qutlug‘ qon”)

➤ Oliy mehmon, siz g‘aroyib bir hodisaning guvohidirsiz. (“Yulduzli tunlar”)

➤ Qadrli do‘stlar! – dedi Jo‘raboyev o‘rnidan turib. (“G‘oliblar”)

➤ Qanaqa g‘araz, o‘rtoq Safarova? Nima deyapsiz? (P. Qodirov “Qora ko‘zlar”).

➤ Domlajon, shugina o‘qisin, odam bo‘lsin, deymizda.(Sh. Xolmirzayev “Ikki ko‘rgan bilish” hikoyasi)

➤ E, milisa bobo, biz yashirib nima qilamiz. (Sh. Xolmirzayev “Sirli militsioner”)

➤ Shoir, kecha ish chiqib qoldi, bugun kiraman... (Sh. Xolmirzayev “Bodom qishda gulladi”)

➤ Doktor, kelasi gal oyisini olib kelsam, maylimi – dedi u Azizaga o‘girilib. (S. Ahmad “Zumrad”)

➤ Ish bo‘ladi-yu, oson bo‘ladimi, muallim. (T. Murod “Momoyer qo‘shig‘i”)

➤ Ha, bali serjant Orziqulov, gap bunday bo‘pti-da! (T. Murod “Momoyer qo‘shig‘i”)

➤ Balki uch hissa oshirarmiz, rais. (O‘. Hoshimov “Ikki eshik orasi”)

➤ Bu juda nozik masala, Juma Nazarovich. (O. Muxtor “Egilgan bosh”)

➤ Muallim, meni kechiring. (Sh. Xolmirzayev “Bir ko‘rgan tanish”)

➤ Qani, domlasi, o'tiring, ustalga o'tiring. (Sh. Xolmirzayev "Ikki ko'rgan bilish")

Shunga ko'ra, zamonaviy-rasmiy murojaatlarni tematik jihatdan quyidagicha tasniflarga ajratdik:

Ijtimoiy mansubligiga ko'ra – adresatning ijtimoiy holatidan kelib chiqib, qilinadigan murojaatlardir (boy, kambag'al, faqir, amirzodam, shahzoda, xoja, begim).

➤ Amirzodam, hozirgina bir mashqdan chiqdingiz. Boshqa mushkul mashqlarni ertaga qoldiring. (Oybek "Navoiy" romani)

Shuni aytish kerakki, rasmiy murojaatning ushbu turi hozirda kam qo'llanilib, asosan, tarixiylik jihatida ustunvordir. Hozirgi jonli so'zlashuv tilida faqatgina *eshon(bobo)*, *xo'ja* shakllaridan foydalaniladi.

Kasb-hunar nomlariga ko'ra – tinglovchining (ba'zan otasining) kasbi bilan nomlash va u jonli so'zlashuv tilida keng foydalanilishi bilan xarakterlidir.

➤ Domla, Fuzuliyini bir g'azali bor, mag'zini sira chaqolmadim. (S. Ahmad "Sarob" hikoyasi)

Kasb-hunar nomlariga ko'ra rasmiy murojaatlarni har bir soha yuzasidan o'z ichki guruhlariga ajratib tasnif qilish mumkin. Jumladan, pedagogik soha (ustoz, domla, muallim, murabbiy, shogird, hurmatli o'qituvchi/o'quvchi va x.k.), yuridik soha (sudya, aybdor, advokat, prokuror), tibbiy soha (doxtir, hamshira, doya, jarroh, tabib) va boshqalar.

Mansab-unvon nomlariga ko'ra murojaatlar II shaxsning mansab va unvoniga ko'ra nomlashdir (professor, rais, leytenant, mayor, kapitan, hokim, prezident).

➤ Esimdan chiqibdi, o'rtoq leytenant. (O'. Hoshimov "Telpak" hikoyasi)

Rasmiy murojaatning ushbu turi boshqa murojaatlarga nisbatan keng va ommaviy bo'lib, xarakterli jihatida mansab-unvon nomlari bilan qilinayotgan murojaatlar qo'llanilish doirasiga ko'ra xalqaro xarakterdagi xorijiy so'zlardan keng foydalaniladi. Tarkibiy jihatdan quyidagicha bo'lish mumkin:

1. Davlat boshqaruvidagi mansab-unvon nomlari bilan bog‘liq rasmiy murojaatlar
 - a) Oliy davlat boshqaruvidagi mansab-unvon nomlari (Prezident, senator, deputat, spiker (qo‘mita) raisi)
 - b) Quyi davlat boshqaruvidagi mansab-unvon nomlari (hokim, (mahalla) raisi, oqsoqol,)
2. Harbiy soha vakillarining mansab-unvon nomlari bilan bog‘liq rasmiy murojaatlar leytenant, mayor, kapitan, podpolkovnik, general (mayor, leytenant) va x.k.)
3. Ilm-fan sohasi mansab-unvon nomlari bilan bog‘liq rasmiy murojaatlar (professor, fan nomzodi, akademik)

Suhbatdoshning tanish-notanishlik jihatiga ko‘ra – tanish bo‘lmagan shaxslar muloqotida foydalanilib, bunda adresatning turli o‘ziga xos jihatlari orqali murojaat qilinadi.

- Otingiz nimaydi, polvon (T. Murod “Yulduzlar mangu yonadi” qissasi)
- Mullaka, do‘xtir bir nima demadimi? (T. Malik “Vasiyatnoma”)
- U, e, birodar, mastmisan, majruhmi nima balo deb g‘udranganicha odamning yoniga bordi. (O. Muxtor “Egilgan bosh”)
- Assalomu alaykum, opoqi, yaxshimisiz (O. Muxtor “Egilgan bosh”)
- Xo‘-o‘sh, yo‘l bo‘lsin, yigit? (Sh. Xolmirzayev “Notanish odam”)
- Obbo, mendan...nima istaysiz o‘zi, amaki? (Sh. Xolmirzayev “Notanish odam”)
- Siz, inim, Salim mo‘ylovning jiyanimasmi? (Sh. Xolmirzayev “Bir ko‘rgan tanish”)

Norasmiy murojaatlar – kommunikantlarning turli emotsiya va munosabatlari asosida muloqot jarayonini tashkil etuvchi murojaatlar shakllaridir.

- Oyi, uch kundan keyin domlam bilan dalaga chiqamiz. (Oybek “Bolalik”)

Norasmiy murojaatlar rasmiy murojaatlarga zid bo‘lib, uning qo‘llanilish doirasi nisbatan kengroq. Uyda, ko‘cha-ko‘yda, turli sharoit va vaziyatlarda asosan, tanish kishilar o‘rtasida yuzaga chiqadi.

➤ Men seni xo‘rlatib qo‘ymayman, ona qizim. (O. Muxtor “Egilgan bosh”)

Shuningdek, rasmiy murojaatlarni subyektiv jihatdan tasnifini keltirish maqsadga muvofiq bo‘lib, subyektiv jihatdan murojaatlarni o‘rganish shartlidir, chunki murojaatlar II shaxsga qaratilib, uning xususiyatlari (ismi, yashash joyi, mansabi, unvoni, kasbi va boshqalar)ga nisbatan murojaat qilinishi tabiiy. Ammo turli yig‘inlarda, majlislarda, nutq so‘zlovchi, adresant o‘zining kasb-kori, mansab-unvonidan kelib chiqqan holda adresatlarga murojaat qiladi va buni *xodimlar murojaati, boshliqlar murojaati, shuningdek, prezident murojaati, vazirlar murojaati, tele yoki radioshow(vo)men murojaati* kabi tiplarga ajratish mumkin.

Murojaat vositalarini toifaviy jihatdan tahlil qilganda, bir-biriga teng darajadagi kommunikantlar orasidagi munosabat va teng bo‘lmagan kommunikantlar munosabati tarzida ajratish mumkin. Bu Sh. Iskandarovanning tadqiqotida simmetrik va assimmetrik munosabat deb qayd etiladi²². Bunda, simmetrik muomalada mavqeyi jihatdan kommunikantlarning ikkisi ham bir xil o‘rin tutsa, assimmetrik muomalada esa kommunikantlarning biri boshqaruvchi bo‘ladi. Bu holat rasmiy murojaatlarni yuzaga chiqaruvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Rasmiy murojaat shakllarini tasniflashda shuni kuzatish mumkinki, ularning yuzaga chiqish o‘rni va vaziyatlari muhim bo‘lib, shu jihatdan quyidagicha ifodalash mumkin:

1. Yig‘ilish va majlislarda foydalaniladigan rasmiy murojaatlar

➤ Hurmatli majlis qatnashchilari! – dedi u... biz nuqul ishni o‘ylayvermay, insonlarga g‘amxorlik qilishni bilishimiz kerak. (O‘. Hoshimov “Musofir bo‘lmaguncha”)

²² Iskandarova Sh. O‘zbek nutq odatining muloqot shakllari: fil.fan.nomz.diss. avt.ref. –Toshkent, 1993, 19–bet.

2. Bayram tadbirlarda qo‘llaniladigan rasmiy murojaatlar
 - Qani, do‘stlar, adabiyotni qo‘lga olish uchun cho‘qishtiraylik (T. Murod “Momoyer qo‘shig‘i”)
 - Odamlar, uzoq-yaqindan kelgan aziz mehmonlar! (T. Murod “Yulduzlar mangu yonadi”)
3. Sud jarayonida qo‘llaniladigan rasmiy murojaatlar
 - Shularni murosaga keltirib qo‘ysangiz, ko‘p savob ish bo‘lardi, janob sudya. (Sh. Xolmirzayev “Ikki jahon ovora” hikoyasi)
4. Organ tashkilotlari (Ichki ishlar vazirligi, Davlat xafvsizligi agentligi, Prokurotura)da qo‘llaniladigan rasmiy murojaatlar
5. Diniy va’zlar o‘qiladigan joy (masjid, madrasa)larda qo‘llaniladigan rasmiy murojaatlar
6. Tele va radiodasturlarda qo‘llaniladigan rasmiy murojaatlar
 - Hurmatli tomoshabinlar. Kulib turgan yigitning quvonch to‘la ko‘zlariga qarang! (O‘. Hoshimov “Omadli jentelmenlar” hikoyasi)
7. Notanish kommunikantlar o‘rtasidagi dastlabki suhbatlarda
 - Mehmon, biz sizning ismi-sharifingizni bilmaymiz, siz biznikini bilmaysiz. (S. Ahmad “Azroil o‘tgan yo‘llarda”)

Rasmiy murojaatlarini turli ichki semantik jihatlarini batafsil yoritish maqsadida ularni o‘ziga xos quyidagicha turlarga ajratib chiqdik:

- a) Dunyoviy xarakterdagi rasmiy murojaatlar
- b) Diniy xarakterdagi rasmiy murojaatlar – bevosita din, diniy aqidalar bilan bog‘liq bo‘lib, o‘zbek xalqi azal-azaldan islom diniga e‘tiqod qilib kelgani holda rasmiy murojaatning ushbu turida qo‘llaniladigan murojaatlar islom dini va arab tiliga oiddir. Zero, islom dini arab tili asosida shakllangan. Mulla, qori, imom va x.k

Diniy-rasmiy murojaatlar alohida katta mavzu hisoblanadi, o‘ziga xos qo‘llanilish tartibi mavjud. Uni o‘tmishda va hozirgi kunda muloqot jarayonlarida qo‘llaniladigan murojaatlar kabi tasniflash mumkin.

i. O'tmishda qo'llanilgan diniy rasmiy murojaatlar: shayx ul-islom, xojai kalon, xalifa, a'lam oxund, sudur, o'roq, naqib, mudarris, imom, imomi jilav, so'fi jilav, qozi va x. k²³.

ii. Hozirgi kunda qo'llanilgan diniy rasmiy murojaatlar: mulla, qori, imom va boshqalar.

Rasmiy murojaatlarni gender jihatdan o'rganish mavzuning yanada ochib berilishini ta'minlagani holda biz aynan shu jihatlarga e'tibor qaratdik. Gender tushunchasi erkak va ayollarning psixologik, ijtimoiy va madaniy o'ziga xos xususiyatlarini nazarda tutadi²⁴. Insoniyatning uzoq yillik evolyutsiyasi jarayonida bu ikki qarama-qarshi jins o'ziga xos bo'lgan umumiylik hamda farqlarga ega bolib bordi. Natijada ayol va erkakni bir-biridan farqlovchi va umumlashtiruvchi xususiyatlar tizimi shakllandi. Gender erkaklar va ayollar aynanligi va xulq-atvordagi tafovutni ifodalaydi²⁵.

Erkak va ayollar bajaradigan vazifalari, jamiyatda tutgan o'rinlari jihatidan bir-birlaridan farqlanar ekanlar, demak, ularning muloqot madaniyatida ham farqli holatlar mavjud. Ayollar va erkaklar nutqining farqli xususiyatlari borasida tilshunoslikda bir qancha ishlar amalga oshirilgan bo'lib, ayrim xalqlarda ayollar nutqi alohida tadqiqot sifatida maydonga kelgan. Bunday farqlanish muhim ahamiyat kasb etib, muloqot madaniyatida muhim o'rin tutadi. O'zbek tilshunosligida keyingi yillardagi tadqiqotlarda oz bo'lsa-da, bu haqda yoritib o'tilgan. Jumladan, S. Mo'minov, Sh. Iskandarovalarning ilmiy tadqiqotlarida buni ko'rish mumkin. Muloqotning jins jihatidan xoslanishi muhim ahamiyat kasb etib, sotsiolingvistikaning o'rganish muammolaridan biri sanaladi. Murojaat shakllarini jins jihatidan tahlil qilganda, erkak va ayol adresantning nutqida qo'llaniladigan murojaat shakllari hamda erkak va ayol adresatga nisbatan qo'llaniladigan murojaat shakllari tarzida tahlil qilish lozim. Ayollar va erkaklar nutqida so'z va

²³ Shodmon Vohid "Qo'qon xonligidagi unvon va mansablar" kh-davron.uz

²⁴ Islomova Sh. Qipchoq lahjasidagi iboralarning etnosotsiopragsmatik xususiyatlari. Magistr. dar. olish. Diss Q.,2013y..

²⁵ Islomova Sh. Ko'rsatilgan manba.

iboralarning qo‘llanilishi jihatidan ham bir-biridan farq qiladi. Nutqda uchraydigan shunday ibora va so‘zlar borki, ular faqat ayollar nutqiga xos yoki aksincha, ayrim birliklar erkaklar nutqiga xoslangan. Xususan, erkaklar nutqida ayollar murojaatida uchramaydigan quyidagicha tafovutlar bor:

1) erkaklar nutqida qo‘llanadigan gaplar ayollarnikiga nisbatan qisqaroq bo‘ladi;

2) grammatik xatolar ko‘p uchraydi;

3) erkaklar nutqida asosan ot va sifatlar ko‘proq, fe‘l va yuklamalar kam qo‘llaniladi.

“– Yo‘qolmasdan ilgari bormidi? Qanaqa ho‘kiz edi.

– Ola ho‘kiz...

– Yaxshi ho‘kizmidi, yo yomon ho‘kizmidi?

– Qo‘sh mahali...” (A. Qahhor “O‘g‘ri”);

4) erkaklar nutqida ratsional baholar ijtimoiy baholarga nisbatan ustunligi seziladi. Ijtimoiy baho juda kam uchraydi. Erkaklar nutqida emotsional va sensor baholar ham kam qo‘llaniladi. Ular ko‘proq estetik bahoni ajratib, o‘zini o‘rab turgan obyektiv voqelikdagi narsa va hodisalarning axloqiy tomoniga e‘tibor berishadi:

“– Ha, aytganday, - dedi Karim ota piqirlab kulib, - domla sochlarini bo‘yatibdilar!.. Azbaroyi xudo, kuya tushgan po‘stakka o‘xshaydi!.. Mayli, bo‘yoq topilgan bo‘lsa bo‘yasin, lekin shu bo‘yoq bilan qilg‘ini ham bo‘yashga, sochiga mos qiliqlar qilishga urinsa uncha yaxshi chiqmas ekan!”, (A.Qahhor. “To‘yda aza”);

5) erkaklar ayollarga nisbatan dunyoni va voqelikni rang-barang tavsiflar, bo‘yoqlar va belgilar bilan ta’riflaydilar:

“Birodarlar, Momosuluv tushimda Cho‘lpon edi, hushimda Oy edi, qo‘ynimda Oftob bo‘ldi”. (T. Murod Ot kishnagan oqshom);

6) erkaklar va ayollar tomonidan yozilgan matnlarning sintaktik tuzilishi erkaklarning teng bog‘lanishli yuzaga kelgan aloqani emas, ko‘proq tobe aloqali bog‘lanishlarni qo‘llashini ko‘rsatadi:

“Shomdan so‘ng tevarak-atrof chodrasiga burkandi-yu, Nur qo‘rboshi alanglay-alanglay xarsang panasidan chiqdi”. (L.Bo‘rixon “Aldoqchi tunlar”);

- 7) erkaklar nutqida undov va so‘roq gaplar kam qo‘llaniladi;
- 8) to‘liqsiz gaplar va elliptik qurilmalar ham kam qo‘llaniladi;
- 9) erkaklar yozma nutqida teskari so‘z tartibi ham o‘ziga xosdir.

Shuningdek, ayollar va erkaklar nutqida fonetik xususiyatlar ham farqlanadi. O‘zbek tilida ayollar nutqida unli fonemalarni cho‘zib talaffuz qilish (k-a-a-a-tta, uz-o-o-oq, bal-a-a-a-nd), undosh fonemalarni ikkilantirish (ma-z-z-za, esh-sh-shak, bashsh-shara) kabi fonetik hodisalar ko‘p uchrasa, erkaklar nutqida bunday holat ancha kam kuzatiladi. Ayollarda mantiq urg‘usi juda faol qo‘llanadi, pauza esa erkaklar nutqiga nisbatan juda qisqa bo‘ladi. Ayollar va erkaklar nutqida qo‘llanuvchi leksemalar ham o‘ziga xos ahamiyatga ega. Tildagi yangilanish jarayonlari ayollarga nisbatan erkaklar tomonidan tez qabul qilinib, ilmiy va kasb-hunarga oid yangi leksemalar erkaklar nutqida ko‘proq va faolroq. Shuningdek, ayollar kundalik turmushda neologizmlardan unumli foydalangan holda, rasmiy muloqotda undan qochishga harakat qilishadi.

Ayol kishi tabiatan nafasat sohibalari bo‘lganligi sababli, suhbat jarayonida ham jozibador va bo‘yoqdor leksemalarni, shaxsiy munosabat ifodalovchi so‘zlarni, ijobiy bo‘yoqdor so‘zlarni ko‘proq qo‘llaydi. Suhbat predmeti biroz bo‘rttirilgan holda bo‘ladi. Emotsional holatlar: hayratlanish, sevinish, qo‘rqish, nafratlanish, xafa bo‘lish kabi ruhiy-fiziologik jarayonlarni ularda kuzatishimiz mumkin.

O‘zbek tilida ayollar va erkaklar nutqi sintaktik jihatdan ham tahlil qilinadi. Ayollar suhbatdoshining fikriga qo‘shilish yoki qo‘shilmasligiga va shaxsiy munosabat ifodalashda suhbatdoshini xafa qilib qo‘ymaslikka, iloji boricha uning ko‘ngliga yoqadigan tarzda murojaat qilishga harakat qilishadi. Masalan , *keyinroq borsak bo‘lmaydimi, keyinroq borsak bo‘lar ekan, keyinroq boraylik, keyinroq bora qolaylik, keyinroq bora qolaylik, maylimi?, keyinroq borsak nima deysiz?* kabi. Erkaklar esa bu holatda *keyinroq boramiz, keyinroq borsak bo‘ladi,*

keyinroq ham borsak bo'ladi, keyinroq borsak ham bo'laveradi ifoda shakllaridan foydalanishadi.

“Burnini yerga ishqamoq”, “Dabdalasini chiqarmoq”, “Jag‘ini ezib qo‘ymoq”, “Abjag‘ini chiqarmoq”, “Yulduzni benarvon uradigan” kabi ko‘plab iboralar asosan erkaklar nutqida qo‘llanishi bilan o‘ziga xoslik kasb etadi. Xotin-qizlar nutqiga esa ko‘proq *“aylanay”, “o‘rgulay”, “qoqindiq”, “girgitton bo‘lay”* singari so‘z va iboralar xos bo‘lib, ular turli nutqiy vaziyatlarda ijobiy ma‘no nozikliklarini ifodalovchi leksik vositalar hisoblanadi²⁶.

Bu farqli holatlar murojaat shakllarida ham o‘z ifodasini topgan. Murojaat shakllari yana shu jihati bilan xarakterliki, ularda so‘zlovchi va tinglovchining jinsi yaqqol namoyon bo‘ladi. Buni oddiy muloqot madaniyatimizda ham uchratish mumkin. “Ayollar nutqida *“ovsin”, “dugonajon”, “egachi”*, shuningdek turmush o‘rtoqlariga qarata *“dadasi”* murojaat shakllari mavjud”²⁷. Tarixiy asar leksikasida, asosan, oliy tabaqadagi ayollarga nisbatan *“begim”, “xonim”, “hazrat begim”, “oliy nasab begim”* kabi murojaat shakllari qo‘llangan. “Egachi” murojaat shakli Sh. Iskandarova dissertatsiyasida ayollarga xos bo‘lgan murojaat shakli deb qaraladi. Ya‘ni ayol adresant muloqoti jarayonida qo‘llanadi. Bu murojaat shakli XIV- XV asrlarda erkaklar nutqida ham opa-singilga nisbatan qo‘llanilganligini ko‘rish mumkin.

Murojaat shakllarining yosh jihatdan ijtimoiy xoslanishi o‘zbek muloqot madaniyatining asosini tashkil qiladi, chunki boshqa millatlardan farqli o‘laroq, o‘zbeklar milliy mentalitetida shunday hurmat kategoriyalari bor-ki, ular kommunikantlarning yoshini yaqqol namoyon qiladi. Bunday holatni nutqiy etiketlarning barchasida kuzatish mumkin

“Tilning barcha vazifalari: kommunikativ, emotiv, aloqa o‘rnatish, ijtimoiy funksiyalari so‘zlovchi va tinglovchi orasidagi turli-tuman munosabatlarni ifodalaydi. Murojaatning mazmunan har xil shakllanishi – quvonch, ta’na,

²⁶ Mo‘minov S. O‘zbek muloqot xulqining ijtimoiy-lisoniy xususiyati. Filol. fan. dokt....dis. avtoref.-T.,2000.-B.33

²⁷ Iskandarova Sh. O‘zbek nutq odatining muloqot shakllari: filol. fan. nomz....diss. –Toshkent, 1993. 19–bet.

qo‘rqinch, gina, iltifot, nafrat kabi ma’no ottenkalari qo‘shilgan holda ifodalanishi – eng avvalo, ijtimoiy muhit va sharoitdan kelib chiqadigan munosabatga bog‘liq”²⁸.

Ingliz tilida “*murojaat*” ma’nosini ifodalovchi lingvistik termin sifatida ilmiy muomalaga kirgan. Nominatsiya, ya’ni, nom lotincha “*nomination*” so‘zidan olingan bo‘lib, tilda atash vazifasini bajaruvchi birliklarning hosil bo‘lish jarayonidir”²⁹. Demak, apellyativ nominatsiya – murojaat nominatsiyasi atamasi o‘rnida ishlatiladi. Murojaat nominatsiyasi tilshunoslar tomonidan atroflicha tadqiq qilingan bo‘lsa-da, bunday birliklarning jinsda farqlanishi, ayol yoki erkak nutqida qay tarzda amalga oshishi, ayniqsa, rasmiy murojaatlar masalasi gender tilshunosligining dolzarb masalalaridandir.

N.Ahmedova tadqiqotida quyidagi jihatlarga e’tibor qiladi: “Odatda, so‘zlovchi tinglovchining mavqeyidan kelib chiqib, quyidagicha murojaatlarni ishlatish mumkin: ona, qiz, opa, singil, ayol, xodim, hamkasb, dugona, xola, amma, jiyan”³⁰. Ushbu izlanishda ayol jinsiga nisbatan qo‘llanuvchi qarindoshlikni bildiruvchi murojaat birliklari keltirilgan. Bulardan ba’zilari, masalan, jiyan yoki xodim kabi leksemalarda, aslida, jins farqlanmaydi, ya’ni, erkak uchun ham, ayol uchun ham umumiy nominativ birlik sifatida teng qo‘llanadi.

Erkak jinsiga qaratilgan murojaat shakllarini quyidagi mavzuiy guruhlarga bo‘lish mumkin:

- Chaqirish: - birodar, ukam, o‘rtoq, oshna, do‘stim, og‘ayni.
- Mensimaslik, kinoya: - kuyov to‘ra, er, erkak, qariya.
- Iltimos: - azamat, toychoq, yaxshi yigit.
- Yalinish: - oka, okaxon, ukaxon.

²⁸ Akbarova Z. O‘zbek tilida murojaat shakllari va ularning lisoniy tadqiqi. Filol.fan.nom...dissert. Toshkent, 2007, 15-bet.

²⁹ Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. Москва, «Советская энциклопедия», 1969. с. 270.

³⁰ Ahmedova N. O‘zbek tilida murojaat birliklarining semantik-konnotativ tadqiqi. Filol.fan.nom...dissert. Toshkent, 2008, 114-bet.

•Neytral shakllar: - kuyovjo‘ra, boshqon, marhum, xodim, rahbar.

Ayol kishi erkakka nisbatan murojaatning mavhum shaklidan foydalanishi kuzatiladi: - Turing, hoy, turing, qudalarangiz kelishdi (T. Malik “Shaytanat”)

Erkakning erkakka murojaati uning qayerda va kimga murojaat qilishiga qarab turli mazmuniy maydonlarni qamrab oladi.

Gender xususiyatiga ko‘ra, rasmiy sharoitda qo‘llaniluvchi murojaat shakllari nutqning norasmiy sharoitida qon – qarindoshlik terminlari bilan almashadi, ya’ni ijtimoiy guruh a‘zolari o‘z sotsial rollarini o‘zgartirsalar ular nutqi ham shunga muvofiq o‘zgaradi.

Rasmiy murojaatlarda yuqorida aytilganidek, yashirin hurmat semasi mavjud tarzda ushbu ma’no gender jihatdan ayollar hamda erkaklar nutqida bab-baravar qo‘llanilib, lekin ayollarga xos bo‘lgan boshqa mehribonlik, ko‘ngilchanlik, yaqinlik kabi yashirin konnatativ semalari norasmiy uslubga nisbatan kam qo‘llaniladi yoki umuman qo‘llanilmaydi.

- Mayli, kechirasiz, o‘rtoq Komilova... (O. Muxtor “Egilgan bosh”)
- O‘zingiz bu gaplardan xabaringiz bor, Rahim G‘ulomovich, misol tariqasida aytyapman. (O. Muxtor “Egilgan bosh”)
- Bu juda nozik masala, Juma Nazarovich. (O. Muxtor “Egilgan bosh”)
- O‘lguncha sizdan qarzdorman, Burxon Tillayevich. (O. Muxtor “Egilgan bosh”)

Rasmiy murojaatlar qo‘llanilish doirasiga ko‘ra:

Hududiy

Milliy

Xalqaro kabi turlarga bo‘linadi.

Hududiy rasmiy murojaatlar ma’lum bir hudud doirasida qo‘llanilib, boshqa hududda boshqacha so‘z bilan ataladigan murojaatlardir. Notanish kommunikantlar o‘rtasidagi muloqotlardagi rasmiy murojaatlar ushbu turga misol bo‘la oladi.

“Xolamullo”, “hazrat momo” murojaat birliklari qo‘llanilgan bo‘lib, Samarqand va uning atrofidagi viloyatlar shevasida yoshi katta ayol tinglovchiga nisbatan qo‘llaniladi. “Momo” qarindoshlik termini ko‘proq Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida keksa yoshdagi ayol adresatlarga nisbatan ishlatiladi.

Milliy yoki mintaqaviy rasmiy murojaatlar davlat miqyosida qo‘llaniladigan har bir rasmiy murojaatlarni kiritish mumkin. Ushbu murojaat vositalari adabiy til me‘yorlariga qat’iy amal qilishi bilan xarakterlanadi. Mintaqaviy jihatdan rasmiy murojaatlarning eng keng qo‘llaniladigan turi shaxslarning ismi, familiyasi va otasining ismi bilan qilinadiga murojaatlardir.

Siz meni so‘kmang, Juma Nazarovich. (O. Muxtor “Egilgan bosh”)

Rasmiy jihatdan xalqaro miqyosda foydalaniladigan murojaatlar xalqaro doiradagi rasmiy uchrashuvlarda keng qo‘llaniladi va ular boshqa tillardan o‘zlashgan so‘zlardir: janob, xonim, ser, mister va x. k.

Janobi Oliylari!

Xonimlar va Janoblar!

Birlashgan Millatlar Tashkilotining yuksak minbaridan nutq so‘zlash imkoniyati yaratilgani uchun samimiy minnatdorlik izhor etishga ijozat bergaysiz.

(O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqidan. manba uza.uz saytidan olindi.)

Shuningdek, mavjud o‘zbek tilidagi badiiy asarlarda asarning jonli talqini va haqqoniylikni ta‘minlash maqsadida hududiy jihatdan xalqaro maqomdagi rasmiy murojaatlar (ser, mister, missis va x. k.) qo‘llaniladi.

➤ Yaxshi joylashib oldingizmi, ser. (O‘.Hoshimov “Musofir bo‘limguncha”)

➤ Ko‘nglingiz nima tusaydi, ser

➤ Hello, xush kelibsiz, janob! (O‘.Hoshimov “Musofir bo‘limguncha”)

➤ Qani, marhamat, o‘tirsinlar, sidom pliz, senyorita!
(O‘.Hoshimov “To‘ylar muborak”)

➤ Xuddi shundoq, janob, xuddi shundoq! (O'.Hoshimov "To'ylar muborak")

Tuzilishiga ko'ra rasmiy murojaatlar:

•sodda

•qo'shma rasmiy murojaatlarga bo'linadi.

Sodda tuzilishdagi rasmiy murojaatlar bir so'zdan iborat bo'ladi:

➤ Olg'a, lashkar, olg'a. (T. Murod "Momoyer qo'shig'i")

➤ Qizlar, tarixda qolishni istaysizlarmi? (T.Murod "Momoyer qo'shig'i")

➤ Odamlar, shunchalik izzat qildilaring, qulluq!

➤ Polvon, yiqitilmadingiz, boshqatdan olishing!

➤ Shaytonga hay bering, polvon, chiqing endi. (T.Murod "Yulduzlar mangu yonadi")

➤ Domla, yaxshi yuribsizmi?

Murakkab tuzilishdagi rasmiy murojaatlar ikki va undan ortiq so'zlar orqali yuzaga chiqadi.

➤ Janob sudya, siz bo'ladigan gapni ayting. (Sh.Xolmirzayev "Ikki jahon ovora")

➤ Qani, olg'a, mulla G'oziddin. (O. Muxtor "Egilgan bosh")

➤ Esimdan chiqibdi, o'rtoq leytenant. (O'. Hoshimov "Telpak")

Umuman olganda, mazmunan ikki tuzilishdagi rasmiy murojaatlar bir ma'noni ifodalasa-da, ammo qo'llanilish vaziyatiga ko'ra bir-biridan farq qiladi. Sodda tuzilishdagi rasmiy murojaatlar notanish kommunikantlar o'rtasidagi muloqotda qo'llanilsa, qolgan holatlarda esa murakkab tuzilishdagi rasmiy murojaatlardan foydalaniladi.

Rasmiy murojaatlarni o'rganar ekanmiz, shuni aytish kerakki, ushbu murojaatlarda mantiqan rasmiylik yuzaga chiqsa hamki, ammo uning qo'llanilish doirasi, foydalanish ottenkalari, rasmiy uslubga nisbatan kengdir. Shu jihatdan biz rasmiy murojaatlarni uslub jihatdan xillarga ajratdik:

So'zlashuv uslubida:

- Hamqishloq, yaqinda muddatingiz tugab uyga ketasiz”.

(S. Ahmad “Sarob”)

- Qaysi yurtdansan, bolam?”
- Kwartir qidirib yuribmiz, buvi”. (O‘.Hoshimov “Odam ovozi”)
- Xizmat, akamullo?
- Soat deganini munday tutmaydilar-da, akamullo!
- Qo‘ya qoling, usta, - dedim chaynalib. (O‘.Hoshimov “Soat”)
- Nima qilardi, soatingiz toshi to‘kilib tamom bo‘pti, og‘ayni!
- Menga qarang, og‘ayni o‘zimizning odam ekansiz.
- Iye, ha, yo‘l bo‘lsin, og‘ayni! (O‘.Hoshimov “Soat”)
- Mashl latareyani oling, aka, mashina yutasiz. (O‘.Hoshimov “Omadli jentelmenlar”)

So‘zlashuv uslubida nutqiy qisqalik, qulaylik yuzasidan ko‘pincha sodda tuzilishdagi rasmiy murojaatlardan foydalaniladi. Shuningdek, ushbu uslubda sotsial chegaralangan (jargon, argo) leksemalardan murojaat vositasi sifatida qo‘llanilish holatlari kuzatiladi.

- Hov, bratan, izdachisini bermisanmi, sani latareyang deb uyimga piyada ketamanmi? (O‘.Hoshimov “Omadli jentelmenlar”)

Publitsistik uslubda:

- Aziz tomoshabinlar! Hali aytganimizdek, bugun chindan ham g‘oliblar kuni! (O‘.Hoshimov “Omadli jentelmenlar”)
- E‘lon, o‘rtoqlar, e‘lon eshittiramiz.
- Muhtaram radiotinglovchilar! – dedi muxbir. (T.Murod “Momoyer qo‘shig‘i”)
- Hurmatli tomoshabinlar. Kulib turgan yigitning quvonch to‘la ko‘zlariga qarang. (O‘.Hoshimov “Omadli jentelmenlar”)

Publitsistik uslubda qo‘llaniladigan rasmiy murojaatlar asosan, kishilarning diqqat-e‘tiborini tortish, o‘ziga og‘dirish kabi mazmunlarni ifodalaydi va ko‘pincha gap boshida keladi. Ommaviy axborot vositalari bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan ushbu rasmiy murojaatlarni

Teledasturlarda: hurmatli (aziz) tomoshabinlar, shou (dastur) qatnashchilari;

Riodasturlarda: hurmatli (aziz) tinglovchilar;

Gazeta-jurnallarda: hurmatli (aziz) mushtariylar, obunachilar (abonent),
kitobxon;

Tabiatiga ko‘ra rasmiy murojaatlarni

- Yozma

- Og‘zaki turlarga bo‘linadi.

Yozma rasmiy murojaatlar turli ish qog‘ozlari, gazeta-jurnallarda qo‘llaniladigan murojaatlar bo‘lib, da‘vat, ogohlantirish, taklif kabi ma‘nolarni ifodalaydi va kontekstning boshida keladi. Taklifnoma, Ogohlantirish xati kabi rasmiy ish qog‘ozlari, shuningdek, gazeta-jurnallardagi turli ko‘rinishdagi murojaatlar bunga misol bo‘la oladi.

Shuningdek, yozma rasmiy murojaatlar zamonaviy fan-texnikaning yuksak darajadagi rivoji o‘laroq, internet xizmatlari natijasida o‘ziga xos yangi ko‘rinish hosil qildi. Xususan, ijtimoiy tarmoqlar: feysbuk, twitter, telegram, instagram va boshqa turli internet saytlaridagi yozishmalarda kommunikantlar muloqotida yangi rasmiy murojaatlar yuzaga kelmoqda: hurmatli sayt (kanal, guruh) a‘zolari, internet foydalanuvchilar va boshqalar.

Og‘zaki rasmiy murojaatlar yig‘ilish, majlis, turli yig‘inlarda namoyon bo‘ladi va dialog, monolog ko‘rinishlarida so‘zlashuv uslubida yuzaga chiqa

BOB BO‘YICHA XULOSA

Magistrlik dissertatsiya ishining ikkinchi bobida “Rasmiy uslub va unda murojaat vositalarining qo‘llanilishi” hamda “Rasmiy murojaatlarning ichki semalariga ko‘ra tasnifi” kabi ikki fasldan iborat. Ikkinchi bob uchun alohida xulosa mavjud.

Ikkinchi faslda berilgan ma‘lumotlar orasida, “*Rasmiy murojaatlar* – davlat va jamoat rahbarlarining o‘zaro rasmiy uchrashuvlardagi suhbatlarida, yig‘inlarida, yozishmalarida, tashkilot, idora, ofislarda rahbar va ishchi xodimlar o‘rtasidagi muloqot jarayonida, ko‘pgina rasmiy hujjatlarda, shuningdek, notanish kishilar

o‘rtasidagi muloqotning boshlanish jarayonida turli emotsiyalardan (faqat hurmat ma’nosidan tashqari) holi ravishda qo‘llaniladigan murojaat shakllaridir” degan fikrlar magistrning o‘ziga tegishli bo‘lib, bu ishning tayyorlanish jarayonida ko‘plab adabiyotlar bilan tanishib chiqqanligidan dalolat berib turibdi. Shuningdek, rasmiy murojaatlarni subyektiv jihatdan tasnifini keltirilgan, subyektiv jihatdan murojaatlarni o‘rganish shartliligi, chunki murojaatlar II shaxsga qaratilib, uning xususiyatlari (ismi, yashash joyi, mansabi, unvoni, kasbi va boshqalar)ga nisbatan murojaat qilinishi tabiiy ekanligi haqida fikrlar bor. Ammo turli yig‘inlarda, majlislarda, nutq so‘zlovchi, adresant o‘zining kasb-kori, mansab-unvonidan kelib chiqqan holda adresatlarga murojaat qiladi va buni *xodimlar murojaati, boshliqlar murojaati*, shuningdek, *prezident murojaati, vazirlar murojaati, tele yoki radioshou(vo)men murojaati* kabi tiplarga ajratish mumkinligi haqida ham qiziqarli ma’lumotlar aytib o‘tilgan.

Ikkinchi faslga “Murojaat vositalarining ichki guruhlanishi” deb nom berilgan bo‘lib, ushbu faslda ham bir qancha yaxshi ma’lumotlar bor. Murojaat vositalari toifaviy jihatdan tahlil qilganda, bir-biriga teng darajadagi kommunikantlar orasidagi munosabat va teng bo‘lmagan kommunikantlar munosabati tarzida ajratish mumkinligi, bu Sh.Iskandarovanning tadqiqotida simmetrik va assimetrik munosabat deb qayd etilganligi,³¹ bunda, simmetrik muomalada mavqeyi jihatdan kommunikantlarning ikkisi ham bir xil o‘rin tutsa, assimetrik muomalada esa kommunikantlarning biri boshqaruvchi bo‘lishi misollar orqali ifodalangan.

III BOB. TOTEMIK MUROJAATLAR VA ULARNING BADIY ADABIYOTLARDA BERILISHI

3.1. Usmon Azim ijodida qo‘llanilgan totemik murojaatlar

Usmon Azim ijodini kuzatar ekanmiz, ijodkorning barcha mavzuda o‘ziga xos fikri, dunyoqarashi bor ekanligini ko‘ramiz. Uning faqat o‘zigagina xos

³¹ Iskandarova Sh. O‘zbek nutq odatining muloqot shakllari: fil.fan.nomz.diss. avt.ref. –Toshkent, 1993, 19–bet.

bo'lgan shunday bo'yoqlar borki, undan anglashilgan ma'no faqat Usmon Azimga tegishli o'ziga xoslik kasb etadi. Tabiatda mavjud jamiki jonzotlarni yaratguvchisi Allohga murojaat adib ijodida ham alohida o'rin tutadigan mavzulardan biridir. Chunki ruhiyat va ichki kechinmalar haqida yozilgan asarlarda inson qalbining tubidagi orzu, istak, najot, umid qilish Allohga qaratilgan bo'ladi. Usmon Azim ijodida esa ichki kechinmalarning ruhiyatga bog'liq holda ifoda etilishi asosiy planda turadi. Shoirning bir she'rida shunday misralarni uchratishimiz mumkin:

Bu tuning juda dahshat –
uxlasa mangu qoladiganday bu chog' .
... Bergan madadingga, *xudoyim*, rahmat –
Hech bo'lmasa itlaring uyg'oq.

(“Yurak”210-bet)

Ushbu she'rni tahlil qilar ekanmiz bunda Allohga murojaat qilish vaziyatida iltimos ma'nosi ham namoyon bo'ladi. Ya'ni “mavjud vaziyatni yolg'iz hal qiluvchisi sensan, barchasiga o'zing hakamlik qilgin” degan ilinj mavjud. Xudoyim so'zidagi -im egalik, tegishlilikni ko'rsatuvchi qo'shimchanning ishlatilishi ham xudoni o'ziga yaqin olish, unga yolvorish kabi mazmunni ham ifodalaydi. Bunda birinchi ko'rinish, Allohga “xudo” so'zi vositasida murojaat qilinmoqda. Adibning yana boshqa bir she'rida:

Yo, Alloh,
Yaqinmi oxirat ro'zi?
Mitti yuragi yorilguday bu dam:
jismi charchadimi –
nima bo'lyapti o'zi?
tuproqqa qaytgisi kelyaptimi, *egam*.

(“Yurak” 211-bet)

Mazkur she'rda esa “*Alloh*”, “*egam*” so'zlari vositasida Allohga murojaat etilmoqda. Mazmunga e'tibor qaratadigan bo'lsak, so'rash, hayron qolish

ottenklari sezilib turibdi. Qush bilan ifodalanayotgan ma'no esa, faqatgina bu beozor jonivorgagina emas, insonga ham tegishli ekanligini tushunish mumkin. Shuni aytib o'tish kerakki, Usmon Azim ijodida obrazlar masalasiga kuchli e'tibor qaratiladi. Misol uchun, jonivorlarni inson o'rnida tavsiflash, yil fasllarini insonning umriga mengzash, kun va tunni yaxshi va yomon insonlarga qiyoslash shular jumlasidandir. Yana murojaat vositalariga qaytsak. Shoir ijodidan o'rin olgan quyidagi she'rda Allohga murojaat qilish uchun ishlatiladigan "tangri" so'zi vositasidan foydalanilgan:

Tangrim! Bahoringning husni ziyoda,
Termulsam, ko'karar tanimda g'ayrat!
Oqibat ne qolar mendan dunyoda? -
Sening ijodingdan nurlangan hayrat...

(“ Yurak” 84-bet)

Navbatda keltirmoqchi bo'lgan she'rimiz ham Usmon Azim ijodiga mansub bo'lib, Allohga murojaat qilish uchun qo'llaniladigan yana bir vosita ishtirok etgan:

O, sen haqda o'ylarim nafas
kabi har on jondir jonimga.
Sensiz qolgan bu jahonimda qanotsizlik bilan tushim bahs...
Parvardigor, sudralib emas,
uchib borgim kelar yoningga.

(“ Yurak” 185-bet)

Tilimizda yana shunday so'zlar mavjudki, ular ham Allohga murojaat qilishda qo'llaniladi. Bu so'zlar kundalik so'zlashuv tilimizda ko'pam ishlatilavermasligi mumkin, ammo uchraydi. Mumtoz va badiiy adabiyotimizda esa ko'plab uchratishimiz mumkin. Bunday so'zlar sirasiga "rab" so'zini ham misol qilib kiritishimiz mumkin. Ushbu so'z vositasida Allohga murojaat qilish qilish ham Usmon Azim ijodida uchraydi. Quyidagi she'r bunga misoldir:

Halovat qolmadi jonimda... *Yo rab!*
Qaysi cheksizlikning bo'vuri dudli,
Qaysi yo'qsizlikning ko'ziga qarab,
Qaqshadi qaysi bir borliq hududi?

(“ Yurak” 175-bet)

Shular qatorida yaratgan egam, egam, yaratgan so'zlari ham Allohga murojaat qilish vositasi sanaladi. Bu so'zlar ham rang-barang vositalar qatorida shoir ijodida mahorat bilan qo'llangan. Bugungi kunda tilimizda keng qo'llaniladigan so'z hisoblanadi. Quyida keltirmoqchi bo'lgan she'rimiz ham shoir qalamiga mansub bo'lib, unda yuqorida sanab o'tgan vositalardan biri ishtirokida Allohga murojaat qilingan:

Bepoyonlik – aksullik –
Boshlandi manfiy olam...
Dil uyg'ondi. Afsuni
Buncha oromli, *Egam?*
Tangrim, mehringni haddi –
Shafoating tengsizdir:
Seni tanimoq dardi
Bu dunyongdan cheksizdir.

(“ Yurak” 163-bet)

Biz shoir Usmon Azimning ba'zi bir she'rlarigagina to'xtaldik xolos. Vaholangki, dunyoning yaratguvchisiga murojaat qilish uchun shoir ijodida yana ko'plab vositalar mavjud. Masalaning bu tomoniga kognitiv yondashib, Allohga murojaatning psixolingvistik, lingvomadaniy, sotsiolingvistik va etnolingvistik jihatlarini tahlil qilishimiz mumkin. Ammo bunday yondashuvlar boshqa katta tadqiqotlarning o'rganish ob'ekti bo'lishini inobatga olib bu borada to'xtalmadik.

3.2. Mumtoz adabiyotimizda qo‘llanilgan diniy murojaat vositalari (Alisher Navoiy ijodi misolida)

Mumtoz adabiyotimizda yaratilgan har bir asarda xoh u nasriy, xoh u nazmiy asar bo‘lsin, albatta, ularda an‘anaviy muqaddimotlar mavjud bo‘ladi. An‘anaviy muqaddimotlarda, odatda, Alloh madhi va Payg‘ambar na‘ti kelishi qat‘iy belgilangan bo‘lib, goho Alloh madhi (hamdu sano) Basmala bilan almatirilishi ham mumkin. Goho esa basmala va uning izidan hamd ham keltirilishi mumkin, shuningdek, ularning izidan Allohga qaratilgan Munojot beriladi. Demak, Basmala, Hamd, Munojotdan so‘ng Na‘t keladi, ba‘zan Na‘t izidan Me‘roj bayoni yoki Me‘rojnoma kelishi hodisasi uchraydi, yuqoridagilarga qat‘iy amal qilinadi. Basmala – basmila – bismila – bismilloh (boshlanma, bismilloh-ir rahmon-ir rahim). Masalan, Yusuf Balasog‘uniyning “Qutadg‘u bilig”, Adib Ahmadning “Hibat ul-haqoyiq” va Alisher Navoiyning “Hayrat ul-abror” asarlari basmila bilan ibtido topadi. Hamd (Alloh taolo madhi, hamdu sano va tavhid ham deyiladi), Tavhid (Alloh yagonaligiga iymon), Munojot (Allohdan zorlanib najot so‘rash), Na‘t (na‘tu duo ham deyiladi) – Payg‘ambar Muhammad s.a.v. vasfi, Me‘rojnoma (Muhammad s.a.v.ning Makkadan Quddusga borishi, Quddusdan ko‘kka ravona bo‘lishi, u yerda Alloh ila muloqoti bayoni). Na‘tda goho choriyorlar ham madh etiladi, “Qutadg‘u bilig”, “Hibat ul-haqoyiq”, “Lison ut-tayr” asarlarida xuddi shu holat kuzatiladi.

Navoiy o‘ziga murojaat yo‘sinidan istifoda etib, yo‘lning uzoq-yaqinligidan g‘am yemaslik, balki dadil qadam tashlashni maslahat ko‘rmoqda. Bu murojaatlar zamirida birlik ikkinchi shaxs (sen) ga iltijo etilmoqda, iltijo emas, to‘g‘rirog‘i nasihat qilinmoqda, sen va sendan muddao umumga murojaat ekanini ham unutmazlik lozim. Baytdagi “ey” undov so‘zi murojaatni kuchaytirishga, unga emotsional-ekspressiv ottenka berishga xizmat qilmoqda va baytning ta‘sir kuchini kuchaytirmoqda.

Dostondagi an'anaviy muqaddimotlardan ikkinchisi hamd bo'lib, u quyidagi baytlar bilan boshlanadi:

Hamd anga kim vojibi bizzot erur,
Homid aning zotig'a zarrot erur (H.A.–B.15.).

Hamd anga, hamdu sano unga, maqto'v o'shanga bo'lsin, jami olqishlar unga bag'ishlansa, bu ish to'g'ri bo'ladi, qolaversa, eng to'g'ri, ravon yo'l ekani shudir! Bu o'rinda anga – o'shanga deyish bilan birlikdagi uchinchi shaxs U nazarda tutilmoqda va butun murojaat uning o'ziga, faqat uning o'zigagina qaratilmoqda. Hamddagi boshqa murojaat vositalari va shakllarini topishga qiynaldik, to'g'risi topa olmadik, hisob, bu esa ishimizni ma'lum ma'noda boshi berk ko'chaga solib qo'yishi tabiiydek tuyulishi muqarrar. Lekin dostonning keyingi an'anaviy muqaddimotlari mavjud o'rinlaridan ozmi-ko'pmi murojaat vositalarini topishga muyassar bo'ldik, chunonchi, birinchi munojotning boshlanishiga e'tibor qiling:

Ey sanga mabda'da abaddek azal,
Zoti qadiming abadiy lam'yazal (H.A.–B.19.).

Tag'in ma'noni kuchaytirish niyatida ey undov so'zidan foydalanilmoqda, shuningdek, sanga – senga deyilib, bari murojaat ikkinchi shaxs birlikka qaratilganiga ishora qilinmoqda. Aslida san – sen ikkinchi shaxsga qaratilganmi yoki shu san – sen ham undov so'z emasmikin degan fikr bizni o'ylatib qo'ydi, bu nechog'lik to'g'ri yoki noto'g'ri buni o'ylab ko'rish joiz.

Dostondagi ikkinchi munojot boshlanmasida ham yuqoridagiga monand holat seziladi:

Ey bori mavjudg'a sendin vujud,
Balki vujud ahlig'a fayyozi jud (H.A.–B.22.).

Bayt tarkibidagi ey undov so'zi bilan sendin – sendan, sen tufayli, sen orqali, sening vositang natijasida insonga vujud berilgan deyilmoqda, bu bilan aslida Alloh nazarda tutilmoqda. Ammo asosiy xitob, umumiy holda jami kitobxonlarga – o'quvchilarga murojaat etilmoqda va ularga bu hodisa qat'iy uqtirilmoqda. Demak, Navoiy bu o'rinda apellyativ – xitob, murojaat qilish orqali o'z muddaosini o'quvchiga yetkazishga erishmoqda ekan, ammo boshqa bir tomondan

qarasangiz, bu o‘rinda nominativ holat kuchlidek tuyuladi. Boisi Navoiy, avvalo, aytiluvchi fikr, yoki deydik fikr qaratiladigan sub’ektni, aftidan, atamoqda, ya’ni nomlamoqda, shu yo‘l bilan fikrga urg‘u bermoqda! Yoki shu ikkinchi munojotning tugallanma baytlariga e’tibor qiling:

Ul nafas imon manga hamroh qil,

Ko‘nglum aro mahvi sivalloh qil.

Rahmati omingni nisor et manga,

Lutfi amiyning manga, yor et manga (H.A.–B.25.).

Bunda nominativ vazifali holatdan ko‘ra apellyativ vazifali holati ustunroq seziladi, sababi apellyativ vazifada so‘zlovchi (adresant) o‘z tinglovchisi (adresat) ning diqqatini tortish uchun murojaat birligidan foydalanadi. Ko‘rinadiki, Alisher Navoiy barcha murojaat shakllaridan foydanishga harakat qilgan va murojaat birliklarining nominativ, apellyativ, kommunikativ, konnotativ, emotiv singari vazifalaridan keng istifoda etgan ekan. Chunki yuqoridagi misol keltirilgan baytlarda kesim vazifasini bajaruvchi qil (qilmoq) va et (etmoq) fe’llari yordamida senga – birlik ikkinchi shaxsga murojaat etilmoqda. Zotan baytlardagi sen – ega yashiringan bo‘lib, ularni – egalarni topish kesim orqali amalga oshiriladi, anglashiladiki, baytda undalmalar ustuvor maqomga ega. Bilamizki, gapda undalmalar mavjud bo‘lgach yoki undalmalar ustuvor maqomga ega bo‘lsa, tabiiyki, gapda eganing tushib qolish hodisasi ro‘y beradi va egani topishga bizga odatan kesim ko‘maklashadi.

Endi uchinchi munojotning boshlanmasiga e’tibor qarataylik:

Ey qilibon qadr ila lutfung shior,

Borni yo‘q aylamaku yo‘qni bor.

Yo‘q edilar har neki – bor aylading,

Fahmu xirad borig‘a yor aylading (H.A. –B.25.).

Bayt mazmuniga diqqat bilan sinchkov nazar tashlasak, tag‘in yuqoridagi holatga o‘xshash hodisa ro‘y berayotganiga ishonch hosil qilasiz. Birinchi baytda murojaat ey undov so‘zi vositasida amalga oshirilib, xuddi shu undov so‘zi masalaga oydinlik kiritmoqda. Boisi ana shu ey undov so‘zi zamirida birlikda

ikkinchi shaxs – sen borligi, ya’ni mavjudligi shundoq qiyinchiliksiz sezilib turibdi. Darhaqiqat ey undov so‘zi hech qanday vosita birligisiz birlik va ko‘plikda ikkinchi shaxs olmoshlariga ishora qiladi, ya’ni ey sen yoki ey siz tarzida! To‘g‘ri qilibon va aylamak fe’llari bevosita sen – senga murojaatni oydinlashtirmoqda, bu bor va mavjud hodisa, bu fe’llarga emotsional ekspressiv ottenkani baribir ey undov so‘zi bajarmoqda!

“Hayrat ul-abror”ning to‘rtinchi munojoti ham shu xildagi bayt bilan boshlanadi:

Ey karaming oldida ko‘hi gunoh,

Yelga uchub o‘ylaki bir parra koh (H.A. –B.29.).

Bu yerda ham eyning o‘zi, ya’ni undov so‘z ayni bir paytning o‘zida sen – senga va Alloh taologa, Xudoga, Rabga, Tangriga murojaatni ifodalamoqda, to‘g‘rirog‘i, uning zamirida Sen Alloh – Alloh Sen yashirin! Alisher Navoiy she’riyatida bo‘lganidek, ulug‘ shoirning dostonlarida ham undalmalarning katta guruhini lirik qahramon Navoiy tashkil etadi, buning uchun esa sintaktik sharoit ham bor. Masalan, “Farhod va Shirin” dostonidagi bir baytga e’tibor qiling:

Navoiy sayr etib so‘z bo‘stonin,

Raqamzad qildi chun bir dostonin (F.Sh. –B.477.).

Anglashiladiki, Navoiy so‘zi yoki taxallusi undalma bo‘lib kelgan misralarda ikkinchi shaxsli deskripsiya ishtirok etadi, lekin murojaat, iltijo kabi undalmaga xos semantika ko‘rinmaydi. Bu esa lirik qahramon pozitsiyasida kelgan, ya’ni Navoiy so‘zi bilan ifodalangan undalma (boshqa shoirlar ham nazarda tutiladi) o‘zgacha xususiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi, ya’ni lirik qahramonga shoirning murojaatini ramziy murojaat deb baholash lozim bo‘lib qoladi. Bu esa mumtoz she’riyatda undalmalarni yana ikki guruhga ajratishga asos bo‘ladi, ya’ni:

1.Real murojaat (iltijo) ifodalovchi undalmalar.

2.Ramziy murojaatni ifodalovchi undalmalar.

Xullas, undalmalar murojaatdan ko‘ra ko‘pincha iltijo mazmuniga ega bo‘ladi va ular bayt mazmunida ikkinchi shaxs reallashgan ifodaning kelishini taqozo etadi yoki ikkinchi shaxsli nutqiy birlik (gap) implitsit bo‘ladi. To‘g‘rirog‘i,

ya'ni uning o'rni nutq situatsiyasidan fahm etiladi, lekin ayrim undalmalar qo'llangan baytlarda bu sintaktik holatni kuzatib bo'lmaydi. Jumladan, "Layli va Majnun" dostonidagi ayrim baytlarga e'tibor qarataylik (bu hodisa "Xamsa"dagi boshqa dostonlar uchun ham xos):

Alloh, Alloh, bu ne so'z o'lg'ay,

Ul qavmg'a Tengri uzr qo'lg'ay (L.M. –B.146.).

Yuqoridagi baytda Alloh, Alloh so'zlarining undalimalik pozitsiyasi kuchsizlangan, unda iltijo ma'nosi bor, lekin bayt strukturasi ikkinchi shaxsli iboraning o'rni yo'q. Bu esa mavjud pozitsiya Alloh, Alloh so'zlarini kirish so'z deb tushunish imkoniyatini ham beradi. Alisher Navoiy dostonlarida undalmalardan radif (qofiyadan keyin takrorlanuvchi so'z tizimi) yaratishda ham foydalanilgan, chunonchi:

Ko'nglum g'am ila to'q ayla, yo Rab!

Ishq ichra meni yo'q ayla, yo Rab! (L.M.–B.146.).

Bu o'rinda *yo Rab* undalmasi shu baytning, hatto "Layli va Majnun" dostoni tarkibidagi shu bobning mazmun yo'nalishini belgilashda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

"Layli va Majnun" dostoni basmala bilan ibtido topadi va bu basmalada, asosan, ey undov so'zi yetakchi g'oyani tashishda katta xizmat qiladi, umuman, murojaatning yukini ko'taradi. Masalan:

Ey yaxshi oting bila sarog'oz,

Anjomig'a kim yetar har og'oz (L.M.–B.7.).

Yoki yana:

Ey o'rtab ul o'tqa xonumonlar,

Ne xonu ne mon ki, jismu jonlar.

Ey kimni ki aylabon parivash,

Majnun anga yuz asiri g'amkash (L.M.–B.7.).

Ana shu o'rinda bir fikr, undalmalar tarkibida –ki / kim yuklamasining qo'llanishi bir oz mulohaza yuritishni talab qiladi. Ma'lumki, Alisher Navoiyning nasriy asarlarida -ki/kim yuklamasining sintaktik vaziyatni yaratishda o'rni borligi

isbotlangan¹. Biroq uning undalma tarkibida qo‘llanish imkoniyati va semantikasi masalasida so‘z aytish zaruriyati bor, ushbu yuklama mustaqil so‘zlar, undovlar va deskripsiyalarga “qo‘shilib” kela olgan. Yana bir gap -ki / kim yuklamasining undalma bilan qo‘shib yozilishi hozirgi o‘zbek tili qoidasi nuqtai nazaridan me‘yoriy hodisa, ammo tilimiz tarixi uchun uni to‘g‘ri deb bo‘lmaydi. Aslida bu yuklamalar undalmaga bevosita tegishli emas, balki sintagmatik jihatdan keyingi jumalarga tegishlidir, ya’ni undalmadan so‘ng iboralarning davom etishini, uning ta’kidlanishini taqozo qiladi. Aslida undalma uchun qo‘shimcha ta’kidlashga hojat yo‘q, chunki undalma tabiatan ta’kid, kuchaytirish ottenkasiga ega bo‘ladi. Demak, mumtoz asarlarni, shu jumladan, Alisher Navoiy asarlarini transliteratsiya qilishda uning o‘ziga xosligini hisobga olib, fors va tojik tillaridagi singari ki yuklamasini keyingi ibora boshida ayri holda yozish maqsadga muvofiqdir.

Eslatilgani kabi Alisher Navoiy “Layli va Majnun” dostonining ilk bobi Alloh madhiga bag‘ishlangan, shoir davrining buyuk so‘z ustasi va faylasuf olimi sifatida olamning yaratilishi, tun, kun, oy, quyosh, yulduzlarning, bahor, yoz, kuz, qish fasllari, ulardagi tabiatning o‘ziga xos jilolari, insonning tabiat qo‘ynida yaratilishi, yo‘qdan bor, bordan yo‘q bo‘lishi – bular bari Allohning beqiyos qudrati va ulug‘ligining ifodasi ekanini ta’kidlab, Allohga hamdu sano o‘qiydi. Alloh o‘zining tajallisi (jilvasi) bilan hammaning diliga zavq bag‘ishlaydi, shoir yaratuvchining “har soridagi tajallisi jahonda Layli bo‘lib ko‘rinadi, jilva qiladi, uning bu xususiyati esa yaratilganlarni Majnun qilmoqdir”, – deb yozadi:

Ey har sori kim, qilib tajalli,

Ul mazhar o‘lub jahonda Layli.

Ey oni ki Layli aylab otin,

Majnun qilmoq qilib sifotin (L.M.–B.8.).

Alisher Navoiy o‘z davrining mukammal bilimli farzandi, uni iloh ilmidan chetlab tasavvur qilish mumkin emas, albatta. Hozirgi yangicha fikrlash jarayonida shoir asarlarini uning ilohga, tasavvufga oid qarashlari bilan bog‘liq holda o‘rganishga e’tibor berilmoqda. Jumladan, “Layli va Majnun” dostoni sof ilohiy sevgi asari sifatida tahlil etiladi¹. Vaholanki, Alisher Navoiyning buyukligi va

mutafakkirligi shundaki, “Layli va Majnun”da tasavvufga oid talqinlar bo‘lsa-da, voqealar zamirida kishi qalbini larzaga soluvchi fojiviy-majoziy ishq qismati, ijtimoiy adolatsizlik tasviri shu qadar hayotiy tasvirlanadiki, bundan shoirning o‘zi ham qattiq iztirobga tushadi. “Layli va Majnun” dostoni dunyoviy adabiyotning eng go‘zal namunalaridan biri sanaladi, Alisher Navoiy dostonining xotima bobidagi ushbu baytni alohida ta’kidlashni istardik:

So‘gin necha kim uzottim oxir,

Yig‘lay-yig‘lay tugottim oxir (L.M.–B.307.).

Doston quyidagi bayt ila xotimasiga yetadi:

Isyonima afv bo‘lg‘ay omin,

Yo Rab ki, bu nav’ bo‘lg‘ay omin (L.M.–B.313.).

Darhaqiqat, badiiy asar tili estetik zavq-shavq baxsh etuvchi til. Shunga ko‘ra badiiy nutq estetik ma’no ramzi hamdir. Bu borada akademik V.Vinogradov badiiy til san’at turi ekanligi bilan ham qadrlidir, unga badiiy tus berish, badiiy asarni san’at turi sifatida hamda obrazli xarakter hosil qiluvchi vosita yoki o‘zining ramziy ma’nosiga ega bo‘lgan ijtimoiy ong tushunchasi sifatida ham qarash lozim, - deb bejiz ta’kidlamagan bo‘lsa kerak.

Zero, badiiy asar tili san’at namunasi sifatida har bir ijod ahlining asarlarida mavjud bo‘lib, bu xususiyat badiiy tilning xarakterli tomonlarini ifoda etadi.

BOB BO‘YICHA XULOSA

Magistrlik dissertatsiya ishimizning uchinchi bobi ikki fasldan iborat bo‘lib, uning birinchi faslida Murojaat vositalari insonlar munosabatlarining “bismillosi”, nutqimizning faol komponenti bo‘lganligi uchun, kishilarning falsafiy, etik-estetik qarashlarini o‘zida aks ettiradi va har bir davrning nutqiy talabiga, ruhiyatiga moslashib boradi. Natijada har bir davrning har bir jamiyat, millat, ijtimoiy sinf

a'zolari yoki kambag'al, dindor, dahriy, ulamo, shayx kabilar nutqiga xos murojaat vositalari shakllangan¹. Shunga ko'ra tilda murojaat vositalari muhim ahamiyatga ega.

Jamiyat kundan-kunga rivojlanayotgan bir paytda tilimiz, undagi birliklar ham o'zgarib bormoqda. Xususan, murojaat shakllari ham yangilanib, zamonga moslashib bormoqda. Bu hodisa badiiy adabiyotimizda ham namoyon bo'lmoqda. Bugungi o'zbek she'riyatining zabardast vakili, O'zbekiston Xalq shoiri Usmon Azim she'riyatini ortiqcha ta'rifu tavsif qilishning hojati yo'q.

Mumtoz badiiy asarlarning an'anaviy muqaddimotlardagi Allohga murojaat shakllari tekshirildi. Bunda Alloh madhi (hamdu sano) tahlilga jalb etilib, uning xos xususiyatlari ma'lum miqdorda nazardan o'tkazildi, taalluqli xulosalar chiqarildi. "Xamsa"dagi "Hayrat ul-abror" , "Farhod va Shirin", "Layli va Majnun" dostonlari basmala ila boshlanadi, basmalalar izidan hamd keladi. Yuqoridagi dostonlarda basmala va hamddan so'ng munojot (Allohdan najot so'rash) lar keladi, "Sab' ai sayyor" va "Saddi Iskandariy" dostonlarida esa basmala (u hamd ham bo'lishi mumkin) dan keyin birdan munojotlar beriladi. Birgina "Hayrat ul-abror" dostonining o'zida to'rt munojot mavjud, qolgan to'rt dostonda atigi bittadan munojot beriladi. Bularning barchasi Alloh madhi va Allohdan najot so'rash yo'nalishi ustuvor maqomga egaligi bilan alohida, maxsus ajralib turadi. Allohga atalgan basmala va hamdu sanolarga e'tibor qaratsak, ularda Alloh madhi orqali ijtimoiy tuzum, shu tuzumda inson omili, adolat va qanoat muammolari qamrab olinishiga guvoh bo'lamiz.

XULOSA

Tilning asosiy funksiyasi ham, bundan tashqari qator vazifalari ham u yoki bu darajada, albatta, murojaat bilan bog'lanadi. Masalan, apellyativ vazifa – chaqiruv bevosita murojaat bilan aloqadordir. Chaqiruv tinglovchiga qaratilgan bo'ladi va bu orqali u nutqni eshitish hamda qabul qilishga chaqiriladi. Aloqa o'rnatish (kontaktoustanovlivayushaya) funksiyasi zaminida

ham murojaat bilan bog‘liq tushunchalar yotadi: bu vazifa tinglovchini xabar – ma’lumotni qabul qilishga tayyorlash, uning e’tiborini tortish orqali bajariladi. Umuman tilning barcha vazifalari – kommunikativ, emotiv, volyuntativ, aloqa o‘rnatish – sotsiativ, reprezentativ funksiyalari so‘zlovchi va tinglovchi orasidagi turli tuman munosabatlarni ifodalaydi. Chunki til har doim fikr uzatish (bu so‘zlovchi uchun) hamda fikr qabul qilish, anglash (bu tinglovchi uchun) vositasi bo‘lib kelgan.

Murojaatning mazmunan har xil shakllanishi – quvonch, qo‘rqinch, gina, iltifot, nafrat kabi ma’no ottenkalari qo‘shilgan holda ifodalanishi – eng avvalo ijtimoiy muhit va sharoitdan kelib chiqadigan munosabatga bog‘liq. Til esa ana shu munosabatni qanday bo‘lsa o‘shanday, asliga mos holda ro‘yobga chiqishi uchun vosita bo‘ladi.

Tilning turli tomondan har xilcha o‘rganilishi tilning takomiliga yuqori darajada o‘z hissasini qo‘shadi. Shu ma’noda Z. Akbarovanning tasnifi va ko‘rsatilgan turlardan kelib chiqib, insonga murojaat shakllarining tasnifi ham mazkur bobda keltirilgan.

Bulardan tashqari birinchi bobda murojaat va undalma terminlari haqida alohida to‘xtalinib, ularning farqli va o‘xshash tomonlari haqida ilmiy ma’lumotlar berilgan va fikrlar bildirilgan.

Xullas, murojaat shakllari insonlar o‘rtasidagi ijtimoiy munosabatni, yosh darajasini ifodalaydi. Murojaat shakli sifatida qo‘llangan so‘z va so‘zlar qo‘shilmasida ma’lum bir davr ijtimoiy mazmuni ham aks etadi. Ular orqali biz nutq qaratilgan obyekt haqida ma’lumotlar olamiz. Ayniqsa, so‘zlovchining unga bo‘lgan subyektiv munosabati bahosini bilishimiz mumkin.

Shuningdek, *Rasmiy murojaatlar* - davlat va jamoat rahbarlarining o‘zaro rasmiy uchrashuvlardagi suhbatlarida, yig‘inlarida, yozishmalarida, tashkilot, idora, ofislarda rahbar va ishchi xodimlar o‘rtasidagi muloqot jarayonida, ko‘pgina rasmiy hujjatlarda, shuningdek, notanish kishilar o‘rtasidagi muloqotning boshlanish jarayonida turli emotsiyalardan (faqat hurmat ma’nosidan tashqari) holi ravishda qo‘llaniladigan murojaat shakllaridir. Shuningdek, rasmiy murojaatlarni

subyektiv jihatdan tasnifi keltirilgan, subyektiv jihatdan murojaatlarni o'rganish shartliligi, chunki murojaatlar II shaxsga qaratilib, uning xususiyatlari (ismi, yashash joyi, mansabi, unvoni, kasbi va boshqalar)ga nisbatan murojaat qilinishi tabiiy ekanligi haqida fikrlar bor. Ammo turli yig'inlarda, majlislarda, nutq so'zlovchi, adresant o'zining kasb-kori, mansab-unvonidan kelib chiqqan holda adresatlarga murojaat qiladi va buni *xodimlar murojaati*, *boshliqlar murojaati*, shuningdek, *prezident murojaati*, *vazirlar murojaati*, *tele yoki radioshow(vo)men murojaati* kabi tiplarga ajratish mumkinligi haqida ham qiziqarli ma'lumotlar aytib o'tilgan.

Murojaat vositalarini toifaviy jihatdan tahlil qilganda, bir-biriga teng darajadagi kommunikantlar orasidagi munosabat va teng bo'lmagan kommunikantlar munosabati tarzida ajratish mumkinligi, bu Sh.Iskandarovaning tadqiqotida simmetrik va assimmetrik munosabat deb qayd etilganligi,³² bunda, simmetrik muomalada mavqeyi jihatdan kommunikantlarning ikkisi ham bir xil o'rin tutsa, assimmetrik muomalada esa kommunikantlarning biri boshqaruvchi bo'lishi misollar orqali ifodalangan. Bu holat rasmiy murojaatlarni yuzaga chiqaruvchi asosiy omillardan biri hisoblanishi ta'kidlangan.

³² Iskandarova Sh. O'zbek nutq odatining muloqot shakllari: fil.fan.nomz.diss. avt.ref. –Toshkent, 1993, 19–bet.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

Normativ-huquqiy hujjatlar

- 1.** Mirziyoev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasini 2017-2021 yillarda rivojlanishning beshta ustuvor vazifalari bo‘yicha “Harakatlar strategiyasi” .-T.: O‘zbekiston 2017 yil
- 2.** Mirziyoev Sh. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. “O‘zbekiston”, T:, 2017., 189-b
- 3.** Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon demokratik O‘zbekiston Davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent, “O‘zbekiston”, 2016y. 13-14-b
O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2018.
- 4.** Mirziyoyev Sh. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017.
- 5.** Mirziyoyev Sh. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta‘minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017.
- 6.** O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining —Oliy ta‘lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlaril to‘g‘risidagi qarori. Xalq so‘zi, 2017-yil, 21-aprel.
- 7.** Ona tili fanidan Davlat ta‘lim standarti: Uzviylashtirilgan Davlat ta‘lim standartlari va o‘quv dasturlari. – Toshkent, RTM, 2010. – B. 10-19.
- 8.** Kompetensiyaga yo‘naltirilgan Davlat ta‘lim standarti va o‘quv dasturi: Ona tili, adabiyot, o‘zbek tili (5-9 sinflar). – Toshkent. 2016.
- 9.** O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining —O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risidagi 2017- yil 7-fevraldagi farmoni.
- 10.** O‘zbekiston Respublikasining «Davlat tili haqida»gi Qonuni //O‘zbekistonning yangi Qonunlari: To‘plam. –T., 1996. – B. 20-30.

11. O‘zbekiston Respublikasining «Ta‘lim to‘g‘risida»gi Qonuni // Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiëtining poydevori.– T.: SHarq, 1998. – B. 20-29.
12. Mirziyoev SH.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: O‘zbekiston, 2016. – 56 b. 32.
13. O‘zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi asoslari to‘g‘risidagi qonun // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1991 y., 11-son, 246-modda.
14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 17 fevraldagi “Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori
15. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil uchun mo‘ljallangan eng muhim ustuvor vazifalar haqidagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2018 yil 28-dekabr.
16. Prezident SHavkat Mirziyoevning “Sharq taronalari” XI xalqaro musiqa festivalining ochilishiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi tabrik so‘zi // Samarqand, - № 71 (2114), 2017 yil, 30 avgust, B.1.

Ilmiy-nazariy adabiyotlar

1. N.Ahmedova O‘zbek tilida murojaat birliklarining semantik-konnotativ tadqiqi: filol. fanlari nomz. ... diss. –Toshkent, 2008.
2. Z.Akbarova O‘zbek tilida murojaat shakllari va uning lisoniy tadqiqi: filol. fanlari nomz. ... diss. –Toshkent, 2007.
3. Axmanova O.S. Lingvistik atamalar lug‘ati. M., 1966; 2-nashr. M. 1969 y
4. Abdurahmonov G‘., Shukurov Sh. O‘zbek tilining tarixiy grammatikasi. - T., 1973.
5. Abdurahmonov G‘., Rustamov A. Qadimgi turkiy til. -T., 1982. - 168 b.
6. Alisher Navoiy. Xamsa. 1958. 244

7. Alisher Navoiy. Muhokamat ul lug‘atayn. Asarlar. 15 tomlik. 14-tom. - T.,
8. Begmatov E. Adabiy norma va nutq madaniyati. –Toshkent: Fan, 1983.
9. Boboyeva A. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida to‘liqsiz gaplar: filol. fanlari nomzodi... diss... – Toshkent, 1968.
10. Begmatov E., Babaeva A., Asomidsinova M. Adabiy norma va nutq madaniyati. - T.,: Fan, 1983.
11. Begmatov E. O‘zbek tili leksikasining ijtimoiy-tarixiy asoslari // O‘zbek tili leksikologiyasi. - T.: Fan, 1981. - 41-52-betlar.
12. Begmatov E. Hozirgi o‘zbek adabiy tilining leksik qatlamlari. - T., 1985.
13. Berdiyev A. O‘zbek tili affiksial sinonimiyasining ba’zi xususiyatlari // O‘zbek tili va adabiyoti. - 1974. - 6-son.
14. Berdiyev X., Rasulov R., Yo‘ldoshev B. O‘zbek frazeologiyasidan materiallar. - Samarqand. 1-Sh, 1976, 1978, 1983.
15. Hojiyev A. O‘zbek tili terminlarining izohli lug‘ati. –Toshkent: O‘qituvchi, 2000.
16. Iskandarova Sh. O‘zbek nutq odatining muloqot shakllari: fil.fan.nomz...diss. – Toshkent, 1993.
17. Mahmudov N. Nutq madaniyati va boshqa fanlar. // O‘zbek tili va adabiyoti, 2007 yil, -№ 1. –B 9–14.
18. Mo‘minov S.M. O‘zbek muloqot xulqining ijtimoiy–lisoniy xususiyatlari: filol. fan. dok. ... diss. avtoref. –Toshkent, 2000.
19. Narziyeva M.J. O‘zbek tilida shaxsni yosh jihatidan tavsiflovchi otlarning ma’no tarkibi: filol. fan. nomz... diss. – Buxoro, 1992.
20. Ne‘matov H., Sayfullayeva R., Qurbonova M. O‘zbek tili struktural sintaksisi asoslari. – Toshkent: Universitet, 1999.
21. O‘rinboyev B. O‘zbek so‘zlashuv nutqi sintaksisi masalalari: filol. fan. dok. ... diss. –Toshkent, 1975.
22. O‘rinboyev B. Hozirgi o‘zbek tilida vokativ gaplar kategoriyasi. –Toshkent: Fan, 1972.

23. Nosirov A. Tarixiy haqiqat va uning badiiy talqini (“Yulduzli tunlar” romani misolida): filol.fanlari nomzodi. ... diss. – Toshkent, 1999.
24. Axmanova O. S. Slovar lingvisticeskix terminov. Moskva, «Sovetskaya ensiklopediya», 1969. s. 270.
25. O‘zbek tilining izohli lug‘ati, II jild. – Toshkent “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”, 2006.
26. O‘zbek tilining izohli lug‘ati, II tom. –Moskva, 1981.
27. Islomova Sh. Qipchoq lahjasidagi iboralarning etnosotsiopragmatik xususiyatlari. Magistr. dar. olish. Diss Q.,2013y..

Internet saytlar:

[www. Ziyonet.uz](http://www.Ziyonet.uz)

[www. kh-davron.uz](http://www.kh-davron.uz)

[www. Uza.uz](http://www.Uza.uz)

[www. Scientist.uz](http://www.Scientist.uz)

**Qurbonova Maftuna Ibroyim qizining "O'zbek tilida murojaat vositalarini
ifodalovchi birlar" mavzusida 70230101- Lingvistika (o'zbek tili)
mutaxassisligi bo'yicha magistr akademik darajasini olish uchun taqdim
etgan dissertatsiyasiga**

XULOSA

O'zbek tilidagi lisoniy hodisalarning nutqiy voqelanishini ijtimoiy-lisoniy nuqtayi nazardan, ya'ni so'zlovchi va tinglovchi shaxsi bilan bog'liq ravishda tadqiq qilish bu boradagi muammolar yechimiga daxldorligi bilan xarakterlanadi. Xususan, milliy ma'naviyat va shaxsning madaniy saviyasi hamda etnik xarakterini yaqqol namoyon qiluvchi muloqot jarayonidagi murojaat vosita va shakllarini so'zlovchi tomonidan qay darajada mohirona ishlatish ham tilshunoslik jihatdan, ham nutqiy vaziyat jihatidan nihoyatda dolzarb. Bugungi kunda, muloqot madaniyatini shakllantirishga alohida e'tibor berilayotgan bir sharoitda, muloqot jarayonida foydalanilayotgan murojaat vosita va shakllarini, xususan, rasmiy murojaatlarni adabiy til normalariga to'liq amal qilgani holda uni o'rganish, tekshirish va amaliy hayotga tadbiq etish nihoyatda muhimdir.

Muloqot yoxud kontekstda murojaat qiluvchi va uni qabul qiluvchi shaxs munosabati, nutq sharoiti va nutq vaziyati nuqtayi nazardan rasmiy murojaatlarni o'rganish dolzarb masalalardan hisoblanadi. Shu jihatdan, zamonaviy tilshunoslik nuqtai nazaridan kelib chiqib, tilni har tomonlama o'rganish va u orqali insonlarga manfaat keltirish jihatidan so'zlashuv nutqida juda ahamiyatli bo'lgan murojaatlarni tadqiq etishga katta ehtiyoj sezilmoqda. Ayniqsa, mustaqil davlatimizning istiqloli va istiqboli mustahkamlanib borayotgan hozirgi davrimizda rasmiy murojaatlar yuzasidan tekshirishlar olib borish nafaqat, murojaat vositalarining keng ko'lamda o'rganishini ta'minlaydi, balki rasmiy-idoraviy uslubning imkoniyatlarini yuqori darajada ochib beradi. Umumiy tarzda katta ko'lamda o'rganilmagan murojaat vositalarini, shu jumladan, rasmiy murojaat shakllarini o'rganish tilshunoslik jihatdan nihoyatda ahamiyatli bo'lsa, ushbu tilda muloqot qiluvchi keng xalq-omma uchun ham shu darajada

ahamiyatligi mavzuning o'rganilish dolzarbligiga yana bir yaqqol isboti ekanligini ko'rsatadi.

Mazkur tadqiqot ishi kirish, uch asosiy boob, boblar bo'yicha xuloslar, umumiy xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

Ishning birinchi bobiga **"Murojaat vositalari va ularning tavsifi haqida umumiy ma'lumot"** deb nom berilgan. Bobda alohida ikkita fasl mavjud. Birinchi fasl "O'zbek tilida undalma va murojaat vositalari" mavzusida bo'lib, unda undalma va murojaat vositalarining o'xshash, shuningdek, farqli tomonlari ko'rsatilgan va sotsiolingvistik jihatdan o'rganilayotgan murojaatlar undalmaga nisbatan keng va ko'lamdor ekanligi aytib o'tilgan. Ikkinchi fasl "Murojaat vositalarining ichki guruhlanishi" yuzasidan fikrlar bildirilgan. Shuni aytish kerakki, bitiruv malakaviy ishida Z. Akbarovanning "O'zbek tilida murojaat shakllari va uning lisoniy tadqiqi" nomzodlik dissertatsiyasidan ma'lumotlar keltirilgan bo'lib, bitiruvchi tomonidan shu va boshqa manbalar asosida murojaat vositalari tasnif etilgan. Bob so'nggida xulosa keltirilgan.

Tadqiqotning ikkinchi bobi **"Rasmiy murojaat vositalari va ularning tasniflanishi"** deb nomlangan. Mazkur bob "Rasmiy uslub va unda murojaat vositalarining qo'llanilishi" hamda "Rasmiy murojaatlarning ichki semalariga ko'ra tasnifi" kabi ikki fasldan iborat. Ikkinchi bob uchun alohida xulosa mavjud.

Birinchi faslda rasmiy uslub haqida qisqacha ma'lumotlar aks etgan va ushbu uslubda murojaatlarning qo'llanilishi haqida fikrlar keltirilgan.

Ikkinchi faslga Rasmiy murojaatlarning ichki semalariga ko'ra tasnifi deb nom berilgan bo'lib, ushbu faslda ham bir qancha yaxshi ma'lumotlar bor. **"Rasmiy murojaatlar** - davlat va jamoat rahbarlarining o'zaro rasmiy uchrashuvlardagi suhbatlarida, yig'inlarida, yozishmalarida, tashkilot, idora, ofislarda rahbar va ishchi xodimlar o'rtasidagi muloqot jarayonida, ko'pgina rasmiy hujjatlarda, shuningdek, notanish kishilar o'rtasidagi muloqotning boshlanish jarayonida turli emotsiyalardan (faqat hurmat ma'nosidan tashqari) holi ravishda qo'llaniladigan murojaat shakllaridir" degan fikrlar talabaning o'ziga tegishli bo'lib, bu ishning tayyorlanish jarayonida ko'plab adabiyotlar bilan

tanishib chiqqanligidan dalolat berib turibdi. Shuningdek, rasmiy murojaatlarni subektiv jihatdan tasnifini keltirilgani holda subektiv jihatdan murojaatlarni o'rganish shartliliigi, chunki murojaatlar II shaxsga qaratilib, uning xususiyatlari (ismi, yashash joyi, mansabi, unvoni, kasbi va boshqalar)iga nisbatan murojaat qilinishi tabiiy ekanligi haqida fikrlar bor. Ammo turli yig'inlarda, majlislarda, nutq so'zlovchi, adresant o'zining kasb-kori, mansab-unvonidan kelib chiqqan holda adresatlarga murojaat qiladi va buni *xodimlar murojaati, boshliqlar murojaati*, shuningdek, *prezident murojaati, vazirlar murojaati, tele yoki radioshou(vo)men murojaati* kabi tiplarga ajratish mumkinligi haqida ham qiziqarli ma'lumotlar aytib o'tilgan.

Uchinchi bob "**Totemik murojaatlar va ularning badiiy adabiyotlarda berilishi**" deb nomlangan. Bobda totemik murojaatlar haqida ta'rif va ma'lumotlar keltirilgan bo'lib, Alisher Navoiy va Usmon Azim ijodi orqali tahlillar amalga oshirilgan.

Ishda ayrim uslubiy, grammatik xatolar ko'zga tashlanadi. Havolalarni rasmiylashtirish va adabiyotlar ro'yxatida ko'rsatish bo'yicha ham ba'zi kamchiliklarga yo'l qo'yilgan. Lekin bu kichik kamchiliklar ishning umumiy mazmuniga ta'sir qilmagan. Qurbonova Maftuna Ibroyim qizining "O'zbek tilida murojaat vositalari" mavzusidagi tadqiqot ishi Nizom talablariga javob beradi. Shu sababli mazkur ishni himoyaga tavsiya etish mumkin deb hisoblaymiz.

Ilmiy rahbar:



Kurbanazarova N.

TerDU O'zbek tilshunosligi kafedrasida
dotsenti v.b., f.f.f.d. (PhD)

**O'zbek filologiyasi fakulteti "O'zbek tilshunosligi" kafedrası magistranti
Qurbonova Maftuna Ibroyim qizining "O'zbek tilida murojaat vositalari"
mavzusida 70230101- Lingvistika (o'zbek tili) mutaxassisligi bo'yicha magistr
akademik darajasini olish uchun taqdim etgan dissertatsiyasiga**

TAQRIZ

Tildagi mavjud so'zlarni imkon qadar tahlil jarayoniga tortish bugungi kunda tilshunoslik oldida turgan muhim vazifa sanaladi. Sababi, tilning naqadar boyligi undagi so'zlar miqdori va mazmuni bilan belgilanadi. Ana shunday ilmiy tadqiqotlardan biri Qurbonova Maftuna Ibroyim qizining "O'zbek tilida murojaat vositalari" mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasidir.

Ushbu dissertatsiyaning mazmuni magistrant tomonidan yetarlicha yoritib berilgan bo'lib, tilimizda qo'llaniladigan murojaat vositalariga oid leksik birliklarni tavsifiy va tasnifiy jihatdan yoritishga harakat qilingan.

Tadqiqot kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlardan tashkil topgan. Har bir bob fasllardan tashkil topgan bo'lib, magistrant ularni bayon qilishda adabiyotlardan unumli foydalanishga harakat qilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi o'zbek tilshunosligida til hodisalarining substansial xossalari tadqiqi muvaffaqiyat bilan amalga oshirilib, murojaat shakllari insonlar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatni, yosh darajasini ifodalaydi. Murojaat shakli sifatida qo'llangan so'z va so'zlar qo'shilmasida ma'lum bir davr ijtimoiy mazmuni ham aks etadi. Ular orqali biz nutq qaratilgan obyekt haqida ma'lumotlar olamiz. Ayniqsa, so'zlovchining unga bo'lgan subyektiv munosabati bahosini bilishimiz mumkinligi maxsus tadqiq qilishni dolzarb vazifa sifatida kun tartibiga qo'yadi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobida "Murojaat vositalarining ichki guruhlanishi" deb nom berilgan bo'lib, ushbu faslda ham bir qancha yaxshi ma'lumotlar bor. Murojaat vositalari toifaviy jihatdan tahlil qilganda, bir-biriga teng darajadagi kommunikantlar orasidagi munosabat va teng bo'lmagan kommunikantlar munosabati tarzida ajratish mumkinligi, bu Sh.Iskandarovning tadqiqotida

simmetrik va assimmetrik munosabat deb qayd etilganligi, bunda, simmetrik muomalada mavqeyi jihatdan kommunikantlarning ikkisi ham bir xil o‘rin tutsa, assimmetrik muomalada esa kommunikantlarning biri boshqaruvchi bo‘lishi misollar orqali ifodalangan. Bu holat rasmiy murojaatlarni yuzaga chiqaruvchi asosiy omillardan biri hisoblanishi ta’kidlangan.

Dissertatsiyaning uchinchi bobida esa Usmon Azim ijodida murojaat vositalarining qo‘llanilishiga oid ma’lumotlar keltirib o‘tilgan.

Murojaatning mazmunan har xil shakllanishi – quvonch, qo‘rqinch, gina, iltifot, nafrat kabi ma’no ottenkalari qo‘shilgan holda ifodalanishi, eng avvalo, ijtimoiy muhit va sharoitdan kelib chiqadigan munosabatga bog‘liq. Til esa ana shu munosabatni qanday bo‘lsa o‘shanday, asliga mos holda ro‘yobga chiqishi uchun vosita bo‘ladi.

Qurbonova Maftuna Ibroyim qizining “O‘zbek tilida murojaat vositalari” mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasining ayrim o‘rinlarida juz’iy xatolar kuzatiladi. Shunga qaramay ishda yo‘l qo‘yilgan xatolar ishning umumiy sifatini pasaytirmaydi. Ushbu magistrlik dissertatsiyasini ochiq himoyaga tavsiya etish mumkin.

Taqrizchi:



TerDU O‘zbek tilshunosligi
kafedrasini dotsenti
f.f.f.d. (PhD) Sh.Omonturdiyeva

**O'zbek filologiyasi fakulteti "O'zbek tilshunosligi" kafedrası magistranti
Qurbonova Maftuna Ibroyim qizining "O'zbek tilida murojaat vositalari "
mavzusida 70230101- Lingvistika (o'zbek tili) mutaxassisligi bo'yicha magistr
akademik darajasini olish uchun taqdim etgan dissertatsiyasiga**

TAQRIZ

Hozirgi kunda til tadqiqi borasida amalga oshirilayotgan ishlarning ko'pchiligi tildagi so'zlar tahliliga bag'ishlangan. Ana shunday ilmiy mavzulardan biri Termiz davlar universiteti magistranti Qurbonova Maftuna tomonidan qilingan "O'zbek tilida murojaat vositalari" mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasidir.

Ushbu dissertatsiya uch bobdan iborat bo'lib, har bir bob o'z ichida qator mavzularni qamrab olganligi bilan ahamiyatlidir.

Dissertatsiyaning birinchi bob o'zbek tilshunosligida til hodisalarining substansial xossalari tadqiqi muvaffaqiyat bilan amalga oshirilib, murojaat shakllari insonlar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatni, yosh darajasini ifodalaydi. Murojaat shakli sifatida qo'llangan so'z va so'zlar qo'shilmasida ma'lum bir davr ijtimoiy mazmuni ham aks etadi. Ular orqali biz nutq qaratilgan obyekt haqida ma'lumotlar olamiz. Ayniqsa, so'zlovchining unga bo'lgan subyektiv munosabati bahosini bilishimiz mumkinligi maxsus tadqiq qilishni dolzarb vazifa sifatida kun tartibiga qo'yadi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobida "Murojaat vositalarining ichki guruhlanishi" deb nom berilgan bo'lib, ushbu faslda ham bir qancha yaxshi ma'lumotlar bor. Murojaat vositalari toifaviy jihatdan tahlil qilganda, bir-biriga teng darajadagi kommunikantlar orasidagi munosabat va teng bo'lmagan kommunikantlar munosabati tarzida ajratish mumkinligi, bu Sh.Iskandarovanning tadqiqotida simmetrik va assimetrik munosabat deb qayd etilganligi, bunda, simmetrik muomalada mavqeyi jihatdan kommunikantlarning ikkisi ham bir xil o'rin tutsa, assimetrik muomalada esa kommunikantlarning biri boshqaruvchi bo'lishi misollar orqali ifodalangan. Bu holat rasmiy murojaatlarni yuzaga chiqaruvchi asosiy omillardan biri hisoblanishi ta'kidlangan.

Dissertatsiyaning uchinchi bobida esa Usmon Azim ijodida murojaat vositalarining qo'llanilishiga oid ma'lumotlar keltirib o'tilgan.

Magistrant ilmiy adabiyotlardan hamda internet resurslaridan ushbu dissertatsiyani yoritishda unumli foydalangan.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, Qurbonova Maftuna Ibroyim qizining "O'zbek tilida murojaat vositalari" mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasi to'liq yakunlangan. Ish magistrlik dissertatsiyasiga qo'yiladigan talablarga javob beradi. Ishni Davlat attestatsiya komissiyasi himoyasiga tavsiya etaman.

Taqrizchi:



f.f.f.d (Pfd) N.Yo'ldoshev

"O'zbek adabiyotshunoslik" kafedrası

katta o'qituvchisi

Hujjat tekshirish natijalari



Tekshiruvchi: Shuxrat Allamuratov Hasan (ID: 19167)

Tashkilot:

Hisobot "AntiPlag.Uz" servisi tomonidan taqdim etilgan

HUJJAT TO'G'RISIDAGI MA'LUMOTLAR

Hujjat raqami: 117295
Yuklangan vaqti: 30-05-2023 21:21:00
Dastlabki faylning nomi: Maftuna Qurbonova.doc
Hujjat nomi: Maftuna Qurbonova.doc
Hujjat turi: belgilanmagan
Matndagi belgilar: 129262
Matndagi so'zlar: 15817
Gaplar soni: 1434
Matn o'lchami: 836096 kB

HISOBOT TO'G'RISIDAGI MA'LUMOTLAR

Qidirish oraliqi: ko'rsatilimga
Qidirish modullari: ИПС Адилет qidiruv moduli, Internet plus qidiruv moduli, Переводные заимствования по Интернету (EnRu) qidiruv moduli, BMK dissertatsiyalari qidiruv moduli, Universitetlar halqasi qidiruv moduli, Модуль поиска переводных заимствований qidiruv moduli, Milliy reestr qidiruv moduli, Переводные заимствования по Интернету (UzRu) qidiruv moduli, Tabobat qidiruv moduli, Garant AHT qidiruv moduli, RDK to'plami qidiruv moduli, Shablon iboralar qidiruv moduli, Patentlar qidiruv moduli, Tarjima tekshiruv moduli, Elektron-kutubxona tizimlari qidiruv moduli, Internet plus qidiruv moduli, Tarjima tekshiruv uz-ru qidiruv moduli, Wiley nashriyoti qidiruv moduli, Bibliografiya qidiruv moduli, Rossiya va MDH OAVlari qidiruv moduli, Iqtibos keltirish qidiruv moduli, Iboralarni qayta ishlatish qidiruv moduli, Перефразирование по СПС Гарант: аналитика qidiruv moduli, Переводные заимствования издательства Wiley (RuEn) qidiruv moduli, СПС Гарант: нормативно-правовая документация qidiruv moduli, eLIBRARY.RU qidiruv moduli

O'ZLASHTIRIB OLISHLAR

5.59%

O'Z-ZIDAN IQTIBOS KELTSIRISHLAR

0%

IQTIBOS KELTSIRISHLAR

0%

ORIGINALLIK

94.41%

O'zlashtirib olish — topilgan barcha matnli kesishmalar ulushi, tizim hujjatning umumiy hajmiga nisbatan iqtibos keltirishga kiritganlaridan tashqari.

O'z-o'zidan iqtibos keltirishlar — tekshirilayotgan hujjatdagi muallifi yoki hammuallifi tekshirilayotgan hujjatning muallifi bo'lgan manba matni fragmenti bilan mos tushuvchi yoki deyarli mos tushuvchi matn fragmentlarining hujjatning umumiy hajmiga nisbatan ulushi.

Iqtibos keltirish — muallifni bo'lmagan, biroq tizim ulardan foydalanishni to'g'ri deb hisoblagan matnli kesishmalarining hujjatning umumiy hajmiga nisbatan ulushi. Bunga GOST bo'yicha qilingan iqtiboslar: umumfoydalanuvchi ifodalalar; me'yoriy-huquqiy hujjatlar to'plamidan olingan manbalarda topilgan matn fragmentlari kiradi.

Matnli kesishma — tekshirilayotgan hujjatdagi manba matni fragmenti bilan ustma-ust yoki deyarli ustma-ust tushuvchi matn fragmenti.

Manba — tizimda indekslangan va tekshirish o'tkaziluvchi qidirish modulida mavjud bo'lgan hujjat.

Originallik — tekshirilayotgan hujjat matnidagi tekshiruv bergan birorta ham manbada topilmagan fragmentlarning hujjatning umumiy hajmiga nisbatan ulushi.

O'zlashtirib olishlar, o'z-o'zidan iqtibos keltirishlar, iqtibos keltirishlar va originallik alohida ko'rsatkichlar hisoblanadi va jami bo'lib 100%, ni beradi, bu esa butun tekshirilayotgan hujjat matniga mos keladi.

E'tiboringizni tizim tekshirilayotgan hujjatning tizimda indekslangan matnli manbalar bilan matnli kesishmalarni topishiga qaratamiz. Bunda tizim yordamchi vosita hisoblanadi, o'zlashtirib olishlar yoki iqtibos keltirishlarning to'g'ri va o'rinaligini hamda tekshirilayotgan hujjat matnli fragmentlarining muallifi kimligini aniqlash tekshiruvchining vakolatida qoladi.

№	Hisobotdagi ulushi	Manba	Qidirish moduli
[01]	2.14%	ERKAK VA AYOL NUTQIDA MUHOJAT SO'ZLAR SEMANTIKASI – тема научной статьи по СМИ (медиа) и массовым коммуникациям читайте бесплатно текст научно-исследовательской работы в электронной библиотеке КиберЛенинка https://cyberleninka.ru/article/n/erkak-va-ayol-nutqida-murojaat-so-zlar-semantikasi	Internet plus qidiruv moduli
[02]	1.03%	СОЦИОЛИНГВИСТИЧЕСКАЯ КОМПЕТЕНЦИЯ ПЕРЕВОДЧИКА: СУЩНОСТЬ И КОМПОНЕНТНЫЙ СОСТАВ. http://elibrary.ru/item.asp?id=26273922	Tarjima tekshiruv uz-ru qidiruv moduli
[03]	0.37%	http://arm.sies.uz/wp-content/uploads/2020/11/Nutq_madaniyat_i_va_davlat_tilida_ish_yuritish.-T-2013.pdf http://arm.sies.uz/wp-content/uploads/2020/11/Nutq_madaniyat_i_va_davlat_tilida_ish_yuritish.-T-2013.pdf	Internet plus qidiruv moduli
[04]	0%	http://www.mamun.uz/uploads/journal/file_s/1648723698.pdf http://www.mamun.uz/uploads/journal/files/1648723698.pdf	Internet plus qidiruv moduli
[05]	0.29%	http://el.tfi.uz/ima_ges/Ozbek_tili_oum.pdf http://el.tfi.uz/images/Ozbek_tili_oum.pdf	Internet plus qidiruv moduli
[06]	0%	http://el.tfi.uz/ima_ges/Ozbek_tili_oum.pdf http://el.tfi.uz/images/Ozbek_tili_oum.pdf	Internet plus qidiruv moduli
[07]	0.72%	Просмотреть файл http://vak.ed.gov.ru/common/img/uploaded/files/vak/announcements/filolog/2009/02-02/VolskiyAL.doc	Переводные заимствования по Интернету (UzRu) qidiruv moduli
[08]	0%	http://www.ispr.ru/BIBLIO/2005/biblio2005_13.html	Переводные заимствования по Интернету (UzRu) qidiruv moduli
[09]	0.64%	https://my.iiaw.uz/dashboard/uploads/files/DyYKKJUYei9AlwZsQ_KMwX-QB57sPhAD3.pdf https://my.iiaw.uz/dashboard/uploads/files/DyYKKJUYei9AlwZsQ_KMwX-QB57sPhAD3.pdf	Internet plus qidiruv moduli
[10]	0%	SH. YULDASHEVA, D. KABULOVA, M. SOBIROVA (2013). O'ZBEK TILI O'quv qo'llanma, "BILIM" 2013 https://staff.tiame.uz/storage/users/83/books/G0HfxTcZynnKH7MNjpf7ifSRjHyxK10N6VqQSwDI.pdf	Internet plus qidiruv moduli
[11]	0%	Dilimiz ve Edebiyatimiz - Alisher Navoiy - Layli va Majnun - 5 (Izohlar) https://www.edebi.net/index.php/kardes-edebiyatlar/oezbek-edebiyat/klasik-oezbek-edebiyat/2924-alisher-navoiy-layli-va-majnun-izohlar	Internet plus qidiruv moduli
[12]	0%	Катта улчамли ядровий нурланишли хар хил турдаги кремнийли детекторларнинг электрофизик ва спектрометик хусусиятлари, 2019 https://staff.tiame.uz/storage/users/142/articles/zlkHcdmURduBZSJSUa6sSwxu9RoNB9lTjju3XU.pdf	Internet plus qidiruv moduli
[13]	0.19%	АНАЛИЗ СИНТАКСИЧЕСКОГО УРОВНЯ ЯЗЫКА ДЕЛОВЫХ ДОКУМЕНТОВ, ВОВЛЕЧЕННЫХ В СФЕРУ ЮРИСЛИНГВИСТИКИ. http://elibrary.ru/item.asp?id=26196681	Tarjima tekshiruv uz-ru qidiruv moduli
[14]	0%	Yuklab olish: ot_kishnagan_oqshom_ziyouz_com_d9a69.pdf Hajmi:243.49 KB http://el.tfi.uz/images/ot_kishnagan_oqshom_ziyouz_com_d9a69.pdf	Internet plus qidiruv moduli
[15]	0%	IQTISODIYOTDA TEXNIK YOZUV (14/17) http://el.tfi.uz/pdf/IQTISODIYOTDA%20TEXNIK%20YOZUV.pdf#14	Internet plus qidiruv moduli

[16]	0%	Iqtisodiyotda texnik yozuv Qollanma.doc (3/6) http://el.tfi.uz/umk/O%60zbek%20tili/Iqtisodiyotda%20texnik%20yozuv%20Qollanma.doc#3	Internet plus qidiruv moduli
[17]	0%	итисодиёта тех. ёзув.doc (13/15) http://el.tfi.uz/umk/O%60zbek%20va%20rus%20tillar/%D0%B8%D1%82%D0%B8%D1%81%D0%BE%D0%B4%D0%B8%D1%91%D1%82%D0%0%20%D1%82%D0%B5%D1%85.%20%D1%91%D0%B7%D1%83%D0%B2.doc#13	Internet plus qidiruv moduli
[18]	0%	NUTQ MADANIYATI VA BUGUNGI KUN YOSHLARI NUTQI – тема научной статьи по языкознанию и литературоведению читайте бесплатно текст научно-исследовательской работы в электронной библиотеке КиберЛенинка https://cyberleninka.ru/article/n/nutq-madaniyati-va-bugungi-kun-yoshlari-nutqi	Internet plus qidiruv moduli
[19]	0%	Gendering ijtimoiy tavsifi gender psixologiyasi vujudga kelish tarixi gender lingvistika muammolari https://fayllar.org/gendering-ijtimoiy-tavsifi-gender-psixologiyasi-vujudga-kelish.html	Internet plus qidiruv moduli
[20]	0%	Gendering ijtimoiy tavsifi gender psixologiyasi vujudga kelish tarixi gender lingvistika muammolari https://fayllar.org/gendering-ijtimoiy-tavsifi-gender-psixologiyasi-vujudga-kelish.html	Internet plus qidiruv moduli
[21]	0%	G. S. Keldiyorova, N. A. Ablayeva - страница 2 http://uz.denemetr.com/docs/768/index-284799-1.html?page=2	Internet plus qidiruv moduli
[22]	0%	Alisher Navoiy. Layli va Majnun. Doston asosida audiokitob va radiospektakl & Dilnavoz Yusupova. Doston haqida Xurshid Davron kutubxonasi https://kh-davron.uz/kutubxona/alisher-navoiy/layli-va-majnun-radiopesa.html	Internet plus qidiruv moduli
[23]	0%	http://tkti.uz/uploads/9f271df388_158576_7174.pdf http://tkti.uz/uploads/9f271df388_1585767174.pdf	Internet plus qidiruv moduli
[24]	0%	http://library.navoiy-uni.uz/files/qurbonova%20m.%20hozirgi%20o'zbek%20adabiy%20tili.pdf http://library.navoiy-uni.uz/files/qurbonova%20m.%20hozirgi%20o'zbek%20adabiy%20tili.pdf	Internet plus qidiruv moduli
[25]	0.22%	СОВРЕМЕННАЯ ЕВРОПЕЙСКАЯ ИСТОРИОГРАФИЯ СТАЛИНИЗМА: ТРАДИЦИИ И НОВЫЕ НАУЧНЫЕ СТРАТЕГИИ В ЦЕНТРАЛЬНОЙ И ВОСТОЧНОЙ ЕВРОПЕ. http://elibrary.ru/item.asp?id=23142027	Tarjima tekshiruv uz-ru qidiruv moduli
[26]	0%	O'zbekiston respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi alisher navoiy nomidagi samarqand davlat universiteti abduaidov Abduvali https://hozir.org/ozbekiston-respublikasi-oliy-va-orta-maxsus-talim-vazirligi-al-v4.html	Internet plus qidiruv moduli
[27]	0%	Yulduzli tunlar (I- qism) [Pirimqul Qodirov] http://uzsmart.ru/kutubxona/asarlar/2587-yulduzli-tunlar-i-qism-pirimqul-qodirov.html	Internet plus qidiruv moduli
[28]	0%	Yulduzli tunlar (I- qism) [Pirimqul Qodirov] http://uzsmart.ru/kutubxona/asarlar/2587-yulduzli-tunlar-i-qism-pirimqul-qodirov.html	Internet plus qidiruv moduli
[29]	0%	https://arm.tdpushf.uz/kitoblar/fayl_810_20210505.doc https://arm.tdpushf.uz/kitoblar/fayl_810_20210505.doc	Internet plus qidiruv moduli
[30]	0%	https://science.nuu.uz/admin/pdf/Uzmu-12-2021(3-bolim).pdf https://science.nuu.uz/admin/pdf/Uzmu-12-2021(3-bolim).pdf	Internet plus qidiruv moduli
[31]	0%	Закон Республики Узбекистан «О государственном языке» - страница 16 http://topreferat.znate.ru/docs/index-10919.html?page=16	Internet plus qidiruv moduli
[32]	0%	O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida nutq so'zladi https://www.uzavtoyul.uz/uz/post/ozbekiston-prezidenti-shavkat-mirziyoyev-bmt-bosh-assambleyasining-72sessiyasida-nutq-sozladi.html	Internet plus qidiruv moduli
[33]	0%	O'ZA - O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida nutq so'zladi http://www.uz.uz/politics/o-zbekiston-prezidenti-shavkat-mirziyoyev-bmt-bosh-assambley-20-09-2017?m=y&ELEMENT_CODE=o-zbekiston-prezidenti-shavkat-mirziyoyev-bmt-bosh-assambley-20-09-2017&SECTION_CODE=politics	Internet plus qidiruv moduli
[34]	0%	Арриан «Индия» Глава 1 http://do.gendocs.ru/docs/index-300378.html	Переводные заимствования по Интернету (UzRu) qidiruv moduli
[35]	0%	http://wayu.uz/uploads/1/P1Sc2c25ncmcoy0YEGie3G62VmWZwCmG.pdf http://wayu.uz/uploads/1/P1Sc2c25ncmcoy0YEGie3G62VmWZwCmG.pdf	Internet plus qidiruv moduli
[36]	0%	https://tsuull.uz/sites/default/files/ozbek_tili_imkoniyatlaridan_amaliy_foydalanish_masalalari.pdf https://tsuull.uz/sites/default/files/ozbek_tili_imkoniyatlaridan_amaliy_foydalanish_masalalari.pdf	Internet plus qidiruv moduli
[37]	0%	https://tsuull.uz/sites/default/files/ozbek_tili_imkoniyatlaridan_amaliy_foydalanish_masalalari.pdf https://tsuull.uz/sites/default/files/ozbek_tili_imkoniyatlaridan_amaliy_foydalanish_masalalari.pdf	Internet plus qidiruv moduli
[38]	0%	https://staff.tiame.uz/storage/users/452/presentations/gEbV BrefEi1ITjBh12YmJS9UoAlo3E0nHnPMRjdQ.pdf https://staff.tiame.uz/storage/users/452/presentations/gEbVBrefEi1ITjBh12YmJS9UoAlo3E0nHnPMRjdQ.pdf	Internet plus qidiruv moduli
[39]	0%	https://uniwork.buxdu.uz/resurs/12755_1_11F2504AFE61C2A527AF6F8A01BD4FCAF7899E0D.pdf https://uniwork.buxdu.uz/resurs/12755_1_11F2504AFE61C2A527AF6F8A01BD4FCAF7899E0D.pdf	Internet plus qidiruv moduli
[40]	0%	https://e-library.namdu.uz/81%20%D0%A2%D0%B8%D0%BB%D1%88%D1%83%D0%BD%D0%BE%D1%81%D0%BB%D0%B8%D0%BA/Lutfillayev%20D.%20Hozirgi%20o'zbek%20adabiy%20tili%202-qisim.pdf https://e-library.namdu.uz/81%20%D0%A2%D0%B8%D0%BB%D1%88%D1%83%D0%BD%D0%BE%D1%81%D0%BB%D0%B8%D0%BA/Lutfillayev%20D.%20Hozirgi%20o'zbek%20adabiy%20tili%202-qisim.pdf	Internet plus qidiruv moduli
[41]	0%	http://el.tfi.uz/ima ges/utgan_kunlar_ziy_ouz_com_68ccf.pdf http://el.tfi.uz/images/utgan_kunlar_ziyouz_com_68ccf.pdf	Internet plus qidiruv moduli

murojaat vositalari togrisida Akbarova Z. O'zbek tilida murojaat shakllari va ularning lisoniy tadqiqi dissertatsiyasi (fan nomzodlik Toshkent, 2007) va Ahmedova N. O'zbek tilida murojaat birliklarining semantik-konnotativ tadqiqi dissertatsiya (fan nomzodlik Toshkent, 2008)lari shular jumlasidandir. Shuni aytish kerakki, sotsiologiyaviy atama bo'lgan murojaatlar tilshunoslikning sintaksis bo'limida undalma nomi ostida anchayin to'liq tadqiq qilingan, o'rganilgan. Xususan, Sayfullayev A. R. O'zbek tili sodda gap qurilishida uchinchi darajali bo'laklar (1972), Sulaymonov A. H. O'zbek tilida atov gap, undalma va vokativ gaplar (1956), Gulomov A. G. Hozirgi zamon ozbek tilida konspektiv kurs (1948), Sodda gap (1955), G'ulomov A. G'. Asqarova M. A. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Sintaksis (1965), O'rinboev B. Hozirgi o'zbek tilida vokativ kategoriya va boshqa ko'plab ilmiy tadqiqot ishlari keng qamrovli tarzda talqin etilgan.

Olib borilgan ilmiy tadqiqotlardan shuni kuzatishimiz mumkinki, murojaat vositalari turli olimlar tomonidan turli jihatlar o'rganilgan. Jumladan, murojaatlarning ijtimoiy mohiyatini sotsiologiyaviy jihatdan (Akbarova Z.), shuningdek, semantik jihatdan (Ahmedova N.) tadqiqotlari va undalma nomi ostida ko'plab turlari keng yoritilgan bo'lsa-da, ammo murojaatning tarkibiy qismi bo'lgan rasmiy murojaatlar keng o'rganilmagan bo'lib, aynan biz shu jihatlarini o'rganishni asos qilib oldik.

Tadqiqotning maqsad va vazifalari. Malakaviy bitiruv ishining maqsadi rasmiy murojaat vositalarini tavsiflash, tadqiq qilishdan iborat. Bu maqsadga quyidagi vazifalarni bajarish asosida erishiladi:

- avvalo, murojaat vositalari haqida umumiy, nisbatan to'liqroq malumot berish;

- mavjud o'zbek tilidagi asarlardan murojaat ifodalovchi vositalarni izlash, to'plash va tadqiq qilish;

- rasmiy murojaatlarning namoyon bolish sharoit va vaziyatlarini organish, uni shu va boshqa jihatlar yuzasidan ichki guruhlarga bolish, tavsiflash;

- mavjud o'zbek tilidagi asarlardan unumli foydalanib rasmiy murojaatlarni, izlash, to'plash va tadqiq qilish;

- shuningdek, zamonaviy va tarixiy (diaxron, sinxron) prinsiplardan kelib chiqqan holda ushbu mavzulardagi asarlardan namuna olish va tavsiflash ;

- rasmiy murojaat vositalarining turli ko'rinishlarini guruhlarga ajratish va ichki tasniflash;

- o'zbek tilidagi rasmiy murojaatlarni gender jihatdan tadqiq qilish;

- rasmiy murojaatlarni yozma va og'zaki turlarga bo'lish orqali nafaqat asarlardan, gazeta-jurnallardan, balki turli rasmiy yig'ilishlar, majlislar, eshittirishlar, namoyishlar, mitinglar, tele va radiodasturlarda foydalaniladigan murojaatlarni izlash, to'plash, tavsiflash.

Ishning tadqiq obyekti, predmeti va materiali. Ishning tadqiq obyekti ozbek tilidagi rasmiy murojaat vositalari. Ishning tadqiq predmeti rasmiy murojaatlarni izlash, topish ularni oxshash va farqli belgilar asosida ichki guruhlarga bolish orqali ularning turli sema (mano) qirralarini ochib berish hisoblanadi. Ozbek tilidagi mavjud asarlar, kundalik gazeta-jurnallar, shuningdek, rasmiy uchrashuvlar, majlislar, yig'inlar, teleeshittirishlar (teleshoular) ishning materiali hisoblanadi.

Tadqiqot metodlari. Tadqiqotning metodologik asosi mustaqillik mafkurasi, Ozbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I. A. Karimovning milliy goya va milliy manoviyatga doir qarashlari, dialektika kategoriyalari, shuningdek, umumiy tilshunoslik nazariyasi namoyandalari (Y. D. Deshriyev, V. Kolesov, V. Humboldt, G. Grays, S. Levinson, F. Sosyur) va ozbek tilshunoslari (A. Abduazizov, D. Ashurova, Sh. Safarov, S. Mominov, Sh. Iskandarova, M. Sulaymonov, Q. Rasulov) ning qarashlari, tilning milliy mentalitetni saqlash va voqelantirish vazifasini tadqiq qilish konsepsiyasidir. Tadqiq usuli sifatida differensial-semantik, tipologik, qiyosiy-tarixiy metodlari xizmat qildi.

Magistrlk dissertatsiya ishining tuzilishi va hajmi. Malakaviy bitiruv ishi kirish, ikki asosiy bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar va ilova royxatidan iborat bolib, sahifani tashkil qiladi.

Bajarilgan ishning asosiy natijalari. 2017-yilda TerDUda otkazilgan Filologiyaning dolzarb masalalariga bagishlangan ilmiy-amaliy konferensiyada Usmon Azim ijodida Allohga murojaat shakllari, 2018-yilda A. Navoiy nomidagi o'zbek tili va adabiyoti universiteti tomonidan tashkil etilgan O'zbek tilshunosligi va turkiy tillar to'plamida O'zbek tilida murojaat vositalari nomli Magistrlk dissertatsiya ishi mavzusi bilan bogliq maqolalar elon qilingan.

I BOB. MUROJAAT VOSITALARI VA ULARNING TAVSIFI HAQIDA UMUMIY MALUMOT

1.1. O'zbek tilida undalma va murojaat vositalari

Ozbek tilshunosligida undalma va uning xususiyatlari yuzasidan bir qator ilmiy ishlar amalga oshirilgan bolib, ularda asosan, undalmaning lingvistik xususiyatlari ochib berilgan. Shu orinda zamonaviy ozbek tilining dastlabki asoschilari bolgan jadid marifatparvari A. Fitrat va Zunnun kabi bir qator olimlar tomonidan undalma haqida fikr-mulohazalar bildirilgan, ilmiy ishlar qilingan. Chunonchi, A. Fitrat 1924-yilda nashr etilgan Nahv (Sintaksis) asarida gap turlarini ajrata turib, undashli gap atamasi ostida undalmali gaplarni ajratadi va undalmaga quyidagicha tarif beradi: Undashli gap gap kimgadir qaratib aytilgan bo'lsa, shuning oti gapning bosh tomonida yo orasida, yo ortasida aytilsa, ana shunday gapga undashli gap deyiladi. Shu otning ozi undash oti boladi:

Yigitlar, qolingizdan kelganacha bilimingizni orttiring.

Undash oti gapning bosh tomonida bolsa, undan keyin, oxirida bolsa, undan burun, gap orasida bolsa ikki tomondan, belgisi yoziladi. Undashli gap oxirida undash belgisi ! qoyiladi. Undashka kuch bermak, qaynab qichqirib undamakni korsatmak uchun undash otidan burun E sozi, undash otidan keyin ham undash belgisi qoyiladi. Undash oti yolgiz ozigina emas, uzun-uzun sifatleri bilan birlashib keladi. Shuningdek, Fitratdan keyin Sh. Zunnun 1925-yilda nashr etilgan Til qoidalari nomli kitobida undalma haqida quyidagi fikrlarni bayon qiladi: Gapning ichida tovushni kotarib bir kishiga yoki bir narsaga yondashib aytilgan sozlar undosh soz ataladi:

Mehnatkashlar, birlashingiz.

Undalmaning vazifasi aytilayotgan fikrga tinglovchining diqqatini tortishdir, - degan fikrni A.Gulomov o'zining 1955-yilda qayta nashr qilingan "Sodda gap" nomli kitobida aytgan edi. Bu fikr undalma faqat shaxsni bildirgan sozlar bilan ifodalangan togri boladi. Lekin undalma hayvonlarni, jonsiz predmetlarni ifodalovchi sozlar bilan ifodalangan bolsa yuqoridagi qoida biroz torlik qiladi. Keyinchalik Ozbek tili grammatikasi kitobining 1944- va 1976-yilgi nashrlarida undalmalarga: Sozlovchining nutqi qaratilgan, shaxsni yoki predmetni bildirgan sozlar, - deya tarif berildi va bu tarif shu davrgacha undalmalar haqida aytilgan va bildirilgan barcha fikrlarning jamlanmasi edi. Bugungi kun tilshunosligida ham undalmalar fikr qaratilayotgan shaxs yoki predmetni ifodalash uchun qollaniladi.

Rus tilida, ozbek va boshqa turkiy tillarda yaratilgan ilmiy ishlarda murojaat sozlari, yani chaqirish, undash manosi dagi sozlar chaqiriq soz, chaqiriq forma, chaqirish kelishik, vokativ forma, vokativ kelishik, undash kelishik, murojaat sozlar kabi turli-tuman terminlar bilan yuritilgan.

Undalma boyicha alohida tadqiqot olib borgan A.Sayfullayev undalmaning leksik-semantik xususiyatlari, gapdagi orni va uning tarkibi haqida batafsil malumot beradi. Bazi tilshunoslar undash, chaqiriq manolarini qamrab olgan sozlarni vokativ formadagi sozlar deb izohlaydilar. B.Orinboev undalma termini orinda vokativ kategoriya terminini qollaydi. Undalma ozbek tilshunosligida koproq sof lingvistik tomondan tahlil qilingan bolib, keyingi yillardagi tadqiqotlarda esa undalmaning ijtimoiy-lisoniy xususiyatlariga ham etibor kuchaydi . Ijtimoiy tilshunoslik nuqtayi nazaridan qaraganda, koppina ishlarda undalma termini orinda murojaat shakllari termini qollanilmoqda. Mustaqillik yillarida murojaat termini faol qollanilib, u koproq sotsiologiyaviy organish obyekti ni tashkil qiladi. Bundan tashqari, murojaat shakllari termini undalma terminiga nisbatan keng qamrovli hisoblanadi.

Shu orinda undalma sozining kelib chiqishi-yasalishi etimologiyasiga nazar solsak, sozning ozagi un bo'lib, tovush, ovoz, manosini anglatgan. Qadimgi turkiy tilda ham shu manononi ifodalagan bu ot on tarzida talaffuz qilingan. O'zbek tilida o unlisining yumshoqlik belgisi yo'qolgan va natijada un holiga kelib qolgan: on>un .

Un (ovoz, tovush) otidan biror ish harakatni bajarishga chaqirmoq, davat etmoq, buyurmoq manosini anglatuvchi unda- feli yasalgan. Ayni felning kelib chiqishi etimologik manbalarda quyidagicha izohlanadi: Bu fel qadimgi turkiy tilda ovoz manosini anglatgan on otidan da (< -la) qoshimchasi bilan yasalgan: on+ da= ondä. Bu fel asli ovoz chiqar, chaqir manosini bildirgan bolib, davat et manosi shu mano asosida yuzaga kelgan. Undamoq felidan

-I qoshimchasi orqali majhul nisbat hosil qilingan va bu shaklga ot yasovchi -ma qo'shimchasining qo'shilishi natijasida undalma til birligi kelib chiqqan.

Murojaat soziga izohli lugatda shunday tarif beriladi:

– korib chiqish, taqqoslash;

– biror narsa sorash, ishni qayta korish;

– birovga qarata aytilgan gap, qilingan davat, chaqiriq;

Qayd qilingan manolardan birovga qarata aytilgan gap, qilingan davat, chaqiriq manosini adresant va adresat nutqida namoyon bolish va vazifasini kuzatib, ularning ijtimoiy-lisoniy va boshqa jihatlardan tasniflash asosida tahlil qilishga harakat qilamiz. Korinib turibdiki, murojaat, asosan, kommunikantlar ortasida tinglovchi diqqatini tortish uchun xizmat qiladi. Murojaat shakllarining ijtimoiy-lisoniy xususiyatlari Sh. Iskandarova, S. Mominov, M. Sulaymonov, Z. Akbarovalarning ilmiy ishlarida qayd qilingan. Z. Akbarova tomonidan murojaat shakllarining ijtimoiy xususiyatlari, undalma va murojaatning umumiy yoki farqli tomonlari, ifodalani sh usul hamda vositalari, murojaat ifodalani shining ekstralingvistik va psixolingvistik vosita, omillari, murojaat leksikaning tematik tasnifi keng yoritib berilgan. Tadqiqotchi Z. Akbarova undalma va murojaatning farqli va oziga xos tomonlarini yoritir ekan, murojaat ifodalovchi soz ham mohiyatan grammatik aspektda yondashilsa, u undalmaga tola mos tushadi degan fikrni bildiradi. Lekin mazmunan murojaat obyekti ni ifodalovchi soz murojaat shakli sifatida, sozlovchining nutqi qaratilgan shaxsnigina emas, har qanday obyekti ni ifodalaydi. Demak, murojaat shakllari undalmaga nisbatan kengroq tushuncha ifodalaydi. Murojaat shakllarini ijtimoiy-lisoniy jihatidan tahlil qilganda, u adresant va adresat ortasida aloqani vujudga keltirish bilan bir qatorda, suhbatning qanday davom etishini, kommunikantlarning bir-biriga bolgan turli munosabatini, hurmati, yoshi, jinsi, shu bilan birga, milliy madaniyatini ham namoyon etadi.

Inson tashqi olam bilan, ijtimoiy munosabatlardan kelib chiqib bog'lansa, faqat til orqali aloqaga kirishadi, aloqaga kirish imkoniga til tufayli ega bo'ladi, tashqi ijtimoiy-siyosiy, ilmiy-falsafiy, ruhiy-

manaviy dunyo mazmun-mohiyati bilan ham til tufayli tanishadi. U oz dunyoqarashini ham ana shu munosabatlar tufayli va til vositasida olgan bilimlari zamirida shakllantiradi. Tashqi olam, obyektiv borliq inson uchun makromaydondir. Mikromaydoni esa inson ozi bevosita aloqa bog'layotgan, muloqotga kirishayotgan ozga suhbatdoshdir. Ana shu ozga ikkinchi subyekt haqida ham uning nutqi orqali malumot olinadi ozganing intellektual va ruhiy-manaviy dunyosi faollashgan til tufayli bilib olinadi. Shuningdek, ayni damda, birinchi shaxs birinchi subyektning, yani sozlovchining ozida ham ana shu ijtimoiy mazmun-mohiyat til tufayli shakllanadi.

Yangi davr adabiyotida shoir oz joniga murojaat qilishi poetik vazifa bajaradi, muallifning goyaviy maqsadini ochish uchun detal sifatida xizmat qiladi. Badiiy matnda murojaat, grammatik ifoda bilan aytganda, undalma faqat muayyan shaxs, narsa, hodisa, umuman, tegishli nutq qaratilgan obyektini ishoralash va korsatish uchungina xizmat qilmaydi. Har qanday murojaatning asosiy va birlamchi vazifasi apellyativlik, yani chaqirish mazmuni bolsa-da, bu vazifa badiiy matnda kuchsizlanishi va unga qoshimcha ravishda undalma yana boshqa vazifalarning ifodachisiga ham aylanishi mumkin. Shu sababdan, poetik sintaksis izlanuvchilari undalmaning uch asosiy turini etirof etganlar:

adresatsiya va xarakterzatsiya vazifalarini ozida birlashtirgan undalmalar (adresatni tavsiflovchi undalmalar);

2) adresatsiya va nominatsiya vazifalarini ozida birlashtiruvchi undalmalar (undalma-nominatsiyalar);

3) uch vazifasining barchasi (adresatsiya, nominatsiya va xarakterzatsiya)ni mujassamlashtirgan undalmalar (undalma pozitsiyasidagi fraza-nominatsiyalar). Bunday undalmalar poetik sintaksisning oziga xos otkir vositasiga aylanadi.

Ozbek poetik matnlarida ushbu tur undalmalarning betakror namunalari mavjud. Poetik matnda murojaat qilinayotgan obyektini korsatish barobarida uni ayni paytda tavsiflovchi undalmalar badiiy fikr sigimining yanada kengayishi uchun xizmat qiladi. Masalan:

Og'ir yigit, sening go'zal, nurli ko'zingda

Bu millatning saodatini, baxtin o'qudim.

Oylashingda, turishingda hamda ozungda

Bu yurt uchun qutulishning borlig'in ko'rdim.

(Fitrat. O'gut)

Bu parchadagi og'ir yigit undalmasi murojaat obyektini bo'lgan shaxsni faqat nomlaydigina emas, balki uni tavsiflaydi ham, yani bir paytning ozida mazkur birlik ikki vazifani bajaradi. Og'ir yigitga qaratilgan bu murojaatda bir shoir iltijosi, davatigina emas, bu haroratli ovoza kamida bir millatning asriy istagi, qalb chaqirigi yangraydi. Murojaat obyektini ifodalash va uni nomlashdan iborat poetik polifunksionallikni namoyon etuvchi undalmalar ham ozbek poetik matnlarida ko'plab uchraydi. Masalan:

Nekrasov hasrati, o, rus hasrati,

Poyoning bormikan, hadding bormikan.

(A. Oripov "Nekrasov hasrati")

Parchadagi Nekrasov hasrati, rus hasrati undalmalari murojaat qilinayotgan obyektini ifodalaydi, ayni paytda nominativ vazifani ham bajaradi, albatta, bu polifunksionallik matndagi badiiy mazmun salmog'ini orttirishga xizmat qiladi. Quyidagi misollarda ham mazkur holatni ko'rish mumkin:

Sen esding ochildi yorning jamoli,

O, yurtim shamoli, yurtim shamoli.

(A. Oripov "Yurtim shamoli")

Jaloliddin samani bo'lib,

Sakrar otding Amudaryodan.

Sensan osha samanin manim,

Ozbekiston, Vatanim manim.

(A. "Oripov Ozbekiston")

Ham adresatsiya, ham nominatsiya, ham xarakterzatsiyadan iborat poetik polifunksionallik undalmalarning badiiy qimmatini yanada oshiradi, yaxlit matnning tasir kuchiga kuch qo'shadi. Mazkur uch vazifa mahorat bilan mujassamlashtirilgan undalmalarning juda ham tizig'ini qollanilgan quyidagi sheri parchani koraylik:

Ey mulkini bir chekkada tinch kemirib yotgan zot,

Besh tiyiga qadrini ham, xalqini ham sotgan zot,

Kokragida na himmatu na gayratdan asar bor,

Yuragida na oriyat, na shavq bor, na kadar bor,

Umrda hech qilgan emas, moldan ozga bir niyat,

Seni deya tiladimi yuraklarga hurriyat?

(E.Vohidov "Og'riqli savollar")

Parchada qollangan beshta undalma zanjiridagi (mulkini bir chekkada tinch kemirib yotgan zot; besh tiyiga qadrini ham, xalqini ham sotgan zot; kokragida na himmatu, na gayratdan asar bor; yuragida na oriyat, na shavq bor, na kadar bor; umrida hech qilgan emas, moldan ozga bir niyat) har bir undalma ham murojaat obyektini ifodalaydi, ham uni nomlaydi va ayni paytda bu obyektning mutlaqo original tavsifini aniq-tiniq namoyon qiladi. Xullas, tilning apellyativ vazifasi uning kommunikativ va hatto poetik vazifasidan ajratilgan holda tasavvur etilmaydi, ammo bu vazifalarning bevosita amalga oshishida u yoki bu tarzda murojaat unsur ishtirok etadi. Ayni paytda shuni ham takidlash joizki, ayniqsa, apellyativ vazifaning ijrosi jarayonida murojaat alohida orin tutadi. Shuningdek, tilning poetik-estetik vazifasining amalga oshishida ham murojaatning ornini inkor etib bolmaydi.

Sotsiologiyaviy fani tilning jamiyatga, jamiyatning tilga munosabati masalasi organar ekan, ijtimoiy muhitni ham nazardan chetda qoldirmaydi. Kommunikantlarning qaysi muhitda yashashi masalasi ham tahlil qiladi. Muhit tushunchasi oz ichiga oilani, jamiyatni, davr va tarixni, tabiatni qamrab oladi. Insonni qurshab turuvchi barcha narsa: turmush va uning jihozlari, tabiat, jamiyat va davlat, shaxs, tarix, yani turli davr va xalqlarning madaniyatlari muhit tushunchasiga kiradi. Demak, inson yashab turgan tabiat va jamiyat muhitni tashkil qiladi. Inson osha muhitda yashar ekan, bu uning fel-atvoriga, shuningdek, muloqot madaniyatiga ham oz tasirini korsatmay qolmaydi. Insondagi ozgarishlar, eng avvalo, uning xulqida, jumladan, muloqot xulqida namoyon boladi. Demak, ekologiya ijtimoiy muhitga, ijtimoiy muhit esa muloqot xulqiga tasir korsatadi. Til jamiyat taraqqiyoti natijasida rivojlanar ekan, ijtimoiy muhitning til va uning namoyon bolish shakli nutqqa tasiri juda katta. Inson mansub bolgan muhitning tabiati uning nutqida ham yorqin namoyon boladi. Kishilarning yashash tarzi, ish faoliyati, oqish tartibi, sharoiti, atrof-muhitning ozgarishi uning nutqida ham namoyon boladi. Ijtimoiy muhitning tilga tasiri masalasi sotsiologiyaviy tadqiqotlarning diqqat markazida turadi. Tadqiqotchi S.Mominovning mazkur masala bilan bogliq tadqiqot ishida ham ijtimoiy muhitning muloqot xulqiga tasiri, yani qishloqliklar va shaharliklar nutqining oziga xos farqli jihatlari asosan muhit bilan bogliq ekanligi takidlangan. Sotsiolog va psixologlar ham kommunikantlar nutqining oziga xos tarzda shakllanishida ijtimoiy muhitning alohida orin tutishini takidlaydilar.

Sozlovchi va tinglovchining jamiyatda qanday orin tutishi, yoshi, jinsi, lavozimi, kasb-koriga qarab murojaat shakllari ozgarib boraveradi. Shuni ham takidlash kerakki, murojaat shakli xalqning ozligini anglashi qay darajada ekanligini korsatuvchi mezonlardan biridir. Murojaat birliklari kundalik hayotimizda nutq faoliyati, nutq jarayonida keng qollaniladigan, ozaro aloqa-aralashuvga xizmat qiladigan, sozlovchining tinglovchiga bolgan munosabatini ifodalaydigan, ozida turlicha konnatativ manolarni, semantik ohanglarni tashiydigan otkir tasirchan vositadir. Sh. Iskandarova ozbeklar muloqotida ishlatiluvchi murojaat shakllarini bir nechta omil bilan belgilaydi. Bular:

- ijtimoiy mansublik;

- kasb-lavozim, unvon;

- suhbatdoshlarning tanish notanishligi;

- nutqiy harakat sharoiti;

- muloqotchilarning yoshi;
- ularning jinsi;
- yashash joyi;
- uslubiy holati;
- muloqotchilar xarakteri.

1.2. Murojaat vositalarining ichki guruhlanishi

Murojaat shakllarini qaysi jihatiga ko'ra sinflarga ajratish tilshunos olim Z. Akbarova ishlarida keng yoritib berilgan. Shu va shunga oxshash tasniflar yuzasidan biz murojaatlarni obyektiv munosabatiga kora, avvalo, quyidagi 3 katta turga ajratdik:

Shaxsga murojaat

Qani, Davron aka, nima deysiz? (Qahhor Kartina hikoyasi)

Yot, birpasdan keyin toyday chopib ketasan, og'lim. (Oybek Bolalik qissasi)

Narsa- predmet nomlariga murojaat

Bor ekansan-ku, tulporim. (O. Hoshimov Ikki karra ikki besh)

Govmishim, sen rozgorimiz obodi bolding, bolalarimiz rizq-u rozi bolding, oqligi bolding. (T. Murod Momoyev qoshigi qissasi)

Qorqma, jonivor, qorqma. Sovqotibsan, kel, isitib qoyay. (S. Ahmad Laylak keldi)

Tangriga murojaat

Xudoyim, qanaqa kunlar boshlanar (U. Azim Saylanma)

Tangrim, bu jonni ozing bergansan. Endi omonatingni ol. (S. Ahmad Azroil otgan yollarda hikoyasi)

Shaxsga murojaat sozlovchi tomonidan tinglovchiga ismi, mansab-unvoni, yoshi, jinsi, kasb-kori va boshqa oziga xos xususiyatlariga kora nomlash bilan ifodalanadi. Shuni takidlash kerakki, shaxsga murojaat asosiy organiladigan shakl bolib, keyingi ikkita murojaat vositasi shartlidir va uslubiy xoslanish xususiyatiga ega. Ular, asosan, badiiy, sozlashuv, qisman publitsistik uslub doirasida qollaniladi. Insonga murojaat shakllari turlicha bolib, ular quyidagi korinishlarga ega:

Shaxs nomlari-ismlar

Biz yorug dunyoni korish uchun tugilganmiz, Turgunoy. (A. Qahhor Maston hikoyasi)

kasb-hunarleri nomlari

Endi, doxtirjon, bizga javob bersangiz(O. Hoshimov Ikki karra ikki besh qissasi)

qarindoshlik nomlari

Yur, o'g'lim, Zulfining oldiga boramiz (Oybek Bolalik qissasi)

mansab-unvonlari nomlari

Uch kundan keyin imtihon, Rais bova! (O. Hoshimov Ikki karra ikki besh qissasi)

noodatyi nomlar, yani shaxsning turli o'ziga xos xususiyatlari

Obbo, tegirmonchining qizi! (Qahhor Dahshat hikoyasi)

Yuqoridagi ko'rinishlar yuzasidan Z. Akbarovanning murojaat shakllari yuzasidan qilgan tasnifini aynan keltirishni ixtiyor etdik. Ustozning tasnifida murojaat shakllari to'qqiz asosga ko'ra xillarga ajratilgan. Murojaat shakli nutq qaratilgan obyektini ifodalovchi so'z yoki so'zlar birikmasi sifatida belgilash tushunchani aniqroq ifodalaydi. Chunki nutq so'zlovchining o'ziga qaratilgan bo'lishi ham mumkin. Murojaat shakllari malum asoslarga ko'ra guruhlanadi :

I. Adresant qo'llayotgan so'zning qaysi tilga mansubligi jihatdan murojaat shakllari ikki turga bo'linadi: o'z qatlam va o'zlashma qatlam. O'zbek tili murojaat shakllarining ifodalashida o'z qatlamdan tashqari, arab, fors-tojik va rus tillariga oid so'zlar ham faol qo'llaniladi.

Mulla, xalfa, azamat kabi arabcha so'zlar; birodar, oshna, do'st kabi fors-tojikcha so'zlar; serjant, mayor, kapitan kabi rus tilidan o'zlashgan so'zlar nutqda ko'plab uchraydi. Murojaat shakli sifatida qo'llangan so'zlarga asosanib, xalqning milliy mentaliteti, jamiyatdagi turli tabaqalar orasidagi rasmiy va norasmiy bo'lgan ijtimoiy munosabatlar, ruhiy, manaviy o'ziga xosliklar belgilanishi mumkin **7**.

1. Hazratim, bergan og'itingizni bebaho gavhar ornida qabul qilurmiz, dedi Nigor xonim. (P. Qodirov Yulduzli tunlar)

2. Ortoq leytenant, agar mumkin bo'lsa bir narsani soramoqchi edim.

(A. Hakimov Oqsoq bori, 158-b.)

II. Semantik tabiati bo'yicha murojaat ifodalovchi sozlar oz va kochma manoda qo'llanadi.

Bolam, tura qolgin. Jon bolam, kun yoyilib ketdi. Turaqol, jon bolam

(S. Ahmad Ufq, 12-b.)

Ushbu gaplarda bolam sozi ozining lugaviy manosida farzand manosida qollangan.

Qayig'ingizdan foydalansak, otaxon. (H. Gulom Mashal)

Bu gapdagi otaxon kochma manoda ishlatilgan, bundan tashqari, -xon qoshimchasi qoshilganda, uning adresantning otasi emasligi yaqqol anglashilib turadi. Kochma manoda qollanadigan murojaat shakllari oz ichida yana turkumlanishi mumkin.

a) Metaforik: Shunqorim, mard lochinim! Bu yoqqa qarachi, ko'zlaringga to'yib boqay! (Ch. Aytmatov Jamila)

b) Metanidik: Qo'yma, «8-Mart», qo'yma! (kolxoz nomi) (T. Murod Ot kishnagan oqshom)

"Xudoyo xudovando, bolaginangning o'lganini ko'r, sendaychikin shapkalar! (T. Murod Ot kishnagan oqshom)

c) Sinekdoxa usuli bilan: Dunyoda o'zimizdan keyin qoladigan tuyog'imiz... (A. Qodiriy Otkan kunlar).

III. Murojaat shakllarining tematik jihatdan tasnifi. Bu jihatdan murojaat shaklini adresatni ifodalovchi so'zlar quyidagicha guruhlanadi.

1. Qarindosh-urug'chilik maydoniga doir so'zlar:

Sizga taraf yoq, toga.

Jiyan, - dedi Rahmatka qarab, - boshlab uylanishning albatta ota-onang uchun bolib ulardan ranjib yurishning orni yoq. (A. Qodiriy Otkan kunlar)

Shu odatingiz qolmadi-da, poqoi, - dedi kuyinib Zahira hamon devorda turgan Tojixonga, - aytib yuragini ezib nima qilardingiz bechorani.

(R. Fayziy Hazrati inson)

Senga nima boldi, bolam? "

Qoyaver, aya. (S. Ahmad Ufq)

Eh, tentak qizim, qo'zichog'im. (Oybek Navoiy)

Yoq, xotin, Alisher yozgan xat katta, - dedi Umurzoq ota Xolbibini yupatib. (Oybek Navoiy)

Otasi, qizingiz uyquga ketipti.

Dadajon! Nega, axir?.. Shuncha ham chopadimi odam.

Oyijon! Nima gap? Xat keldimi? (Sh. Rashidov Goliblar)

Maktab qochib ketmaydi, enajon, dedi Nazrulla.

Qani kaklik? Momo?! (Sh. Xolmirzayev qissalari)

Qay nuktada, padari muborak? (X. Sultonov Saodat sohili)

Dostlik-ortoqlik maydoniga doir sozlar:

Qoyil! Sergey uning yelkasiga qoqdi. Bayram shu bilan shirin-da, og'ayni! (Mashal)

Bizni kechirasiz, bek aka, - deb Rahmat uzr aytdi.

Yoq, ozim keldim, boy aka.

Ajablanmangiz, ortiq, - dedi, - bekning mundan keyingi sogligi sizning ixtiyoringizda; bu oyin emas togri gap. (O'tkan kunlar)

Qoyil! Sergey uning yelkasiga qoqdi. Bayram shu bilan shirin-da, ogayni! (Mashal)

Barakalla, tasadduq! deydi Ermon buva jilmayib. Umringizdan baraka toping... (Dunyoning ishlari)

Qadrli dostlar! dedi Joraboyev ornidan turib. (Goliblar)

Endi sizlarga bir konglimni tokib solsam, azizlarim, -Muhammadjon aka gapga juda chechan, notiq odam edi. (U. Hamdam Muvozanat)

Bekor urinyapsan, oshna, men oshimni oshab bo'ldim.

Yugurmasak bolmaydi, og'aynichalish, qora tortib kelishyapti,

yaramaslar. (A. Hakimov Oqsoq bori)

Hoy, birodar, turing shaharga keldik, - deb uyg'otib qoldi.

(M. Ismoilij Farg'ona tong otguncha)

Chilvir? Qanaqa chilvir? Okun, mehmoni azizsiz, bo'hton qilmang!

To'riq, kel, haqingni ol! dedi. (Ot kishnagan oqshom)

Ko'zimiz to'rt bo'ldi, poshshaxon, bazmingizga mushtoqmiz, qani

o'tiring. (Qutlug' qon)

Olloh sabr bersin, habibim. (X. Sultonov Saodat sohili)

Lavozim maydoniga doir so'zlar:

Janob memor, tavochilar navkarlikka odam olmoqdalar, istasangiz borib navkar boling! degan kinoyasi uni oziga keltirdi.

Janob eshik oga, ijizat bering, kamina Bobur mirzo huzurlariga kiray! (Yulduzli tunlar)

Uyqum kelmayapti, o'rtoq muallim. (Sh. Xolmirzayev)

O'rtoq serjant, leytenant bu yerdan uzoqdami?

Leytenant, bu yoqqa yugur. Tezroq! Tezroq! (Oqsoq bo'ri)

Shukur muxbir aka, shukur.

Bormayman, kapitan uka, bormayman. (Ot kishnagan oqshom)

Ay, Abil hisobchi, kop karillama! (Momo Yer qo'shig'i)

Ijtimoiy faoliyat maydoniga doir so'zlar:

Keling, shoir, yashang! (T. Murod Momoyev qo'shig'i)

Odam so'zlashib topishadi, yilqi kishnashib topishadi, Ziyodulla

chavandoz!

Xosh choyxonachi, baliq paz... Buguncha boldi, aka, qolganini boshqa kun gaplashamiz.

Boldi-e, juvozkash-e, boldi-e!

O, ritsar! XX asr ritsari! (Ot kishnagan oqshom)

Oling, dehqon aka!..

Obbo, tegirmonchining qizi!.. Bitta qo'yni nazarlari ilmaydi!

(A.Qahhor Dahshat)

4. Jismoniy belgi maydoniga doir so'zlar:

Chilimni sol, choloq, hazilni bilmagan kal Fozil! (Saodat sohili)

Obbo tutxor-ey! Rais buva qoltigimdan olib tol tagiga sudradi. (Dunyoning ishlari)

5. Yer va osmon jismlari maydoniga doir so'zlar:

Xayr, ey, maskanim - tuqqan yerlarim,

Xayr, ey, sahrolar, xayr, ey, tog'lar. (A.Oripov Saylanma)

Hayvon va parrandalar maydoniga doir sozlar:

Texta, tillaqongiz, u yoqqa borma. (M. Yusuf Tillaqongiz)

Qorning ochgandir, arslontoyim, paranchi va savatni ayvonga uloqtirib, - dedi Kampir.

Bundan ko'ra go'ng titganing yaxshi emasmi, keksa tovuq!

Yo'q, tuzim, nonim sani quturtirgan, it! o'dag'ayladi Salim.

Ha, noinsof, ha, koppak! Qoratoy boyni so'ka boshladi.

Bas, uyatsiz maxluq!.. Kim uni zaharlaydi?

So'zga quloq sol, shallaqi makiyon!Yormat ko'zlarini nayzaday qadadi.

Obbo, lanati kalkamaj! (Qutlug' qon)

7. Oziq-ovqat maydoniga doir so'zlar:

Obbo tutxo'r-ey! Rais buva qo'ltig'imdan olib tol tagiga sudradi.

(Ikki karra ikki besh)

Voy uyingga bugdoy tolgurlar, voy kopaygurlar, kela qolinglar, deydi ovozi tovlanib. (Dunyoning ishlari)

8. O'simliklar maydoniga doir so'zlar:

Lola, lolajonim, lolaqizg'aldoq! (M. Yusuf Lolaqizg'aldoq)

Binafsha, senmisan, binafsha senmi. (Cholpon Binafsha)

Rayhon, hidlaringni yollarimga sep (Biz baxtli bo'lamiz)

IV. Murojaat shakllarining hududiy xoslanishi ayrim shevalarda fonetik jihatdan ham farqlanadi. Qarindoshlik giponimlarida bu ayniqsa yaqqol ko'zga tashlanadi. Shunga muvofiq, hududiy xoslanish bo'yicha umumtilga va shevaga xos murojaat shakllari ajratiladi. O'zbek tilining qarluq-chigil-uyg'ur dialekti uchun xos bo'lgan o'lashish hodisasi Toshkent shahar shevasida ham uchraydi. Badiiy asar personajlari nutqida ham bunday fonetik dialektizmlarning turli o'ziga xosliklari namoyon bo'lib boradi. Umumtilda qo'llanadigan aka, opa murojaat shakllari bazi shevalarda asliy shaklidan fonetik o'zgarishga uchrashi bilan farqlanadi.

E, qanday suzadi, apa, kozi kormaydi-ku uning! deydi shoxroq feli otasiga tortgan tongich ogil qiqirlab. (E. Azam Chapdast);

Chilvir? Qanaqa chilvir? Okun, mehmoni azizsiz, bo'hton qilmang! To'riq, kel, haqingni ol! dedi. (Ot kishnagan oqshom).

Yuqoridagi misollar nutqning shevaga xos shakliga mansub bo'lib, ularda Buxoro shevalariga mansub birliklarni ko'rish mumkin. Personajlar tilida qo'llangan ako, akomullo, do'xtar, jo'ra kabi murojaat shakllari o'zbek va tojik tillari mustahkam aloqadorlikda bo'lgan shevalarda uchraydigan leksik va fonetik dialektizmlardir.

V. Murojaat shakllari istemol faolligi bo'yicha ozaro farqlanadi. Bu jihatdan ular faol (aktiv) va nofaol (passiv) murojaat shakllariga ajratiladi. Faol murojaat shakllari hozirgi kunda adabiy va sozlashuv tilida keng qo'llaniladi. Ayni vaqtda faol murojaatlar nutqda odatiy sozlarga aylanib ulgurgan. Bu kabi murojaat shakllarining asosini oila-urug'chilik maydoniga doir so'zlar tashkil etadi.

Oyijon! Nima gap? Xat keldimi? (G'oliblar).

Nofaol istemolda bo'lgan murojaat shakllariga mansub so'zlarning ko'pchiligi bugungi kunda nisbatan kam qo'llaniladigan eskirgan so'zlardir. Bunday murojaatlarga, odatda, tarixiy kasb-hunarga, saroy hayotida qo'llangan so'zlarni kiritish mumkin.

Boldi-e, juvozkash-e, boldi-e! (Ot kishnagan oqshom)

Hazrati oliylari, yana chopar yuborishga farmon berurlarmi?

(Yulduzli tunlar).

VI. Murojaat shakllarini tasnif qilishda uning stilistik tomonlarini ham etiborga olish lozim. Bu jihatdan ular boyoqsiz (neytral) va boyoqdor murojaat shakllariga bo'linadi. Murojaat shakllarida uslubiy boyoqdorlik turli xil usullarda ifodalalanadi. Mano ifodalash jihatdan neytral bolgan, ya'ni boyoqsiz murojaat shakllarida, odatda, subyektiv baho mavjud bolmaydi. Ulardan farqli ravishda adresant nutqining boyoqdor murojaat shakllarida kelayotgan soz yoki ibora obrazlilik bilan boshlanadi nutqiy maqsad va vazifani yanada konkretlashtiradi

Murojaat ifodalovchi sozlarda boyoqdorlikni oshirish bilan erkalash, takidlash kabi modal manolarni yuzaga chiqaradi.

Rahmat, inim Mirishoq. Biron xizmat bolsa, tayyorman! boyvachchaning orqasidan qichqirib qoldi chol (Qutlug qon).

Faqatgina ism bilangina cheklanmay, inim sozining qollanilishi takidni, sozlovchining tinglovchiga yordam berishga tayyor ekanligini ifodalagan. Mana shu soz bilan ijobiy boyoqdorlik yuzaga chiqqan.

Qorning ochgandir, arslontoyim, paranchi va savatni ayvonga uloqtirib, - dedi kampir (Qutlug qon).

Bu gapdagi murojaatda esa birdaniga sozlovchining munosabati yuqori darajaga kotarilgan. Ham egalik, ham ikki erkalash manosini beruvchi sozlarning birgalikda kelishi ijobiy boyoqdorlikni oshirgan.

VII. Murojaat shakllari shakliy jihatdan ham tasnif qilinadi. Bu jihatdan murojaat shakllari ikki xil korinishga ega: sodda va murakkab. Sodda murojaat shakllari:

Xojayin, har yerda bir galva kotarasiz (Qutlug qon).

Odamxorlar!.. deb qichqirdi va u oldinga otildi (Opa-singillar).

Murakkab murojaat shakllarining imkoniyatlari sodda murojaat shakllariga nisbatan ancha kop. Chunki murakkab murojaat shakllarida adresantning adresatga bolgan munosabatini har tomonlama ochib berishga harakat qilinadi:

Olloning quli Kazangapning farzandi Sobitjon, mening chap tomonimda tur... (Asrga tatigulik kun)

Otilib bo'lgan bu jahannam tepkilar! Qamchi ko'zlari chaq nab,

g'azablanib gapirdi. (Mashal)

Bopti, qoravoylar, popuklar, yaqinroq kelinglar. (Dunyoning ishlari)

Odamlar-u odamlar, togda bitgan bodomlar, eshitmadim demanglar! (Ot kishnagan oqshom)

Xayr, ey, bearmon kezgan qirlarim,

Xayr, ey, yiroqqa qochgan so'qmoqlar. (A. Oripov Saylanma)

Yetti iqlimning shamsi anvori, zarofatliq podshohimiz Zahiriddin Muhammad Bobur Mirzo hazrati oliylariga duoyu ehtiromlarimiz bo'lg'ay!

(Saodat sohili)

Bu misollardan shuni anglashimiz mumkinki, sodda murojaat shakllari sifatlovchilar bilan kengayganda murakkab murojaat shakllari hosil bo'ladi.

Sozlashuv nutqida ham, badiiy asar tilida ham sozlovchi nutqiy muloqotining mazmuniy yaxlitligi saqlanadi, yani murakkab murojaat ifodasi shaklan murakkab bo'ladi, xolos.

VIII. Murojaat shakllari nutq uslublariga ko'ra xoslanishi bo'yicha ham tasnif etiladi. Bunda mavjud nutq uslublariga xoslangan barqaror etiket shakliy rasmiy uslubga xos. Barcha harbiy unvonlar atamaları ana shu tipga kiradi. Bunday uslubda boshqa uslublarga xos murojaat shakllari ham keng qo'llana beradi. Umuman, nutq uslublariga xoslanishi bo'yicha murojaat shakllari asosan quyidagi to'rt uslubda qo'llanishi kuzatiladi:

1. Sozlashuv uslubida: Bardammisiz, boboy? (Qutlug' qon)

2. Badiiy uslubda: O'g'lim, jigargo'sham, aytgin-chi nahot,

Achinmaydi joning onang holiga. (M. Yusuf Onamdan xat)

3. Rasmiy uslubda: Oquvchi Qurbonov, senga aytyapman! (T. Murod Ot kishnagan oqshom")

4. Publitsistik uslubda: Muhtaram radiotinglovchilar! dedi muxbir.

(Momo Yer qo'shig'i).

IX. Tarixiylik jihatidan murojaat shakllari yangi va eskirgan shakllarga bo'linadi.

Hazrat begim! Shahzoda! Tezroq chiqinglar! (Yulduzli tunlar)

Ortoq serjant, leytenant bu yerdan uzoqdami? (Oqsoq bori)

Bundan tashqari, murojaatlarda qarg'ish so'zlarning ham ifodasini kuzatishimiz mumkin. Ularni shartli ravishda ezgulikka yog'rilgan qarg'ish so'zlar hamda duoyibad (yomon niyat) murojaatlarga ajratish mumkin.

Ezgulikka yog'rilgan qarg'ish so'zlar orqali murojaatda so'zlovchining tinglovchi yoki borliqqa bo'lgan xayrixohligi, kuchli his-hayajoni, nutq qaratilgan shaxs yoki predmetga ijobiy nazar bilan qarashini ko'rishimiz mumkin:

Hoy oqsoqollar, baraka topkurlar, astaroq gaplashinglar, eshitishga xalaqit beryapsizlar, dedi kimdir. (Goliblar)

Voy uyingga bugdoy tolgurlar, voy kopaygurlar, kela qolinglar, deydi ovozi tovlanib. (Dunyoning ishlari)

Ha, boyingdan momong aylansin, oynay ber, ozim kelin qilaman!

(Ot kishnagan oqshom)

Hech kimga aytmang, olayjon. (E. Azam Guli guli)

Barakalla, tasadduq! deydi Ermon buva jilmayib. Umringizdan Baraka toping... (Dunyoning ishlari)

Duoyibad murojaatlarda esa so'zlovchining birinchi o'rinda qattiq nafratlanish, jirkanish kabi tuyg'ularni anglaymiz:

Muncha xor qildinglar lahatga kirgurni, juvon olmagurlar!..

(Opa-singillar)

Imoning kuygurlar! Bir momin bandani oldirasanmi! dedim.

(Ot kishnagan oqshom).

Ozbeklar muloqot madaniyatiga xos katta yoshli suhbatdoshlarga hurmat murojaat shakllari orqali ham ifodalanadi. Ozbek muloqot xulqida, asosan, katta yoshli kishilarga siz lab murojaat qilinadi. Bunday holat begona kishilarga murojaat qilishda ham uchrab turadi. Sen/siz shakllarining almashinishi ijtimoiy vazifa-mavqelarning ozgarishi bilan korinadi: shunchaki tanish bolgan kishilarning qadrdonlashishi, sharoitning rasmiydan norasmiyga otishi yoki aksincha." Bundan tashqari, yoshi katta sozlovchilar nutqidagi murojaat shakllari o'zining mano boyoqdorligi bilan ham xarakterlanadi. Ular nutqida botam, arslonim, toychogim, jonim, bolam, farzandi aziz, sher ogil kabi murojaat shakllari hamda tinglovchining ismiga xon, jon kabi qoshimchalarni qoshish holatlari uchraydi.

Tilning turli tomondan har xilcha o'rganilishi tilning takomiliga yuqori darajada o'z hissasini qo'shadi. Shu manoda Z. Akbarovning tasnifi va yuqoridagi turlardan kelib chiqib, insonga murojaat shakllarini quyida turlicha tasnif qildik:

Qarindoshlik nomlari bilan bog'liq murojaat vositalari genetik xususiyatga ega bo'lib, ushbu tasnif ham o'z ichida quyidagicha bo'linadi.

Yaqin qarindoshlar nomlari bilan bog'liq murojaat vositalari

Oyi, domlamiz ikki so'm pul olib kelinglar deb buyurdi... (Oybek Bolalik qissasi)

Yaqin qarindoshlik nomlari bilan bog'liq murojaat vositalari avtobiografik jihatdan xarakterli bo'lib, yaqin qarindoshlar yani oila azolariga qilinadigan murojaatlardir. Murojaatning ushbu shaklini ham o'z ichki guruhlariga bo'lgan holda quyidagicha ifodalash mumkin.

Otaga murojaat (padarim, padari buzruvorim, valadim, dada, ada, ota)

Dadachi, dada, enam bugun sizga uch qozon palov damlab qoydilar.

(O'. Hoshimov Ikki karra ikki besh qissasi)

Tirikchilik-da, qanday qilay, ota? (Oybek Bolalik qissasi)

Yuqoridagi shakllar umumiy nom ostida otaga murojaatni ifodalasa-da, turli ichki semalari bilan bir-biridan farq qiladi. Xususan, padarim, padari buzruvorim, valadim badiiy-nazmiy nutq uchun xoslangan bolib, fors va arab tillaridan ozlashgan sozlardir. Qolganlari (dada, ada, ota) sof ozbekchadir. Ular ichida bosh dominanta soz ota bolib, dada va ada bir sozning turli korinishlari sifatida sozlashuv uslubida keng qollaniladi.

Dadachi, dada, enam bugun sizga uch qozon palov damlab qoydilar.

(O. Hoshimov Ikki karra ikki besh qissasi)

Onaga murojaat (volidam, volidayi muhtarama, ona, oyi, aya, ena)

Qarang, oyi, yetti ogayni orasidagi eng yorug' yulduz- meniki...

(O'. Hoshimov Dunyoning ishlari qissasi)

Ena, men ham boray, qarashaman... (Sh. Xolmirzayev Zov ostida adashuv hikoyasi)

O'zbek xalqida onaga murojaatda muloyimlik, yaqinlik, erkalash manolari ustunvor bolib, murojaat shakllarida kichraytirish-erkalash, egalik morfemalari qo'shilish holatlari mavjud. Yuqoridagi shakllardan volidam, volidayi muhtarama, shuningdek, erkalash, mehribonlik manosida mushtiparim, mehribonim kabi murojaatlar badiiy nutq uchun xoslangan bo'lib, oyi, aya, ena shakllari esa so'zlashuv nutqi uchun xosdir. Ona leksemasi dominantadir.

Qarang, oyi, yetti og'ayni orasidagi eng yorug' yulduz- meniki...

(O'. Hoshimov Dunyoning ishlari qissasi)

Ena, men ham boray, qarashaman... (Sh. Xolmirzayev Zov ostida adashuv hikoyasi)

Akaga murojaat (aka, og'a)

Qoying, akajon, dedi Naima. (Sh. Xolmirzayev Kechagi kun kecha hikoyasi)

Opaga murojaat (opa)

Opa, toy-ku, nima qilib ishlab otiribsiz? (Oybek Bolalik qissasi)

Ukaga murojaat (uka, ini)

Yur, ukam, mashinada tikishni orgataman. (Oybek Bolalik qissasi)

Singilga murojaat (singil)

Singlim, sharm-hayoning vaqti emas (Sh. Xolmirzayev Kechagi kun kecha hikoyasi)

Boboga murojaat (bobo, buva, doda)

Qayoqqa boramiz, buva, Mirahmad buvaning oldigami? (Oybek Bolalik qissasi)

Buviga murojaat (buvi, momo, bibi)

Buvijon, ish kop, juda zerikdim. (Oybek Bolalik qissasi)

Momo, vaqtim ziq, sizdan bir narsa soray deb keldim. (Sh. Xolmirzayev Ahad Mirzo yig'ladi hikoyasi)

Er-turmush ortoqqa murojaat (dadasi, adasi, (bolalarimning) otasi, bobosi)

Dadasi, endi tuzukman, qizimni saharlari uygotmang. (A. Qahhor Bemor hikoyasi)

Shuningdek, ayol tomonidan eriga qilinadigan murojaatlarda hurmat yuzasidan ismi aytilmay balki, Ozbekistonning bazi hududlarida katta ogilning ismiga otasi murojaat shakli qoshib aytiladi.

Ayol-turmush ortoqqa murojaat (onasi, ayasi, enasi, xotin, azizam)

Qaysi gordan paydo boldi u? Otib o'ldiraymi, onasi.

(Sh. Xolmirzayev Ukki sayrayapti hikoyasi)

O'g'il farzandga murojaat (o'g'lim, ulim, bolam, kenjatoyim, chirog'im)

Abror, qolga suv ol, oglim. (A. Qahhor Asror bobo hikoyasi)

Men ogirlik qiloyotganim yoq-ku, bolam. (O. Hoshimov Dunyoning ishlari qissasi)

Qiz farzandga murojaat (qizim, bolam)

Ozingni teja, qizim, orningni qalin qilib burkanib yot, terlasang yorisharsan, qizim. (A. Qodiriy Otkan kunlar romani)

Yaqin qarindosh nomlari bilan bogliq murojaat vositalarida hurmat, ehtirom, erkalash, ovutish, kabi yashirin semalar mavjud bolib, bu kontekst sharoiti va murojaatdagi turli morfemalar bilan yuzaga chiqadi. Xususan, yaqin qarindoshlarga murojaatlarga egalik va kichraytirish-erkalash morfemalari qoshilishi xarakterlidir. Farzandlarga murojaat doimo egalik morfemasi bilan ifodalanadi (oglim, bolam, qizim)ki, bu farzandni erkalash, suyish kabi semalarni ifodalaydi. Lekin ota-ona, bobo-buviga murojaatda egalik morfemalari qollanilmaydi (ota, dada, ona, oyi, bobo, buvi). Sabab ozbek xalqi tarixan ota-ona, bobo-buvilariga nisbatan itoatkor munosabatda bolishgan ushbu holat ish-harakatlar orqali oz tasdigini topganidek, sozlarda, xususan, murojaatlardayam namoyon bolgan.

Uzoq qarindoshlar nomlari bilan bogliq murojaat vositalari

Amaki

Amaki, hikmatli gaplar kop ekan. (Oybek Bolalik qissasi)

Amma

Qani, fотиha bering, amma. (Oybek Bolalik qissasi)

Tog'a

Toga, men darrov kelaman! (Sh. Xolmirzayev Ukki sayrayapti hikoyasi)

Xola

Nima qilib qoydingiz, xola (O. Hoshimov Toylar muborak dramasi)

Jiyan

Qani, jiyan, nonni tograb shorvani urib oling. (Oybek Bolalik qissasi)

Qarindoshlik nomlari bilan bogliq murojaat vositalari tilshunoslik uchun alohida katta mavzu bo'lgan qarindosh-urug terminlari bilan bevosita bogliq bo'lib, qarindoshlik nomlarini ayrim tilshunoslar ikki guruhga ajratadilar:

a) qon-qarindoshlik otlari: aka, amma, amaki, bobo, buvi, jiyan, nevara, ona, opa, ota, singil, tog'a, uka, xola, chevara, evara, o'g'il, qiz;

b) nikoh qarindoshligi otlari: boja, kelin, kuyov, ovsin, pochcha, xotin, er, yanga, qayin, quda, qayliq, o'gay.

Quda, bu ishning shundoq bo'lishini kim biluvdi, deysiz.

(S. Ahmad Poyqadam hikoyasi)

Yanga, upangizdan bering. (S. Ahmad Cho'l burguti hikoyasi)

Kelinjon, chiroqni kechgacha yoqmanglar (O. Muxtor Egilgan bosh)

Pochcha, siz nima qilib turibsiz bu yerda? (O. Muxtor Egilgan bosh)

Shundaymi, unda, maylingiz. Ozi, kelin qayerda, quda?

Ay, qaynim-e, ay, kalla-e! (T. Murod Ot kishnagan oqshom)

Qarindosh bolmagan shaxslarga qarindoshlik nomlari bilan murojaat

Sozingizga tushunolmadim, ota, - dedi,- shundog bolsa ham javob beraman: bu kungacha siz yolgiz meninggina emas, bizning oilamizga otaliq mavjida turib, yaxshiliqdan boshqani soginmay kelasiz. (A. Qodiriy Otkan kunlar romani)

Tilimizda qarindosh bolmagan shaxslarga qarindoshlik nomlari bilan murojaat qilish holatlari keng uchraydiki, buning oziga xos leksik-semantik jihati notanish bolmagan kishiga murojaatda I shaxs-sozlovchi tomonidan II shaxs-tinglovchiga qarindoshdek murojaat qilinib, avvalo, unga bolgan hurmat-ehtiromni ozida aks ettiradi va shuningdek, mulqotning mazmuni bolgan ish-harakatni tez va oson hamda ozining foydasiga hal qilish manosi ham mujassam boladi.

Mazkur holatda murojaat shakllari kommunikantlarning jinsi, yoshiga qarab tanlanadi:

Siz ham biz bilan birga bolingiz, quvonchli bu... dedi u va uyalgansimon kulib, yerga qaradi.

Rahmat, singlim, titrab gapirdi Sultonmurod, to'ylaringga borurmen... Baxtlaring quyoshdek porloq bo'lsin, xayr! (Oybek Navoiy romani)

Keltirilgan dialogdan korinib turganidek, erkak tinglovchi tomonidan qarindosh bolmagan ayol tinglovchiga nisbatan singlim qarindoshlik termini qollangan. Sozlovchi yoshining tinglovchi yoshidan katta ekanligi ana shu kabi murojaat shaklining ishlatilishini talab qilib turadi. Agar tinglovchi bilan sozlovchi ortasida qarindoshlik munosabati mavjud bolsa, ularning ismi murojaat shakli sifatida qollanilishini kuzatish mumkin.

Katta yoshli erkaklarga murojaatlarda tog'a, amaki, keksa yoshlilarga nisbatan bobo(buva), doda, (hurmatsezlik manosida) boboy, qariya shakllari ishlatiladi. Kichik bolalarga bola(kay), yigitcha, o'smir yoshli va undan katta yoshli yigitlarga yigit, polvon shakllari qo'llanilib, bu shakllar ham shartlidir, chunki murojaatda turli yoki bir xil yoshdagi, turli yoki bir xil mansabdagi, jinsdagi kishilar murojaatida shakllar ham turlicha bo'ladi. Biz faqat umumiy bo'lgan jonli sozlashuv tilidagi holatlarni keltirdik, xolos. Jumladan, tengdosh yoshdagi yigitlar bir-biriga oshna, o'rtoq, do'st, bo'la shakllari bazan esa aka yoki uka kabi murojaat shakllaridan foydalanadilar.

Idora va ishxona xodimlari nutqida qo'llaniladigan murojaat vositalari asosan, **kasb va unvon nomlari asosida yuzaga kelib, rasmiy xarakterdagi, turli emotsiya va bo'yoqdorliklardan xoli bo'lgan**

murojaat shakli, uning tasnifi quyidagicha:

Kasb-hunar bilan bog'liq murojaat vositalari

Haqiqatan, o'rtoq shoir **13**, juda qiziq kinokomediya qilish mumkin.

(A. Qahhor Kartina hikoyasi)

Murojaatning ushbu shaklini har bir kasb yoxud hunar bilan bog'liq murojaat shakllari sifatida kichik guruhlariga ajratish mumkin.

Mansab-unvon bilan bog'liq murojaat vositalari

Rais bobo, yoshingiz nechada a?

(Sh. Xolmirzayev Ogir tosh kochsa hikoyasi)

Organ xodimlari nutqida qollaniladigan murojaat vositalari

Xosh, ortiq komandir, qanaqa kino kordingiz? (A. Qahhor Toy hikoyasi)

Oziga xos xususiyatiga kora murojaatlar

1. Yosh xususiyati bilan bogliq murojaat vositalari (bola(kay), yigitcha, yigit, qariya, chol, qizcha, qizaloq, juvon, kampir)

Ey, qariya, charchading, bas. (Oybek Bolalik qissasi)

2. Shaxs ismlari bilan bog'liq murojaat vositalari

Fahriddin, bir martaba borib eshikdan qalaysan deb kelsangiz bolmaydimi? (A. Qahhor Boshsiz odam hikoyasi)

3. Tashqi korinish bilan bogliq murojaat vositalari (semiz, oriq, jingalak, silliq)

Nafasing qursin, cho'tir. (Oybek Bolalik qissasi)

Man araqni sening pulingga ichibmanmi, go'rso'xta, padles

(Oybek Bolalik qissasi)

Ijtimoiy xususiyatiga ko'ra murojaat vositalari (boy(vachcha), begim, xo'jam, kambag'al, faqir, gadoyvachcha)

Yo'q, begim, ikki ko'zdan ajragan kambag'alning orzusi andoq bo'lmaydi

(A. Qahhor Ko'r ko'zning ochilishi)

Xarakter xususiyatiga ko'ra murojaat vositalari (bilag'on, aqlli, ahmoq, tentak, xumpar, ayyor, tulki, shumtaka)

Qorqmaysan, shumtaka, darrov ot bu yoqqa. (Oybek Bolalik qissasi)

I BOB BO'YICHA XULOSA

Tilning asosiy funksiyasi ham, bundan tashqari qator vazifalari ham u yoki bu darajada, albatta, murojaat bilan boglanadi. Masalan, apellyativ vazifa chaqiruv bevosita murojaat bilan aloqadordir. Chaqiruv tinglovchiga qaratilgan boladi va bu orqali u nutqni eshitish hamda qabul qilishga chaqiriladi. Aloqa ornatish (kontaktoustanovlivayushaya) funksiyasi zaminida ham murojaat bilan bogliq tushunchalar yotadi: bu vazifa tinglovchini xabar malumotni qabul qilishga tayyorlash, uning etiborini tortish orqali bajariladi. Umuman tilning barcha vazifalari kommunikativ, emotiv, volyuntativ, aloqa ornatish sotsiativ, reprezentativ funksiyalari sozlovchi va tinglovchi orasidagi turli tuman munosabatlarni ifodalaydi. Chunki til har doim fikr uzatish (bu sozlovchi uchun) hamda fikr qabul qilish, anglash (bu tinglovchi uchun) vositasi bolib kelgan.

Murojaatning mazmunan har xil shakllanishi quvonch, qorqinch, gina, iltifot, nafrat kabi mano ottenkalari qoshilgan holda ifodalanishi eng avvalo ijtimoiy muhit va sharoitdan kelib chiqadigan munosabatga bogliq. Til esa ana shu munosabatni qanday bolsa oshanday, asliga mos holda royobga chiqishi uchun vosita boladi **1**.

Tilning turli tomondan har xilcha o'rganilishi tilning takomiliga yuqori darajada o'z hissasini qo'shadi. Shu manoda Z.Akbarovanning tasnifi va korsatilgan turlardan kelib chiqib, insonga murojaat shakllarining tasnifi ham mazkur bobda keltirilgan.

Bulardan tashqari birinchi bobda murojaat va undalma terminlari haqida alohida toxtalinib, ularning farqli va oxshash tomonlari haqida ilmiy ma'lumotlar berilgan va fikrlar bildirilgan.

Xullas, murojaat shakllari insonlar ortasidagi ijtimoiy munosabatni, yosh darajasini ifodalaydi. Murojaat shakli sifatida qollangan soz va sozlar qoshilmasida malum bir davr ijtimoiy mazmuni ham aks etadi. Ular orqali biz nutq qaratilgan obyekt haqida ma'lumotlar olamiz. Ayniqsa, sozlovchining unga bolgan subyektiv munosabati bahosini bilishimiz mumkin.

II BOB. RASMIY MUROJAAT VOSITALARI VA ULARNING TASNIFLANISHI

2.1. Rasmiy uslub va unda murojaat vositalarining qollanilishi

Yuqorida murojaat vositalarining turli u yoki bu jihatlariga kora tasniflarini keltirdik. Shuningdek, murojaat vositalarini yana har xil tasniflar asosida ichki guruhlariga ajratish mumkin. Zero, shu yosinda til ozining keng qamrovli takomiliga ega bolib boradi. Quyida murojaatlarni umumiy tasniflarini keltirdik.

Gender jihatdan:

Erkaklarga murojaat

Ayollarga murojaat

Tabiatiga kora:

Yozma

Ogzaki

Elektron

Janriga ko'ra:

Sheriy

Nasriy

Qollanish doirasiga kora:

Hududiy

Milliy

Xalqaro

Maqomiga kora:

Rasmiy

Norasmiy

Korinib turganidek, tilimizda murojaatlar keng qamrovli bolib, ularni organish katta ilmiy tadqiqotlarga sabab boladi. Shu jihatdan, biz faqat murojaatlarning maqomiga kora rasmiy guruhiga kiruvchi rasmiy murojaatlar haqida toxtalish bilan cheklandik. Shunga muvofiq, avvalo, rasmiy uslub va unda qollaniladigan murojaatlar yuzasidan quyida malumotlar beramiz.

Rasmiy-doraviy **13** nutq uslubi jamiyatdagi ijtimoiy-huquqiy munosabatlar, davlat va davlatlararo rasmiy siyosiy-iqtisodiy, madaniy aloqalar uchun xizmat qiluvchi uslubdir. Bu uslub hujjatchilik xarakteri bilan ajralib turadi. Shunga kora yozma nutqning xizmatga doir bu turi davlat qonunlari **9**, farmonlar, bayonotlar, shartnomalar **3**, elonlar idora hujjatlari va boshqa rasmiy yozishmalar uslubi hisoblanadi. Rasmiy uslub tilining asosiy xususiyati aniqlik va ixchamlikdir, unda muayyan nutqiy qoliplar, kasb-hunar sozlari, atamalar, tayyor sintaktik qurilmalar keng **9** qollanilib, nutqning aniq va ravshan ifodalanishini **5** taminlaydi. Tayyor nutq qurilmalari (shu asosda: shunga kora **9**; malum qilamizki; ...ni etiborga olib; ...ga kora; ...biz, quyida imzo chekuvchilar; ...ga asosan (muvofiq); ...uchun; ...dan kelib chiqib; ...sharti bilan; ...berilsin; ...taqdirlansin kabi) hujjat matnining darak-hikoya **9** xarakterda bolishini, sozlarning bir **9** manoda ishlatilishini, badiiy-tasviriy vositalarning bolmasligini **9**, felning majhullik, buyruq-istak shakllarining **3** qoshma gap turlarining keng **9** qollanilishini talab qiladi. Til materiali hujjatning turi va xarakteriga qarab tanlanadi.

Yozma nutqning rasmiy uslubida, asosan, quyidagi munosabatlar doirasidagi hujjatlar tuziladi:

Huquqiy munosabatlarga oid: qonun, fuqarolik va jinoyat aktlari nizom, shartnoma va boshqalar

Idoraviy **5** -mamuriy shaklga oid: dalolatnoma, buyruq **3**, farmoyishlar, turli ish **3** qogozlari (ariza, tavsiyanoma, tilxat **3**, malumotnoma kabi).

Diplomatik munosabatlarga doir: bayonot **5**, bitim, nota, memorandum va boshqalar **5**.

Rasmiy xatlarda bayon qilingan fikr mantiqiy izchillikda ifodalanishi, yetarli dalillar bilan asoslanishi va xulosalanishi lozim. Zarur holatlarda **3** orinli etiroz va takliflar bildirilishi mumkin. Ammo mutasaddi rahbarga nisbatan hurmat saqlanishi, murojaat odobiga amal qilinishi zarur. Shu maqsadlarda **3** :

rahbar murojaat shakli Siz **3** sozini bosh harfda yozish orqali ifodalanadi **3** (Sizdan, Sizga kabi);

fikriy bogliqlik bu, ushbu, mazkur, shu sababli shunga kora (muvofiq) sozi bilan taminlanadi;

takli va etirozlar bizningcha, shartnomaga kora, biroq, shu bilan bir qatorda, deb oylaymiz kabi soz va soz birikmalari orqali ifodalanadi.

2.2 Rasmiy murojaatlarning ichki semalariga kora tasnifi

Rasmiy murojaatlar - davlat va jamoat rahbarlarining ozaro rasmiy uchrashuvlardagi suhbatlarida, yig'inlarida, yozishmalarida, tashkilot, idora, ofislarda rahbar va ishchi xodimlar ortasidagi muloqot jarayonida, kopgina rasmiy hujjatlarda, shuningdek, notanish kishilar ortasidagi muloqotning boshlanish jarayonida turli emotsiyalardan (faqat hurmat manosidan tashqari) holi ravishda qollaniladigan murojaat shakllaridir.

Muhtaram Vladimir Vladimirovich!

Hurmatli davlat rahbarlari!

Hamdostlik davlatlari sammiti ishtirokchilarini qutlashga va Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Vladimirovich Putinga samimiy qabul va mehmondostlik, shuningdek, uchrashuvimiz yuksak darajada tashkillashtirilganligi uchun chuqur minnatdorlik bildirishga ijozat bergaysiz.

(Ozbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Mustaqil Davlatlar Hamdostligi davlat rahbarlari kengashi majlisidagi nutqidani).

Yuqoridagi misolda Muhtaram Vladimir Vladimirovich! Hurmatli davlat rahbarlari! rasmiy murojaat bolib, unda aynan murojaat shaklidan oldin muhtaram, hurmatlidedk hurmat-ehtiromni ifodalovchi leksemalardan foydalanilyaptiki, bu ushbu murojaat turining oziga xos jihati hisoblanadi. Rasmiy murojaatlar, umuman, murojaatlar yoki undalmalar orniga kora gap boshida, gap ortasida va oxirida kelishi mumkin bolib, nutq vaziyati, kontekstning sharoitiga nisbatan kop orinlarda namoyon boladi va bu holat turli mano qirralari bilan bir-biridan farq qiladi. Xususan, undalmalar gap boshida kelsa, murojaat, chaqiriq manosini ifodalab, shu ohangda aytiladi. Gap ortasida kelganda kirish soz intonatsiyasiga yaqin, tez va past ohangda talaffuz qilinadi. Oxirida kelgan undalmalarda pauza bolib, xabar, ogohlantirish ohangi bilan aytiladi. Qiyoslang:

Aziz birodarlar, vatan yagonadir, vatan bittadir. (I. Karimov)

Siz, ortoq serjant, miltigingizga devona torvasiga yopishganday olibsiz.

Usta parashyotchi, mohir toquvchi bolasiz, Bashoratxon.

Soroq gap oxirida keluvchi undalma birinchi yuqori talaffuz qilinadi va undalmadan oldin qisqa pauza (toxtam) boladi.

Qayoqqa shoshilyapsiz, mayor?

Sizlar kim bolasiz, yigitlar?

Yuqorida aytilganidek, murojaatlarning kelish orni nutq vaziyatiga bogliq, shu manoda, davlat va tashkilot rahbarlari xodimlarga nisbatan qollaydigan rasmiy murojaatlar, shuningdek, turli rasmiy uchrashuvlar, yig'ilishlar, sessiyalarda tinglovchilar uchun foydalaniladigan murojaatlar gap boshida keladi, chaqirish, murojaat, davat etish kabi manolarni ifodalaydi va bu holat kontekst, nutqning tarkibida ham takrorlanib turadi.

Rasmiy murojaat vositalari quyidagi korinishlarda namoyon boladi:

ijtimoiy mansublik;

Oling, dehqon aka!.. (Oybek Qutlug' qon romani)

kasb-hunar nomlari;

Janob sudya, siz bo'ladigan gapni ayting. (Sh. Xolmirzayev Ikki jahon ovora hikoyasi)

mansab-unvon nomlari;

Menga qarang, Rais aka, sizga hech kim azob berayotgani yo'q. (S. Ahmad Azob hikoyasi)

suhbatdoshlarning tanish notanishligi;

Keling, mehmon, yo'l bolsin? (S. Ahmad Iqbol chiroqlar hikoyasi)

shaxs ismi, familiyasi va otasining ismi bilan;

Biz tuproqdan tashqari odammiz, Juma Nazarovich, yashirayotganim yoq (O. Muxtor Egilgan bosh romani)

Rasmiy murojaatlarni organar ekanmiz, avvalo, ularni diaxron va sinxron jihatdan

tarixiy rasmiy murojaatlar

zamonaviy rasmiy murojaatlar kabi tiplarga ajratish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Tarixiy-rasmiy murojaatlar:

Rahmat fuqaro! Orqamda sizningdek fuqarom turganda menga hech bir qaygu yoqdir! (Oybek Navoiy)

Tarixiy murojaat sozlar ozbek leksikasining tarixiy so'zlar guruhiga kirgani holda ularni ham 2 ga ajratish muhim ahamiyat kasb etadi:

Istorizmlar, yani hozirgi jonli sozlashuv tilida qollanilmaydigan, malum bir davrga xos bolgan rasmiy murojaat shakllari bolib, ular quyidagi korinishlarda namoyon boladi:

Siz kim Kumushbibi Mirzakarim qizi, ozingizni toshkandlik, musulmon Otabek Yusufbek hoji ogliga bagishlamoq vakolatini amakingiz Muhammadrahim Yoldosh ogliga topshirdingizmi?

Taqsir, sizga arz bor. (Otkan kunlar)

Tez bo'ling, Bek afandi! degan hokimona tovushi eshitildi. (Mashal)

Hazrati oliylari, yana chopar yuborishga farmon berurlarmi? (Oybek Navoiy)

Amirzodam, hozirgina bir mashqdan chiqdingiz. Boshqa mushkul mashqlarni ertaga qoldiring. (Oybek Navoiy)

Mirzom!.. Tangri sizga quwat bersin! Endi bizning pushti -panohimiz o'zingizsiz! Ikki tarafimizni yog'iy bosgan. (Oybek Navoiy)

Janob eshik og'a, ijozat bering, kamina Bobur mirzo huzurlariga kiray!

Janob amirlar, sizlarning fikrlaringiz qalay? (Oybek Navoiy)

Mulla Fazliddin, yog'iy kelsa po'lat sandig'ingizni tinch qo'ymas, dedi pochchasi. (Oybek Navoiy)

Hazrat shoh, tuni bilan qor boroni ichida muzlab qolishdan qorqmaysizmi? (Oybek Navoiy)

Hazrat begim! Shahzoda! Tezroq chiqinglar! (Yulduzli tunlar)

Istorizm xususiyatli tarixiy murojaat sozlarni shartli ravishda quyidagicha guruhlash mumkin:

1. Ijtimoiy-siyosiy nomlar: podshoh, vazir, qul, qarol.

2. Mansab, unvon, lavozim nomlari:

a) yuqori darajadagi unvon va mansablar: qozikalon, miroxor (podshoh otboqarlarining boshligi), parvonachi (podshoh farmonlarini yozib oluvchi va ishlar boyicha podshohga maruza qiluvchi amaldor), muhrdor, dorugayi kutubxonai humoyun (podshoh kutubxonasining boshligi), beklarbegi (viloyat va katta shaharlarning boshligi), shayx ul-islom (diniy ishlar boyicha amaldor), doruga (shahar idorasi boshligi, bosh mirshab), muhtasib (diniy ishlarning musulmonlar tomonidan bajarilishini taftishlab yuradigan mamur), dorugayi kabutarxonai humoyun (podshoh kabutarxonasining boshligi), sadr (vaqf va diniy ishlarni boshqaruvchi mamurlar), bosh haram ogasi (haramdagi xotin-qizlarni kuzatib yuruvchi bichilgan qullar boshligi), qala begi (qala boshligi), boyon (boylar), sohibi devon (mahkama boshqaruvchisi).

b) quyi lavozimlar: eshik ogasi, muboshir (soliq yiguvchi), ichkilar (saroy yumushlarini bajaruvchi maxsus beklar), yasovul (qurolli soqchi, posbon), tovonchi (dasturxonchilar, ziyofatni boshqaruvchi), mirob (suv taqsimotini nazorat qiluvchi shaxs), oqsoqol (qishloqqa boshliq bolgan amaldor), chopar, mulozim, kanizak, gunchachi, zakotchi.

c) unvonlar: mahd ulyo (xon yoki amirlik oilasidagi ayollarga berilgan unvon), mutamid ul-saltanat va muimtan ul-mamlakat (podshohlik va mamlakatning ishonchli odami).

Shuningdek, o'tgan asrda davr nuqta nazaridan qo'llanilgan raykom, obkom, partkom, kolxozchi, grajdanin, pioneer kabi leksemalar.

O'rtoq kolxozchilar! Tushining axir! Orif oqsoqolni hammamiz hurmat qilamiz! (O'. Hoshimov Ikki eshik orasi)

Xo'p boladi, raykom bobo! (Sh. Xolmirzayev Biz kech qolib yuramiz)

Bo'pti, o'tavering, grajdanin. (O'. Hoshimov Musofir bo'lmaguncha)

Mana, ozingiz ayting, ortiq partkom, sira u kishini kondirolmayapmiz

(S. Ahmad Chol burguti)

3. Kasb-hunarni ifodalovchi istorizmlar: aslahafurush (qurol-yarog sotuvchi), mudarris (madrasada dars beruvchi), bakovul (oshpaz), muarrix (tarixchi), sahhof (muqovachi), bazzoz (gazlama sotuvchi), halvofurush, munshiy (kotib), muganniy (cholguchi), bozchi, kosib (mayda hunarmand), kafshdoz, jomadoz (tikuvchi), kosagar, baqqol (mayda mollar sotuvchi kichik savdogar), soqiy (may quyuvchi), sarroj (ot asboblari yasovchi hunarmand), hakimi hoziq (usta tabib).

b) Arxaizmik rasmiy murojaatlar tarixiy taraqqiyot natijasida oz lugaviy manosini biroz o'zgartirgan yoki yangi mano kasb etgan murojaat sozlardir. Tarixiy murojaatning ushbu turi nisbatan kamsonli bolib, quyidagilar misol bola oladi.

Ijtimoiy-siyosiy nomli arxaizmlar: vazir, hokim.

Mansab, unvon, lavozim nomlari: xazinabon, mirob, mudir(a), oqsoqol, rais,

Rais bova, Xolyor polvonga duo bering ukasining ori uchun olishsin!

(T. Murod Yulduzlar mangu yonadi)

Balki uch hissa oshirarmiz, rais. (O. Hoshimov Ikki eshik orasi)

Korib turibsiz, oqsoqol. Zamon shunaqa

(O. Hoshimov Ikki eshik orasi)

Kasb-hunarni ifodalovchi istorizmlar: bakovul, bozchi, baqqol, kosib, kotib(a),

Fikringni aniqlab, takliflaring bilan kelmaysanmi, kotib?

Muxtor Chinor romani)

Ay bakovul, shunday haq olib yegandan ko'ra, ko'chadan... terib

yesalaring bo'lmaydimi? (Ot kishnagan oqshom)

Insof qiling, baqqol aka! qichqirdi Yolchi. (Qutlug qon)

Zamonaviy-rasmiy murojaatlar:

Ortoq serjant, leytenant bu yerdan uzoqdami? (Oqsoq bori)

Hamidov muallim, bu qanday mashina bo'ldi? dedim.

(Ot kishnagan oqshom)

Nimaga o'z ukalaringiz chetda qoldi, ellikboshi, shu ham insofmi?

(Qutlug' qon)

Oliy mehmon, siz g'aroyib bir hodisaniing guvohidirsiz.

(Yulduzli tunlar)

Qadrli dostlar! dedi Joraboyev ornidan turib. (Goliblar)

Qanaqa garaz, o'rtoq Safarova? Nima deyaapsiz?

(P. Qodirov Qora kozlar).

Domlajon, shugina oqsin, odam bolsin, deymizda.

(Sh. Xolmirzayev Ikki ko'rgan bilish hikoyasi)

E, milisa bobo, biz yashirib nima qilamiz.

(Sh. Xolmirzayev Sirli militsioner)

Shoir, kecha ish chiqib qoldi, bugun kiraman

(Sh. Xolmirzayev Bodom qishda gulladi)

Doktor, kelasi gal oyisini olib kelsam, maylimi dedi u Azizaga ogirilib.

(S. Ahmad Zumrad)

Ish bo'ladi-yu, oson bo'ladimi, muallim. (T. Murod Momoyev qo'shig'i)

Ha, bali serjant Orziqulov, gap bunday bopti-da! (T. Murod Momoyev qo'shig'i)

Balki uch hissa oshirarmiz, rais (O'. Hoshimov Ikki eshik orasi)

Bu juda nozik masala, Juma Nazarovich. (O. Muxtor Egilgan bosh)

Muallim, meni kechiring (Sh. Xolmirzayev Bir ko'rgan tanish)

Qani, domlasi, otiring, ustalga otiring. (Sh. Xolmirzayev Ikki ko'rgan bilish)

Shunga ko'ra, zamonaviy-rasmiy murojaatlarni tematik jihatdan quyidagicha tasniflarga ajratdik:

Ijtimoiy mansubligiga ko'ra adresatning ijtimoiy holatidan kelib chiqib, qilinadigan murojaatlardir (boy, kambag'al, faqir, amirzodam, shahzoda, xoja, begim).

Amirzodam, hozirgina bir mashqdan chiqdingiz. Boshqa mushkul

mashqlarni ertaga qoldiring. (Oybek Navoiy romani)

Shuni aytish kerakki, rasmiy murojaatning ushbu turi hozirda kam qo'llanilib, asosan, tarixiylik jihati ustunvordir. Hozirgi jonli so'zlashuv tilida faqatgina eshon(bobo), xo'ja shakllaridan foydalaniladi.

Kasb-hunar nomlariga ko'ra tinglovchining (bazan otasining) kasbi bilan nomlash va u jonli sozlashuv tilida keng foydalanilishi bilan xarakterlidir.

Domla, Fuzuliyini bir gazali bor, magzini sira chaqolmadim.

(S. Ahmad Sarob hikoyasi)

Kasb-hunar nomlariga kora rasmiy murojaatlarni har bir soha yuzasidan oz ichki guruhlarga ajratib tasnif qilish mumkin. Jumladan, pedagogik soha (ustoz, domla, muallim, murabbiy, shogird, hurmatli oqituvchi/oquvchi va x.k.), yuridik soha (sudya, aybdor, advokat, prokuror), tibbiy soha(doxtir, hamshira, doya, jarroh, tabib) va boshqalar.

Mansab-unvon nomlariga ko'ra murojaatlar II shaxsning mansab va unvoniga kora nomlashdir (professor, rais, leytenant, mayor, kapitan, hokim, prezident).

Esimdan chiqibdi, ortoq leytenant.

(O. Hoshimov Telpak hikoyasi)

Rasmiy murojaatning ushbu turi boshqa murojaatlarga nisbatan keng va ommaviy bolib, xarakterli jihati mansab-unvon nomlari bilan qilinayotgan murojaatlar qollanilish doirasiga kora xalqaro xarakterdagi xorijiy sozlardan keng foydalaniladi. Tarkibiy jihatdan quyidagicha bo'lish mumkin:

Davlat boshqaruvidagi mansab-unvon nomlari bilan bog'liq rasmiy murojaatlar

Oliy davlat boshqaruvidagi mansab-unvon nomlari (Prezident, senator, deputat, spiker (qo'mita) raisi)

Quyi davlat boshqaruvidagi mansab-unvon nomlari (hokim, (mahalla) raisi, oqsoqol,)

Harbiy soha vakillarining mansab-unvon nomlari bilan bog'liq rasmiy murojaatlar leytenant, mayor, kapitan, podpolkovnik, general (mayor, leytenant) va x.k.)

Ilm-fan sohasi mansab-unvon nomlari bilan bog'liq rasmiy murojaatlar (professor, fan nomzodi, akademik)

Suhbatdoshning tanish-notanishlik jihatiga ko'ra tanish bo'lmagan shaxslar muloqotida foydalanilib, bunda adresatning turli o'ziga xos jihatlari orqali murojaat qilinadi.

Otingiz nimaydi, polvon (T. Murod Yulduzlar mangu yonadi qissasi)

Mullaka, doxtir nima demadimi? (T. Malik Vasiyatnoma)

U, e, birodar, mastmisan, majruhmi nima balo deb gudranganicha odamning yoniga bordi. (O. Muxtor Egilgan bosh)

Assalomu alaykum, opoqi, yaxshimisiz (O. Muxtor Egilgan bosh)

Xo-osh, yol bolsin, yigit? (Sh. Xolmirzayev Notanish odam)

Obbo, mendannima istaysiz ozi, amaki? (Sh. Xolmirzayev Notanish odam)

Siz, inim, Salim mo'ylovning jiyanimasmi? (Sh. Xolmirzayev Bir ko'rgan tanish)

Norasmiy murojaatlar kommunikantlarning turli emotsiya va munosabatlari asosida muloqot jaroyonini tashkil etuvchi murojaatlar shakllaridir.

Oyi, uch kundan keyin domlam bilan dalaga chiqamiz. (Oybek Bolalik)

Norasmiy murojaatlar rasmiy murojaatlarga zid bo'lib, uning qo'llanilish doirasi nisbatan kengroq. Uyda, kocha-kuyda, turli sharoit va vaziyatlarda asosan, tanish kishilar ortasida yuzaga chiqadi.

Men seni xo'rlatib qo'ymayman, ona qizim. (O. Muxtor Egilgan bosh)

Shuningdek, rasmiy murojaatlarni subektiv jihatdan tasnifini keltirish maqsadga muvofiq bolib, subektiv jihatdan murojaatlarni organish shartlidir, chunki murojaatlar II shaxsga qaratilib, uning xususiyatlari (ismi, yashash joyi, mansabi, unvoni, kasbi va boshqalar)ga nisbatan murojaat qilinishi tabiiy. Ammo turli yigirlarda, majlislarda, nutq sozlovchi, adresant o'zining kasb-kori, mansab-unvonidan kelib chiqqan holda adresatlarga murojaat qiladi va buni xodimlar murojaati, boshliqlar murojaati, shuningdek, prezident murojaati, vazirlar murojaati, tele yoki radioshou(vo)men murojaati kabi tiplarga ajratish mumkin.

Murojaat vositalari toifaviy jihatdan tahlil qilganda, bir-biriga teng darajadagi kommunikantlar orasidagi munosabat va teng bolmagan kommunikantlar munosabati tarzida ajratish mumkin. Bu Sh. Iskandarovanning tadqiqotida simmetrik va assimetrik munosabat deb qayd etiladi. Bunda, simmetrik muomalada mavqeyi jihatdan kommunikantlarning ikkisi ham bir xil orin tutsa, assimetrik muomalada esa kommunikantlarning biri boshqaruvchi boladi. Bu holat rasmiy murojaatlarni yuzaga chiqaruvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Rasmiy murojaat shakllarini tasniflashda shuni kuzatish mumkinki, ularning yuzaga chiqish orni va vaziyatlari muhim bolib, shu jihatdan quyidagicha ifodalash mumkin:

Yigilish va majlislarda foydalaniladigan rasmiy murojaatlar

Hurmatli majlis qatnashchilari! dedi u... biz nuqul ishni o'ylayvermay, insonlarga g'amxorlik qilishni bilishimiz kerak. (O'. Hoshimov Musofir bo'lmaguncha)

Bayram tadbirlarda qollaniladigan rasmiy murojaatlar

Qani, dostlar, adabiyotni qolga olish uchun choqishtiraylik (T. Murod Momoyev qoshigi)

Odamlar, uzoq-yaqindan kelgan aziz mehmonlar! (T. Murod Yulduzlar mangu yonadi)

Sud jarayonida qollaniladigan rasmiy murojaatlar

Shularni murosaga keltirib qoysangiz, kop savob ish bolardi, janob sudya.

(Sh. Xolmirzayev Ikki jahon ovora hikoyasi)

Organ tashkilotlari (Ichki ishlar vazirligi, Davlat xafsizligi agentligi, Prokuratura)da qollaniladigan rasmiy murojaatlar

Diniy vazlar oqiladigan joy (masjid, madrasa)larda qollaniladigan rasmiy murojaatlar

Tele va radiodasturlarda qollaniladigan rasmiy murojaatlar

Hurmatli tomoshabinlar. Kulib turgan yigitning quvonch tola kozlariga qarangi! (O. Hoshimov Omadli jentelmenlar hikoyasi)

Notanish kommunikantlar ortasidagi dastlabki suhbatlarda

Mehmon, biz sizning ismi-sharifingizni bilmaymiz, siz biznikini bilmaysiz.

(S. Ahmad Azroil otgan yollarda)

Rasmiy murojaatlarini turli ichki semantik jihatlarini batafsil yoritish maqsadida ularni oziga xos quyidagicha turlarga ajratib chiqdik:

Dunyoviy xarakterdagi rasmiy murojaatlar

Diniy xarakterdagi rasmiy murojaatlar bevosita din, diniy aqidalar bilan bog'liq bo'lib, o'zbek xalqi azal-azaldan islom diniga etiqod qilib kelgani holda rasmiy murojaatning ushbu turida qo'llaniladigan murojaatlar islom dini va arab tiliga oiddir. Zero, islom dini arab tili asosida shakllangan. Mulla, qori, imom va x.k

Diniy-rasmiy murojaatlar alohida katta mavzu hisoblanadi, oziga xos qollanilish tartibi mavjud. Uni otmishda va hozirgi kunda muloqot jarayonlarida qollaniladigan murojaatlar kabi tasniflash mumkin.

Otmishda qollanilgan diniy rasmiy murojaatlar: shayx ul-islom, xojai kalon, xalifa, alam oxund, sudur, oroq, naqib, mudarris, imom, imomi jilav, sofi jilav, qozi va x. k.

Hozirgi kunda qollanilgan diniy rasmiy murojaatlar: mulla, qori, imom va boshqalar.

Rasmiy murojaatlarni gender jihatidan organish mavzuning yanada ochib berilishini taminlagani holda biz aynan shu jihatlariga etibor qaratdik. Gender tushunchasi erkak va ayollarning psixologik, ijtimoiy va madaniy oziga xos xususiyatlarini nazarda tutadi. Insoniyatning uzoq yillik evolyutsiyasi jarayonida bu ikki qarama-qarshi jins oziga xos bo'lgan umumiylik hamda farqlarga ega bolib bordi. Natijada ayol va erkakni bir-biridan farqlovchi va umumlashtiruvchi xususiyatlar tizimi shakllandi. Gender erkaklar va ayollar aynanligi va xulq-atvordagi tafovutni ifodalaydi.

Erkak va ayollar bajaradigan vazifalari, jamiyatda tutgan orinlari jihatidan bir-birlaridan farqlanar ekanlar, demak, ularning muloqot madaniyatida ham farqli holatlar mavjud. Ayollar va erkaklar nutqining farqli xususiyatlari borasida tilshunoslikda bir qancha ishlar amalga oshirilgan bolib, ayrim xalqlarda ayollar nutqi alohida tadqiqot sifatida maydonga kelgan. Bunday farqlanish muhim ahamiyat kasb etib, muloqot madaniyatida muhim orin tutadi. Ozbek tilshunosligida keyingi yillardagi tadqiqotlarda oz bolsa-da, bu haqda yoritib otilgan. Jumladan, S. Mominov, Sh. Iskandarovalarning ilmiy tadqiqotlarida buni korish mumkin. Muloqotning jins jihatidan xoslanishi muhim ahamiyat kasb etib, sotsiologiyadagi organish muammolaridan biri sanaladi. Murojaat shakllarini jins jihatidan tahlil qilganda, erkak va ayol 1 adrasantning nutqida qollaniladigan murojaat shakllari hamda erkak va ayol 1 adresatga nisbatan qollaniladigan murojaat shakllari tarzida tahlil qilish lozim 1. Ayollar va erkaklar nutqida soz va iboralarning qollanilishi jihatidan ham bir-biridan farq qiladi. Nutqda uchraydigan shunday ibora va sozlar borki, ular faqat ayollar nutqiga xos yoki aksincha, ayrim birliklar erkaklar nutqiga xoslangan. Xususan, erkaklar nutqida ayollar murojaatida uchramaydigan quyidagicha tafovutlar bor:

erkaklar nutqida qo'llanadigan gaplar ayollarnikiga nisbatan qisqaroq

bo'ladi;

grammatik xatolar ko'p uchraydi;

erkaklar nutqida asosan ot va sifatlar koproq, fel va yuklamalar kam qollaniladi.

Yoqolmasdan ilgari bormidi? Qanaqa hokiz edi.

Ola hokiz

Yaxshi hokizmidi, yo yomon hokizmidi?

Qo'sh mahali (A. Qahhor "O'g'ri");

erkaklar nutqida ratsional baholar ijtimoiy baholarga nisbatan ustunligi seziladi. Ijtimoiy baho juda kam uchraydi. Erkaklar nutqida emotsional va sensor baholar ham kam qollaniladi. Ular koproq estetik bahoni ajratib, ozini orab turgan obyektiv voqelikdagi narsa va hodisalarning axloqiy tomoniga etibor berishadi:

Ha, aytganday, - dedi Karim ota piqirlab kulib, - domla sochlarini boyatibdilar!.. Azbaroyi xudo, kuya tushgan postakka o'xshaydi!.. Mayli, boyoq topilgan bo'lsa boyasin, lekin shu boyoq bilan qiligini ham bo'yashga, sochiga mos qiliqlar qilishga urinsa uncha yaxshi chiqmas ekan!, (A.Qahhor. Toyda aza);

erkaklar ayollarga nisbatan dunyoni va voqelikni rang-barang tavsiflar, boyoqlar va belgilar bilan tariflaydilar:

Birodarlar, Momosuluv tushimda Cholpon edi, hushimda Oy edi, qoynimda Oftob boldi. (T. Murod Ot kishnagan oqshom);

erkaklar va ayollar tomonidan yozilgan matnlarning sintaktik tuzilishi erkaklarning teng boglanishli yuzaga kelgan aloqani emas, koproq tobe aloqali boglanishlarni qollashini korsatadi:

Shomdan song tevarak-atrof chodrasiga burkandi-yu, Nur qorboshi alanglay-alanglay xarsang panasidan chiqdi. (L.Borixon Aldoqchi tunlar);

erkaklar nutqida undov va soroq gaplar kam qollaniladi;

toliqsiz gaplar va elliptik qurilmalar ham kam qollaniladi;

erkaklar yozma nutqida teskari soz tartibi ham oziga xosdir.

Shuningdek, ayollar va erkaklar nutqida fonetik xususiyatlar ham farqlanadi. Ozbek tilida ayollar nutqida unli fonemalarni chozib talaffuz qilish (k-a-a-a-tta, uz-o-o-oq, bal-a-a-a-nd), undosh fonemalarni ikkilantirish (ma-z-z-za, esh-sh-shak, bashsh-shara) kabi fonetik hodisalar kop uchrasa, erkaklar nutqida bunday holat ancha kam kuzatiladi. Ayollarda mantiq urgusi juda faol qollanadi, pauza esa erkaklar nutqiga nisbatan juda qisqa boladi. Ayollar va erkaklar nutqida qollanuvchi leksemalar ham oziga xos ahamiyatga ega. Tildagi yangilanish jarayonlari ayollarga nisbatan 1 erkaklar tomonidan tez qabul qilinib, ilmiy va kasb-hunarga oid yangi leksemalar erkaklar nutqida koproq va faolroq. Shuningdek, ayollar kundalik turmushda neologizmlardan unumli foydalangan holda, rasmiy muloqotda undan qochishga harakat qilishadi.

Ayol kishi tabiatan nafosat sohibalari bolganligi sababli, suhbat jarayonida ham jozibador va 1 boooqdor leksemalarni, shaxsiy munosabat ifodalovchi 1 so'zlarni, ijobiy boyoqdor sozlarni koproq qollaydi. Suhbat predmeti biroz borttirilgan holda boladi. Emotsional holatlar: hayratlanish, sevinish, qorqish, nafratlanish, xafa bolish kabi ruhiy-fiziologik jarayonlarni ularda kuzatishimiz mumkin 1.

Ozbek tilida ayollar va erkaklar nutqi sintaktik jihatidan ham tahlil qilinadi. Ayollar suhbatdoshining fikriga qoshilish yoki qoshilmasligiga va shaxsiy munosabat ifodalashda suhbatdoshini xafa qilib qoymaslikka, iloji boricha uning kongliga yoqadigan tarzda murojaat qilishga harakat qilishadi. Masalan, keyinroq borsak bo'lmaydimi, keyinroq borsak bo'lar ekan, keyinroq boraylik, keyinroq bora qolaylik, keyinroq bora qolaylik, maylimi?, keyinroq borsak nima deysiz? kabi. Erkaklar esa bu holatda keyinroq boramiz, keyinroq borsak bo'ladi, keyinroq ham borsak bo'ladi, keyinroq borsak ham bo'laveradi ifoda shakllaridan foydalanishadi.

Burnini yerga ishqamoq, Dabdalasini chiqarmoq, Jig'ini ezib qo'ymoq, Abjag'ini chiqarmoq, Yulduzni benarvon uradigan kabi koplal iboralar asosan erkaklar nutqida qollanishi bilan oziga xoslik kasb etadi. Xotin-qizlar nutqiga esa koproq aylanay, o'rgulay, qoqindi, girgitton bo'lay singari soz va iboralar xos bolib, ular turli nutqiy

vaziyatlarda ijobiy mano nozikliklarini ifodalovchi leksik vositalar hisoblanadi.

Bu farqli holatlar murojaat shakllarida ham oz ifodasini topgan. Murojaat shakllari yana shu jihati bilan xarakterliki, ularda sozlovchi va tinglovchining jinsi yaqqol namoyon boladi. Buni oddiy muloqot madaniyatimizda ham uchratish mumkin. Ayollar nutqida ovsin, dugonajon, egachi, shuningdek turmush ortoqlariga qarata dadasi murojaat shakllari mavjud. Tarixiy asar leksikasida, asosan, oliy tabaqadagi ayollarga nisbatan begim, xonim, hazrat begim, oliy nasab begim kabi murojaat shakllari qo'lingan. Egachi murojaat shakli Sh. Iskandarova dissertatsiyasida ayollarga xos bolgan murojaat shakli deb qaraladi. Yani ayol adresant muloqoti jarayonida qo'linganadi. Bu murojaat shakli XIV- XV asrlarda erkaklar nutqida ham opa-singilga nisbatan qollanilganligini korish mumkin.

Murojaat shakllarining yosh jihatidan ijtimoiy xoslanishi ozbek muloqot madaniyatining asosini tashkil qiladi, chunki boshqa millatlardan farqli olarog, ozbeklar milliy mentalitetida shunday hurmat kategoriyalari bor-ki, ular kommunikantlarning yoshini yaqqol namoyon qiladi 2. Bunday holatni nutqiy etiketlarning barchasida kuzatish mumkin

Tilning barcha vazifalari: kommunikativ, emotiv, aloqa ornati, ijtimoiy funksiyalari sozlovchi va tinglovchi orasidagi turli-tuman munosabatlarni ifodalaydi. Murojaatning mazmunan har xil shakllanishi quvonch, tana, qorqinch, gina, iltifot, nafrat kabi mano ottenkalari qoshilgan holda ifodalanishi eng avvalo, ijtimoiy muhit va sharoitdan kelib chiqadigan munosabatga bogliq.

Ingliz tilida murojaat manosi ifodalovchi lingvistik termin sifatida ilmiy muomalaga kirgan. Nominatsiya, yani, nom lotincha nomination so`zidan olingan bolib, tilda atash vazifasini bajaruvchi birliklarning hosil bolish jarayonidir. Demak, apellyativ nominatsiya murojaat nominatsiyasi atamasi o`rnida ishlatiladi. Murojaat nominatsiyasi tilshunoslar tomonidan atroficha tadqiq qilingan bolsa-da, bunday birliklarning jinsda farqlanishi, ayol yoki erkak nutqida qay tarzda amalga oshishi, ayniqsa, rasmiy murojaatlar masalasi gender tilshunosligining dolzarb masalalaridandir.

N. Ahmedova tadqiqotida quyidagi jihatlarga etibor qiladi: Odatda, sozlovchi tinglovchining mavqeyidan kelib chiqib, quyidagicha murojaatlarni ishlatish mumkin: ona, qiz, opa, singil, ayol, xodim, hamkasb, dugona, xola, amma, jijan. Ushbu izlanishda ayol jinsiga nisbatan qollanuvchi qarindoshlikni bildiruvchi murojaat birliklari keltirilgan. Bulardan bazilari, masalan, jijan yoki xodim kabi leksemalarda, aslida, jins farqlanmaydi, yani, erkak uchun ham, ayol uchun ham umumiy nominativ birlik sifatida teng qollanadi.

Erkak jinsiga qaratilgan murojaat shakllarini quyidagi mavzuiy guruhlariga bolish mumkin:

Chaqirish: - birodar, ukam, o`rtoq, oshna, do`stim, og`ayni.

Mensimaslik, kinoya: - kuyov to`ra, er, erkak, qariya.

Iltimos: - azamat, toychoq, yaxshi yigit.

Yalinish: - oka, okaxon, ukaxon.

Neytral shakllar: - kuyovjo`ra, boshqon, marhum, xodim, rahbar.

Ayol kishi erkakka nisbatan murojaatning mavhum shaklidan foydalanishi kuzatiladi: - Turing, hoy, turing, qudalaringiz kelishdi (T. Malik Shaytanat)

Erkakning erkakka murojaati uning qayerda va kimga murojaat qilishiga qarab turli mazmuniy maydonlarni qamrab oladi.

Gender xususiyatiga ko`ra, rasmiy sharoitda qollaniluvchi murojaat shakllari nutqning norasmiy sharoitida qon qarindoshlik terminlari bilan almashadi, yani ijtimoiy guruh azolari oz sotsial rollarini ozgartirsalar ular nutqi ham shunga muvofiq ozgaradi.

Rasmiy murojaatlarda yuqorida aytilganidek, yashirin hurmat semasi mavjud tarzda ushbu mano gender jihatdan ayollar hamda erkaklar nutqida bab-baravar qollanilib, lekin ayollarga xos bolgan boshqa mehribonlik, kongilchanlik, yaqinlik kabi yashirin konnatativ semalari norasmiy uslubga nisbatan kam qollaniladi yoki umuman qollanilmaydi.

Mayli, kechirasiz, ortiq Komilova (O. Muxtor Egilgan bosh)

Ozingiz bu gaplardan xabaringiz bor, Rahim Gulomovich, misol tariqasida aytyapman. (O. Muxtor Egilgan bosh)

Bu juda nozik masala, Juma Nazarovich. (O. Muxtor Egilgan bosh)

O`lguncha sizdan qarzdorman, Burxon Tillayevich. (O. Muxtor Egilgan bosh)

Rasmiy murojaatlar qollanilish doirasiga kora:

Hududiy

Milliy

Xalqaro kabi turlarga bolinadi.

Hududiy rasmiy murojaatlar malum bir hudud doirasida qollanilib, boshqa hududda boshqacha soz bilan ataladigan murojaatlardir. Notanish kommunikantlar ortasidagi muloqotlardagi rasmiy murojaatlar ushbu turiga misol bola oladi.

Xolamullo, hazrat momo murojaat birliklari qollanilgan bolib, Samarqand va uning atrofidagi viloyatlar shevasida yoshi katta ayol tinglovchiga nisbatan qollaniladi. Momo qarindoshlik termini koprog Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida keksa yoshdagi ayol adresatlarga nisbatan ishlatiladi.

Milliy yoki mintaqaviy rasmiy murojaatlar davlat miqyosida qollaniladigan har bir rasmiy murojaatlarni kiritish mumkin. Ushbu murojaat vositalari adabiy til meyorlariga qatiy amal qilishi bilan xarakterlanadi. Mintaqaviy jihatdan rasmiy murojaatlarning eng keng qollaniladigan turi shaxslarning ismi, familiyasi va otasining ismi bilan qilinadiga murojaatlardir.

Siz meni sokmang, Juma Nazarovich. (O. Muxtor Egilgan bosh)

Rasmiy jihatdan xalqaro miqyosda foydalaniladigan murojaatlar xalqaro doiradagi rasmiy uchrashuvlarda keng qollaniladi va ular boshqa tillardan ozlashgan sozlardir: janob, xonim, ser, mister va x. k.

Janobi Oliyarlari!

Xonimlar va Janoblari!

Birlashgan Millatlar Tashkilotining yuksak minbaridan nutq sozlash imkoniyati yaratilgani uchun samimiy minnatdorlik izhor etishga ijozat bergaysiz.

(Ozbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqidan. manba uza.uz saytidan olindi.)

Shuningdek, mavjud o`zbek tilidagi badiiy asarlarda asarning jonli talqini va haqqoniylikni taminlash maqsadida hududiy jihatdan xalqaro maqomdagi rasmiy murojaatlar (ser, mister, missis va x. k.) qollaniladi.

Yaxshi joylashib oldingizmi, ser. (O. Hoshimov Musofir bolmaguncha)

Konglingiz nima tusaydi, ser

Hello, xush kelibsiz, janob! (O. Hoshimov Musofir bolmaguncha)

Qani, marhamat, otirsinlar, sidom pliz, senyorita! (O. Hoshimov Toylar muborak)

Xuddi shundoq, janob, xuddi shundoq! (O. Hoshimov Toylar muborak)

Tuzilishiga ko`ra rasmiy murojaatlar:

sodda

qoshma rasmiy murojaatlarga bolinadi.

Sodda tuzilishdagi rasmiy murojaatlar bir sozdan iborat boladi:

Olga, lashkar, olga. (T. Murod Momoyer qoshigi)

Qizlar, tarixda qolishni istaysizlarmi? (T. Murod Momoyer Qoshigi)

Odamlar, shunchalik izzat qildilaring, qulluq!

Polvon, yiqitolmadingiz, boshqatdan olishing!

Shaytonga hay bering, polvon, chiqing endi. (T. Muod Yulduzlar mangu yonadi)

Domla, yaxshi yuribsizmi?

Murakkab tuzilishdagi rasmiy murojaatlar ikki va undan ortiq sozlar orqali yuzaga chiqadi.

Janob sudya, siz boladigan gapni ayting. (Sh. Xolmirzayev Ikki jahon ovora)

Qani, olga, mulla Goziddin. (O. Muxtor Egilgan bosh)

Esimdan chiqibdi, ortiq leytenant. (O. Hoshimov Telpak)

Umuman olganda, mazmunan ikki tuzilishdagi rasmiy murojaatlar bir manoni ifodalasa-da, ammo qollanilish vaziyatiga kora bir-biridan farq qiladi. Sodda tuzilishdagi rasmiy murojaatlar notanish kommunikantlar ortasidagi muloqotda qollanilsa, qolgan holatlarda esa murakkab tuzilishdagi rasmiy murojaatlar foydalaniladi.

Rasmiy murojaatlarni organar ekanmiz, shuni aytish kerakki, ushbu murojaatlarda mantiqan rasmiylik yuzaga chiqsa hamki, ammo uning qollanilish doirasi, foydalanish ottenkalari, rasmiy uslubga nisbatan kengdir. Shu jihatdan biz rasmiy murojaatlarni uslub jihatdan xillarga ajratdik:

Sozlashuv uslubida:

Hamqishloq, yaqinda muddatingiz tugab uyga ketasiz. (S. Ahmad Sarob)

Qaysi yurtdansan, bolam?

Kvartir qidirib yuribmiz, buvi. (O. Hoshimov Odam ovozi)

Xizmat, akamullo?

Soat deganini munday tutmaydilar-da, akamullo!

Qoya qoling, usta, - dedim chaynalib. (O. Hoshimov Soat)

Nima qilardi, soatingiz toshi tokilib tamom bopti, ogayni!

Menga qarang, ogayni ozimizning odam ekansiz.

Iye, ha, yol bolsin, ogayni! (O. Hoshimov Soat)

Mashi latareyani oling, aka, mashina yutasiz. (O. Hoshimov Omadli jentelmenlar)

Sozlashuv uslubida nutqiy qisqalik, qulaylik yuzasidan kopincha sodda tuzilishdagi rasmiy murojaatlardan foydalaniladi. Shuningdek, ushbu uslubda sotsial chegaralangan (jargon, argo) leksemalardan murojaat vositasi sifatida qollanilish holatlari kuzatiladi.

Hov, bratan, izdachisini bermisanmi, sani latareyang deb uyimga piyada ketamanmi? (O. Hoshimov Omadli jentelmenlar)

Publitsistik uslubda:

Aziz tomoshabinlar! Hali ayrganimizdek, bugun chindan ham goliblar kuni! (O. Hoshimov Omadli jentelmenlar)

Elon, ortoqlar, elon eshittiramiz.

Muhtaram radiotinglovchilar! dedi muxbir. (T. Murod Momoyev qoshigi)

Hurmatli tomoshabinlar. Kulib turgan yigitning quvonch tola kozlariga qarang. (O. Hoshimov Omadli jentelmenlar)

Publitsistik uslubda qollaniladigan rasmiy murojaatlar asosan, kishilarning diqqat-etiborini tortish, o'ziga ogdirish kabi mazmunlarni ifodalaydi va kopincha gap boshida keladi. Ommaviy axborot vositalari bilan bevosita bogliq bolgan ushbu rasmiy murojaatlarni

Teledasturlarda: hurmatli (aziz) tomoshabinlar, shou (dastur) qatnashchilari;

Radiodasturlarda: hurmatli (aziz) tinglovchilar;

Gazeta-jurnallarda: hurmatli (aziz) mushtariylar, obunachilar (abonent), kitobxon;

Tabiatga kora rasmiy murojaatlarni

Yozma

Ogzaki turlarga bolinadi.

Yozma rasmiy murojaatlar turli ish qogozlari, gazeta-jurnallarda qollaniladigan murojaatlar bolib, davat, ogohlantirish, taklif kabi manolarni ifodalaydi va kontekstning boshida keladi. Taklifnoma, Ogohlantirish xati kabi rasmiy ish qogozlari, shuningdek, gazeta-jurnallardagi turli korinishdagi murojaatlar bunga misol bola oladi.

Shuningdek, yozma rasmiy murojaatlar zamonaviy fan-texnikaning yuksak darajadagi rivoji olaroq, internet xizmatlari natijasida oziga xos yangi korinish hosil qildi. Xususan, ijtimoiy tarmoqlar: feysbuk, twitter, telegram, instagram va boshqa turli internet saytlaridagi yozishmalar

a kommunikantlar muloqotida yangi rasmiy murojaatlar yuzaga kelmoqda: hurmatli sayt (kanal, guruh) azolari, internet foydalanuvchilar va boshqalar.

Ogzaki rasmiy murojaatlar yigilish, majlis, turli yigirlarda namoyon boladi va dialog, monolog korinishlarida sozlashuv uslubida yuzaga chiqadi.

II bob boyicha xulosalar

Magistrlik dissertatsiya ishininigi ikkinchi bobida Rasmiy uslub va unda murojaat vositalarining qollanilishi hamda "Rasmiy murojaatlarning ichki semalariga kora tasnifi kabi ikki fasldan iborat. Ikkinchi bob uchun alohida xulosa mavjud.

Birinchi faslda berilgan malumotlar orasida, Rasmiy murojaatlar davlat va jamoat rahbarlarining ozaro rasmiy uchrashuvlardagi suhbatlarida, yigirlarida, yozishmalarida, tashkilot, idora, ofislarda rahbar va ishchi xodimlar ortasidagi muloqot jarayonida, koppina rasmiy hujjatlarda, shuningdek, notanish kishilar ortasidagi muloqotning boshlanish jarayonida turli emotsiyalardan (faqat hurmat manosidan tashqari) holi ravishda qollaniladigan murojaat shakllaridir degan fikrlar talabaning oziga tegishli bolib, bu ishning tayyorlanish jarayonida koplab adabiyotlar bilan tanishib chiqqanligidan dalolat berib turibdi. Shuningdek, rasmiy murojaatlarni subektiv jihatdan tasnifini keltirilgan, subektiv jihatdan murojaatlarni organish shartliliigi, chunki murojaatlar II shaxsga qaratilib, uning xususiyatlari (ismi, yashash joyi, mansabi, unvoni, kasbi va boshqalar)jiga nisbatan murojaat qilinishi tabiiy ekanligi haqida fikrlar bor. Ammo turli yigirlarda, majlislarda, nutq sozlovchi, adresant ozingin kasb-kori, mansab-unvonidan kelib chiqqan holda adresatlarga murojaat qiladi va buni xodimlar murojaati, boshliqlar murojaati, shuningdek, prezident murojaati, vazirlar murojaati, tele yoki radioshou(vo)men murojaati kabi tiplarga ajratish mumkinligi haqida ham qiziqarli malumotlar aytib otigan.

Ikkinchi faslga Murojaat vositalarining ichki guruhlanishi deb nom berilgan bolib, ushbu faslda ham bir qancha yaxshi malumotlar bor. Murojaat vositalari toifaviy jihatdan tahlil qilganda, bir-biriga teng darajadagi kommunikantlar orasidagi munosabat va teng bolmagan kommunikantlar munosabati tarzida ajratish mumkinligi, bu Sh.Iskandarovaning tadqiqotida simmetrik va assimetrik munosabat deb qayd etilganligi, bunda, simmetrik muomalada mavqeyi jihatdan kommunikantlarning ikkisi ham bir xil orin tutsa, assimetrik muomalada esa kommunikantlarning biri boshqaruvchi bolishi misollar orqali ifodalangan. Bu holat rasmiy murojaatlarni yuzaga chiqaruvchi asosiy omillardan biri hisoblanishi takidlangan.

III BOB. TOTEMIK MUROJAATLAR VA ULARNING BADIY ADABIYOTLARIDA BERILISHI

3.1. Usmon Azim ijodida qollanilgan totemik murojaatlar

Usmon Azim ijodini kuzatar ekanmiz, ijodkorning barcha mavzuda oziga xos fikri, dunyo qarashi bor ekanligini koramiz. Uning faqat uzigagina xos bulgan shunday boyoqlar borki, undan anglashilgan mano faqat Usmon Azimga tegishli oziga xoslik kasb etadi. Tabiatda mavjud jamiyki jonzotlarni yaratguvchisi Allohga murojaat adib ijodida ham alohida orin tutadigan mavzulardan biridir. Unki ruhiyat va ichki kechinmalar haqida yozilgan asarlarda inson qalbining tubidagi orzu, istak, najot, umid qilish Allohga qaratilgan boladi. Usmon Azim ijodida esa ichki kechinmalarining ruhiyatga bogliq holda ifoda etilishi daxshat planda turadi. Shoirning bir sherida shunday misralarni uchratishimiz mumkin:

Bu tuning juda dosxshat uxlasa mangu qoladiganday bu chog. ... Bergan madadingga, xudoyim, rahmat hech bolmasa itlaring uygoq.

(Yurak 210-bet) Ushbu sherni tahlil qilar ekanmiz bunda Allohga murojaat qilish vaziyatida iltimos manosi ham namoyon boladi. Yani mavjud vaziyatni yolgiz hal qiluvchisi sensan, barchasiga ozing hakamlik qilgin degan ilinj mavjud. Xudoyim sozidagi -im egalik, tegishlilikni korsatuvchi qoshimchanning ishlatilishi ham xudoni oziga yaqin olish, unga yolvorish kabi mazmunni ham ifodalaydi. Bunda birinchi korinish, Alloxga xudo sozi vositasida murojaat qilinmoqda. Adibning yana boshqa bir sherida:

Yo, Olloh, Yaqinmi oxirat rozi? Mitti yuragi yorilguday bu dam: jismi charchadimi nima bolayapti ozi? tuproqqa qaytgisi kelyaptimi, egam.

(Yurak 211-bet)

Mazkur sherda esa "olloh, egam sozlari vositasida Oллоhga urojaat etilmoqda. Mazmunga etibor qaratadigan bolsak, sorash, hayron qolish ottenklari sezilib turibdi. Qush bilan ifodalanayotgan mano esa, faqatgina bu beozor jonivorgagina emas emas, insonga ham tegishli ekanligini tushinish mumkin. Shuni aytib otish kerakki, Usmon Azim ijodida obrazlar masalasiga kuchli etibor qaratiladi. Misol uchun, jonivorlarni inson ornida tavsiflash, yil fasllarini insonning umriga mengzash, kunva tuni yaxshi va yomon insonlarga qiyoslash shular jumlasidandir. Yana murojaat vositalariga qaytsak. Shoir ijodidan orin olgan quyidagi sherda Oллоhga murojaat qilish uchun ishlatiladigan tangri sozi vositasidan foydalanilgan:

Tangrim! Bahoringning husni ziyoda,

Termulsam, kokarar tanimda gayrat!

Oqibat ne qolar mendan dunyoda?-

Sening ijodingdan nurlangan hayrat...

(Yurak 84-bet)

Navbatda keltirmoqchi bolgan sherimiz ham Usmon Azim ijodiga mansub bolib, Oллоhga murojaat qilish uchun qollaniladigan yana bir vosita ishtirok etgan: O, sen haqda oylarim nafas kabi har on jondir jonimga. Sensiz qolgan bu jahonimda qanotsizlik bilan tushim bahs... Parvardigor, sudralib emas, uchib borgim kelar yoningga.

(Yurak 185-bet)

Tilimizda yana shunday sozlar mavjudki, ular ham Oллоhga murojaat qilishda qollaniladi. Bu sozlar kundalik sozlashuv tilimizda kopam ishlatilavermasligi mumkin, ammo uchraydi. Mumtoz va badiiy adabiyotimizda esa koplak uchratishimiz mumkin. Bunday sozlar sirasiga rab sozini ham misol qilib kiritishimiz mumkin. Ushbu soz vositasida Oллоhga murojaat qilish qilish ham Usmon Azim ijodida uchraydi. Quyidagi sher bunga misoldir: Halovat qolmadi jonimda... Yo rab! Qaysi cheksizlikning bovuri dudli, Qaysi yoqsizlikning koziga qarab, Qaqshadi qaysi bir borliq hududi?

(Yurak 175-bet)

Shular qatorida yaratgan egam, egam, yaratgan sozlari ham ollohga murojaat qilish vositasi sanaladi. Bu sozlar ham rang-barang vositalar qatorida shoir ijodida mahorat bilan qollangan. Bugungi kunda tilimizda keng qollaniladigan soz hisoblanadi. Quyida keltirmoqchi bolgan sherimiz ham shoir qalamiga mansub bolib, unda yuqorida sanab otgan vositalardan biri ishtirokida Oллоhga murojaat qilingan:

Bepoyonlik aksullik Boshlandi manfiy olam... Dil uygondi. Afsuni Buncha oromli, Egam? Tangrim, mehringni haddi Shafloating tengsizdir: Seni tanimoq dardi Bu dunyongdan cheksizdir.

(Yurak 163-bet)

Biz shoir Usmon Azimning bazi bir sherlarigagina toxtaldik xolos. Vaholangki, dunyoning yaratguvchisiga murojaat qilish uchun shoir ijodida yana koplak vositalar mavjud. **Masalaning bu tomoniga kognitiv yondoshib, Oллоhga murojaatning psixolingvistik, lingvomadaniy, sotsiolingvistik va etnolingvistik jihatlarni tahlil qilishimiz mumkin** **2**. Ammo bunday yondoshuvlar boshqa katta tadqiqotlarning organish obekti bolishini inobatga olib bu borada toxtalmadik.

3.2. Mumtoz adabiyotimizda qollanilgan diniy murojaat vositalari (Alisher Navoiy ijodi misolida)

Mumtoz adabiyotimizda yaratilgan har bir asarda xoh u nasriy, xoh u nazmiy asar bolsin, albatta, ularda ananaviy muqaddimotlar mavjud boladi. Ananaviy muqaddimotlarda, odatda, Alloh madhi va Paygambar nati kelishi qatyi belgilangan bolib, goho Alloh madhi (hamdu sano) Basmala bilan almatirilishi ham mumkin. Goho esa basmala va uning izidan hamd ham keltirilishi mumkin, shuningdek, ularning izidan Allohga qaratilgan Munojot beriladi. Demak, Basmala, Hamd, Munojotdan song Nat keladi, bazan Nat izidan Meroj bayoni yoki Merojnoma kelishi hodisasi uchraydi, yuqoridagilarga qatyi amal qilinadi. Basmala basmala bismila bismilloh (boshlanma, bismilloh-ir rahmon-ir rahim), masalagn. Yusuf Balasoguniyning Qutadgu bilig, Adib Ahmadning Hibat ul-haqoyiq va Alisher Navoiyning Hayrat ul-abror asarlari basmala bilan ibtido topadi. Hamd (Alloh taolo madhi, hamdu sano va tavid ham deyiladi), Tavid (Alloh yagonaligiga iymon), Munojot (Allohdan zorlanib najot sorash), Nat (natu duo ham deyiladi) Paygambar Muhammad s.a.v. vasfi, Merojnoma (Muhammad s.a.v.ning Makkadan Quddusga borishi, Quddusdan kokka ravona bolishi, u yerda Alloh ila muloqoti bayoni). Natda goho choriyorlar ham madh etiladi, Qutadgu bilig, Hibat ul-haqoyiq, Lison ut-iyar asarlarida xuddi shu holat kuzatiladi.

Navoiy oziga murojaat yosinidan istifoda etib, yolning uzoq-yaqinligidan gam yemaslik, balki dadil qadam tashlashni maslahat kormoqda. Bu murojaatlar zamirida birlik ikkinchi shaxs (sen) ga iltijo etilmoqda, iltijo emas, togrirog nasihat qilinmoqda, sen va sendan muddao umumga murojaat ekanini ham unutmazlik lozim. Baytdagi ey undov sozi murojaatni kuchaytirishga, unga emotsional-ekspressiv ottenka berishga xizmat qilmoqda va baytning tasir kuchisini kuchaytirmoqda.

Dostondagi ananaviy muqaddimotlardan ikkinchisi hamd bolib, u quyidagi baytlar bilan boshlanadi:

Hamd anga kim vojibi bizzot erur,

Homid aning zotiga zarrot erur (H.A.B.15.).

Hamd anga, hamdu sano unga, maqtov oshanga bolsin, jami olqishlar unga bagishlansa, bu ish togri boladi, qolaversa, eng togri, ravon yol ekani shudir! Bu orinda anga oshanga deyish bilan birlikdagi uchinch shaxs U nazarda tutilmoqda va butun murojaat uning oziga, faqat uning ozigagina qaratilmoqda. Hamddagi boshqa murojaat vositalari va shakllarini topishga qiynaldik, togri topa olmadik, hisob, bu esa ishimizni malum manoda boshi berk kochaga solib qoyishi tabiiydek tuyulishi muqarrar. Lekin dostonning keyingi ananaviy muqaddimotlari mavjud orinlaridan ozmi-kopmi murojaat vositalarini topishga muyassar boldik, chunonchi, birinchi munojotning boshlanishiga etibor qiling:

Ey sanga mabdada abaddek azal,

Zoti qadimig abadiy lamyazal (H.A.B.19.).

Tagin manoni kuchaytirish niyatida ey undov sozidan foydalanilmoqda, shuningdek, sanga senga deyilib, bari murojaat ikkinchi shaxs birlikka qaratilganiga ishora qilinmoqda. Aslida san sen ikkinchi shaxsga qaratilganmi yoki shu san sen ham undov soz emasmi degan fikr bizni oylatib qoydi, bu nechoglik togri yoki notogri buni oylab korish joiz.

Dostondagi ikkinchi munojot boshlanmasida ham yuqoridagiga monand holat seziladi:

Ey bori mavjudga sendin vujud,

Balki vujud ahliga fayyoz jud (H.A.B.22.).

Bayt tarkibidagi ey undov sozi bilan sendin sendan, sen tufayli, sen orqali, sening vositang natijasida insonga qujud berilgan deyilmoqda, bu bilan aslida Alloh nazarda tutilmoqda. Ammo asosiy xitob, umumiy holda jami kitboxonlarga oquvchilarga murojaat etilmoqda va ularga bu hodisa qatyi uqtirilmoqda. Demak Navoiy bu orinda apellyativ xitob, murojaat qilish orqali oz muddaosini oquvchiga yetkazishga erishmoqda ekan, ammo boshqa bir tomondan qarsangiz, bu orinda nominativ holat kuchlidek tuyuladi. Boisi Navoiy, avvalo, aytiluvchi fikr yoki deylik fikr qaratiladigan subektni, aftidan, atamoqda, yani nomlamoqda, shu yol bilan fikrga urg u bermoqda! Yoki shu ikkinchi munojotning tugallanma baytlariga etibor qiling:

Ul nafas imon manga hamroh qil,

Konglum aro mahvi sivalloh qil.

Rahmati omingni nisor et manga,

Lutfi amiyding manga, yor et manga (H.A.B.25.).

Bunda nominativ vazifali holatdan kora apellyativ vazifali holati ustunroq seziladi, sababi apellyativ vazifada sozlovchi (adresant) oz tinglovchisi (adresat) ning diqqatini tortish uchun murojaat birlikdagan foydalanadi. Korinadiki, Alisher Navoiy barcha murojaat shakllaridan foydanishga harakat qilgan va murojaat birliklarining nominativ, apellyativ, kommunikativ, konnotativ, emotiv singari vazifalaridan keng istifoda etgan ekan. Chunki yuqoridagi misol keltirilgan baytlarda kesim vazifasini bajaruvchi qil (qilmoq) va et (etmoq) fellari yordamida sanga birlik ikkinchi shaxsga murojaat etilmoqda. Zotan baytlardagi sen ega yashiringan bolib, ularni egalarni topish kesim orqali amalga oshiriladi, anglashiladiki, baytda undalmalar ustuvor maqomga ega. Bilamizki, gapda undalmalar mavjud bolgach yoki undalmalar ustuvor maqomga ega bolsa, tabiiyki, gapda eganing tushib qolish hodisasi roy beradi va egani topishga bizga odatan kesim komaklashadi.

Endi uchinch munojotning boshlanmasiga etibor qarataylik:

Ey qilibon qadr ila lutfung shior,

Borni yoq aylamaku yoqni bor.

Yoq edilar har neki bor aylading,

Fahmu xirad boriga yor aylading (H.A. B.25.).

Bayt mazmuniga diqqat bilan sinchkov nazar tashlasak, tagin yuqoridagi holatga oxshash hodisa roy berayotganiga ishnch hosil qilasiz. Birinchi baytda murojaat ey undov sozi vositasida amalga oshirilib, xuddi shu undov sozi masalaga oydinlik kiritmoqda. Boisi ana shu ey undov sozi zamirida birlikda ikkinchi shaxs sen borligi, yani mavjudligi shundoq qiyinchiliksiz sezilib turibdi. Darhaqiqat ey undov sozi hech qanday vosita birligisiz birlik va koplikda ikkinchi shaxs olmoshlarga ishora qiladi, yani ey sen yoki ey siz tarzida! Togri qilibon va aylamak fellari bevosita sen senga murojaatni oydinlashirmoqda, bu bor va mavjud hodisa, bu fellarga emotsional ekspressiv ottenkani baribir ey undov sozi bajarmoqda!

“Hayrat ul-abror”ning tortinchi munojoti ham shu xildagi bayt bilan boshlanadi:

Ey karaming oldida kohe gunoh,

Yelga uchub oylaki bir parra koh (H.A. B.29.).

Bu yerda ham eyning ozi, yani undov soz ayni bir paytning ozida sen senga va Alloh taologa, Xudoga, Rabga, Tangriga murojaatni ifodalamoqda, togrirogi, uning zamirida Sen Alloh Alloh Sen yashirin! Alisher Navoiy sheriyaatida bolganidek, ulug shoirning dostonlarida ham undalmalarning katta guruhini lirik qahramon Navoiy tashkil etadi, buning uchun esa sintaktik sharoit ham bor. Masalan, Farhod va Shirin dostonidagi bir baytga etibor qiling:

Navoiy sayr etib soz bostonin,

Raqamzad qildi chun bir dostonin (F.Sh. B.477.).

Anglashiladiki, Navoiy sozi yoki taxallusi undalma bolib kelgan misralarda ikkinchi shaxsli deskripsiya ishtirok etadi, lekin murojaat, iltijo kabi undalmaga xos semantika korinmaydi. Bu esa lirik qahramon pozitsiyasida kelgan, yani Navoiy sozi bitlan ifodalangan undalma (boshqa shoirilar ham nazarda tutiladi) ozgacha xususiyatga ega ekanligini korsatadi, yani lirik qahramonga shoirning murojaatini ramziy murojaat deb baholash lozim bolib qoladi. Bu esa mumtoz sheriyaatda undalmalarni yana ikki guruhga ajratishga asos boladi, yani:

1.Real murojaat (iltijo) ifodalovchi undalmalar.

2.Ramziy murojaatni ifodalovchi undalmalar.

Xullas, undalmalar murojaatdan kora kopincha iltijo mazmuniga ega boladi va ular bayt mazmunida ikkinchi shaxs reallashgan ifodaning kelishini taqozo etadi yoki ikkinchi shaxsli nutqiy birlik (gap) implitsit boladi. Togrirogi, yani uning orni nutq situatsiyasidan fahm etiladi, lekin ayrim undalmalar qollangan baytlarda bu sintaktik holatni kuzatib bolmaydi. Jumladan, Layli va Majnun dostonidagi ayrim baytlarga etibor qarataylik (bu hodisa Xamasa”dagi boshqa dostonlar uchun ham xos):

Alloh, Alloh, bu ne soz olgay,

Ul qavmga Tengri uzr qolgay (L.M. B.146.).

Yuqoridagi baytda Alloh, Alloh sozlarining undalmalik pozitsiyasi kuchsizlangan, unda iltijo manosi bor, lekin bayt strukturasiida ikkinchi shaxsli iboraning orni yoq. Bu esa mavjud pozitsiya Alloh, Alloh sozlarini kirish soz deb tushunish imkoniyatini ham beradi. Alisher Navoiy dostonlarida undalmalardan radif (qofiyadan keyin takrorlanuvchi soz tizimi) yaratishda ham foydalanilgan, chunonchi:

Konglum gam ila toq ayla, yo Rab!

Ishq ichra meni yoq ayla, yo Rab! (L.M.B.146.).

Bu orinda yo Rab undalmasi shu baytning, hatto Layli va Majnun dostoni tarkibidagi shu bobning mazmun yonalishini belgilashda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

“Layli va Majnun dostoni basmala bilan ibtido topadi va bu basmalada, asosan, ey undov sozi yetakchi goyani tashishda katta xizmat qiladi, umuman, murojaatning yukini kotaradi. Masalan:

Ey yaxshi oting bila sarogoz,

Anjomiga kim yetar har ogoz (L.M.B.7.).

Yoki yana:

Ey ortab ul otqa xonumonlar,

Ne xonu ne mon ki, jismu jonlar.

Ey kimni ki aylabon parivash,

Majnun anga yuz asiri gamkash (L.M.B.7.).

Ana shu orinda bir fikr, undalmalar tarkibida ki / kim yuklamasining qollanishi bir oz mulohaza yuritishni talab qiladi. Malumki, Alisher Navoiyning nasriy asarlarida -ki/kim yuklamasining sintaktik vaziyatni yaratishda orni borligi isbotlangan. Biroq uning undalma tarkibida qollanish imkoniyati va semantikasi masalasida soz aytilish zaruriyati bor, ushbu yuklama mustaqil sozlar, undovlar va deskripsiyalarga qoshilib kela olgan. Yana bir gap -ki / kim yuklamasining undalma bilan qoshib yozilishi hozirgi ozbek tili qoidasi nuqtai nazaridan meyoriy hodisa, ammo tilimiz tarixi uchun uni togri deb bolmaydi. Aslida bu yuklamalar undalmaga bevosita tegishli emas, balki sintagmatik jihatdan keyingi jumalarga tegishlidir, yani undalmadan song iboralarning davom etishini, uning takidlanishini taqozo qiladi. Aslida undalma uchun qoshimcha takidlashga hojat yoq, chunki undalma tabiatan takid, kuchaytirish ottenkasiga ega boladi. Demak, mumtoz asarlarni, shu jumladan, Alisher Navoiy asarlarinitransliteratsiya qilishda uning oziga xosligini hisobga olib, fors va tojik tillaridagi singari ki yuklamasini keyingi ibora boshida ayri holda yozish maqsadga muvofiqdir.

Eslatilgani kabi Alisher Navoiy Layli va Majnun dostonining ilk bobi Alloh madhiga bagishlangan, shoir davrining buyuk soz ustasi va faylasuf olimi sifatida olamning yaratilishi, tun, kun, oy, quyosh, yulduzlarning, bahor, yoz, kuz, qish fasllari, ulardagi tabiatining oziga xos jilolari, insonning tabiat qoynida yaratilishi, yoqdan bor, bordan yoq bolishi bular bari Allohning beqiyos qudrati va ulugligining ifodasi ekanini takidlab, Allohga hamdu sano oqiydi. Alloh ozining tajallisi (jilvasi) bilan hammaning diliga zavq bagishlaydi, shoir yaratuvchining har soridagi tajallisi jahonda Layli bolib korinadi, jilva qiladi, uning bu xususiyati esa yaratilganlarni Majnun qilmoqdir, deb yozadi:

Ey har sori kim, qilib tajalli,

Ul mazhar olub jahonda Layli.

Ey oni ki Layli aylab otin,

Majnun qilmoq qilib sifotin (L.M.B.8.).

Alisher Navoiy oz davrining mukammal bilimli farzandi, uni iloh ilmidan chetlab tasavvur qilish mumkin emas, albatta. Hozirgi yangicha fikrlash jarayonida shoir asarlarini uning ilohga, tasavvufga oid qarashlari bilan bogliq hoda organishga etibor berilmoqda. Jumladan, Layli va Majnun dostoni sofilohiy sevgi asari sifatida tahlil etiladi. Vaholanki, Alisher Navoiyning buyukligi va mutafakkirligi shundaaki, Layli va Majnun”da tasavvufga oid talqinlar bolsa-da, voqealar zamirida kishi qalbini larzaga soluvchi fojiviy-majoziy ishq qismati, ijtimoiy adolatsizlik tasviri shu qadar hayotiy tasvirlanadiki, bundan shoirning ozi ham qattiq iztirobga tushadi. Layli va Majnun dostoni dunyoviy adabiyotning eng gozal namunalaridan biri sanaladi, Alisher Navoiy dostonining xotima bobidagi ushbu baytni alohida takidlashni istardik:

Sogin necha kim uzottim oxir,

Yiglay-yiglay tugottim oxir (L.M.B.307.).

Doston quyidagi bayt ila xotimasiga yetadi:

Isyonima afv bolgay omin,

Yo Rab ki, bu nav bolgay omin (L.M.B.313.).

Darhaqiqat, badiiy asar tili estetik zavq-shavq baxsh etuvchi til. Shunga kora badiiy nutq estetik mano ramzihamdir. Bu borada akademik V.Vinogradov badiiy til sanat turi ekanligi bilan ham qadrlidir, unga badiiy tus berish, badiiy asarni sanat turi sifatida hamda obrazli xarakter hosil qiluvchi vosita yoki ozining ramziy manosiga ega bolgan ijtimoiy ong tushunchasi sifatida ham qarash lozim, - deb bejiz takidlamagan bolsa kerak.

Zero, badiiy asar tili sanat namunasi sifatida har bir ijod ahlining asarlarida mavjud bolib, bu xususiyat badiiy tilning xarakterli tomonlarini ifoda etadi.

I II BOB UCHUN QISQACHA XULOSALAR

Magistrlik dissertatsiya ishimizning ikkinchi bobi ikki fasldan iborat bolib, uning birinchi faslida Murojaat vositalari insonlar munosabatlarining “bismilloi, nutqimizning faol komponenti bolganligi uchun, kishilarning falsafiy, etik-estetik qarashlarini ozida aks ettiradi va har bir davrning nutqiy talabiga, ruhiyatiga moslashib boradi. Natijada har bir davrninghar bir jamiyat, millat, ijtimoiy sinf azolari

yoki kambagal, dindor

, dahriy, ulamo, shayx kabilar nutqiga xos murojaat vositalari shakllangan¹. Shunga kora tilda murojaat vositalari muhim ahamiyatga ega.

Jamiyat kundandunga rivojlanayotgan bir paytda tilimiz, undagi birliklar ham ozgarib bormoqda. Xususan, murojaat shakllari ham yangilanib, zamonga moslashib bormoqda. Bu hodisa badiiy adabiyotimizda ham namoyon bolmoqda.

Bugungi ozbek shariyatining zabardast vakili, Ozbekiston Xalq shoiri Usmon Azim shariyatini ortiqcha tarifu tavsif qilishning hojati yoq.

Shoirning haroratli tuygular, chuqur falsafiy mushohadalar, ayni paytda, faqat uning ozigagina xos xalqchil ohang va hikmatlar bilan ziynatlangan sherlarini kuzatar ekanmiz, unda ana shunday oziga xoslik borligining guvohi bolamiz.

Mazkur Usmon Azim ijodida murojaat vositalarining qollanilishi mavzusidagi Magistrlik dissertatsiya ishimiz ishning umumiy tavsifi, kirish, 2 bob, boblar uchun qisqacha xulosalar, umumiy xulosalar va adabiyotlar royxatidan tashkil topgan. Bugungi ozbek shariyatining zabardast vakili, Ozbekiston Xalq shoiri Usmon Azim shariyatini ortiqcha tarifu tavsif qilishning hojati yoq.

muntoz badiiy asarlarning ananaviy muqaddimotlardagi Alloh ga murojaat shakllari tekshirildi. Bunda Alloh madhi (hamdu sano) tahlilga jalb etilib, uning xos xususiyatlari malum miqdorda nazardan otkazildi, taalluqli xulosalar chiqarildi. Xamsa’dagi Hayrat ul-abror, Farhod va Shirin, Layli va Majnun dostonlari basmala ila boshlanadi, basmalalar izidan hamd keladi. Yuqoridagi dostonlarda basmala va hamddan song munojot (Allohdan najot sorash) lar keladi, Sabai sayyor va Saddi Iskandariy dostonlarida esa basmala (u hamd ham bolishi mumkin) dan keyin birdan munojotlar beriladi. Birgina Hayrat ul-abror dostonining ozida tort munojot mavjud, qolgan tort dostonida atigi bittadan munojot beriladi. Bularning barchasi Alloh madhi va Allohdan najot sorash yonalishi ustuvor maqomga egaligi bilan alohida, maxsus ajralib turadi. Allohga atalgan basmala va hamdu sanolarga etibor qaratsak, ularda Alloh madhi orqali ijtimoiy tuzum, shu tuzumda inson omili, adolat va qanoat muammolari qamrab olinishiga guvoh bolamiz.

Chunonchi Hayrat ul-abror”ning boshlangich baytlarini olib koraylik:

Bismillohir-rahmonir-rahim,

Rishtaga chekti necha durri yatim.

Har dur anga javhari jondin fuzun,

Qiyamat aro ikki jahondin fuzun (H.A.B.11.).

“Bismillohir-rahmonir-rahim Mehribon va rahmli Alloh nomi bilan boshlayman, bu Quroni karimdagi birinchi Fotiha surasining mashhur boshlangich jumlasini oyati. Alisher Navoiy ana shu basmalada Bismillohir-rahmonir-rahim”ning badiiy sharhini beradi, oyatdagi har bir harfning mana mohiyatiga izoh bitiladi, ularning goyaviy mazmuni, falsafiy talqini ochiladi. Alisher Navoiy talqinicha, Alloh va uning ismi butun koinot va mavjudot bilan chambarchas boglangandir, zotan koinot va mavjudot kozga korinmas rishtalar ila ozaro bogliq . Sharq shariyatida hamda tasavvufda harflarga mana berish bazan maxsus bir falsafiy yonalish darajasiga kotarilgan va bu yonalish tarafdorlari hurufiyalar deb ataladi.

“Hayrat ul-abror”ning Alloh hamdiga bagishlangan bobi ushbu bayt ila boshlanadi:

Hamd anga kim vojibi bizzot erur,

Homid aning zotiga zarrot erur (H.A.B.15.).

Etibor bilan qaralsa, anga unga u (bu orinda aning uning ham nazardan qochmasligi lozim) birlikdagi uchinchi shaxs vositasida ulug zotga Allohga hamd maqtov deyilmoqda. Lekin aslini olganda anga va aning zamirida tag manosida sen (birlikda ikkinchi shaxs olmosh) mavjudligi borligi sezilib turadi, yani senga hamd (olqish), madh, maqtov deyilmoqda. Hayrat ul-abror”dagi munojotlar ham oziga xos jihatlarni namoyon etadi, ayrim baytlarga etibor qilaylik:

Ey sanga mabdada abaddek azal,

Zoti qadimig abadiy lamyazal (H.A.B.19.).

Ey bori mavjudga sendin vujud,

Balki vujud ahliga fayyoz jud (H.A. B.22.).

Ey qilibon qahr ila lutfung shior,

Borni yoq aylamaku yoqni bor (H.A. B.25.).

Ey karaming ollida kohi gunoh,

Yelga uchub oyla, ki bir parri koh (H.A. B.29.).

Baytlarning har birida fikr bayonini kuchaytirish uchun ey undov sozi ishtirok etmoqda, barcha orinda birlikdagi ikkinchi shaxs sen orqali Allohga murojaat etilmoqda. Bu holat Xamsa”dagi boshqa basmala, hamd va munojotlarga ham taalluqli desak mutlaqo xato qilmagan bolamiz, chunki ularda ham ayni mana ruh ustuvor maqomni tashkil qiladi.

XULOSA

Tilning asosiy funksiyasi ham, bundan tashqari qator vazifalari ham u yoki bu darajada, albatta, murojaat bilan boglanadi. Masalan, apellyativ vazifa chaqiruv bevosita murojaat bilan aloqadordir. Chaqiruv tinglovchiga qaratilgan boladi va bu orqali u nutqni eshitish hamda qabul qilishga chaqiriladi. Aloqa ornatish (kontaktustanovlivayushaya) funksiyasi zaminida ham murojaat bilan bogliq tushunchalar yotadi: bu vazifa tinglovchini xabar malumotni qabul qilishga tayyorlash, uning etiborini tortish orqali bajariladi. Umuman tilning barcha vazifalari kommunikativ, emotiv, volyuntativ, aloqa ornatish sotsiativ, reprezentativ funksiyalari sozlovchi va tinglovchi orasidagi turli tuman munosabatlarni ifodalaydi. Chunki til har doim fikr uzatish (bu sozlovchi uchun) hamda fikr qabul qilish, anglash (bu tinglovchi uchun) vositasi bolib kelgan.

Magistrlik dissertatsiya ishining birinchi bobi MUROJAAT VOSITALARI VA ULARNING TAVSIFI HAQIDA UMUMIY MALUMOT deb nomlangan. Alohida ikkita fasl mavjud. Birinchi fasl “Ozbek tilida undalma va murojaat vositalari, ikkinchi fasl Murojaat vositalarining ichki guruhlari deb nomlangan.

Murojaatning mazmunan har xil shakllanishi quvonch, qorqinch, gina, iltifot, nafrat kabi mana ottenkalari qoshilgan holda ifodalanishi eng avvalo ijtimoiy muhit va sharoitdan kelib chiqadigan munosabatga bogliq. Til esa ana shu munosabatni qanday bolsa oshanday, asliga mos holda royobga chiqishi uchun vosita boladi **1**.

Tilning turli tomondan har xilcha o’rganilishi tilning takomiliga yuqori darajada o’z hissasini qo’shadi. Shu manoda Z. Akbarovanning tasnifi va korsatilgan turlardan kelib chiqib, insonga murojaat shakllarining tasnifi ham mazkur bobda keltirilgan.

Bulardan tashqari birinchi bobda murojaat va undalma terminlari haqida alohida toxtalilib, ularning farqli va oxshash tomonlari haqida ilmiy malumotlar berilgan va fikrlar bildirilgan.

Xullas, murojaat shakllari insonlar ortasidagi ijtimoiy munosabatni, yosh darajasini ifodalaydi. Murojaat shakli sifatida qollangan soz va sozlar qoshilmasida malum bir davr ijtimoiy mazmuni ham aks etadi. Ular orqali biz nutq qaratilgan obyekt haqida malumotlar olamiz. Ayniqsa, sozlovchining unga bolgan subyektiv munosabati bahosini bilishimiz mumkin. Yuqoridagi barcha malumotlar birinchi bobda oz ifodasini topgan.

Magistrlik dissertatsiya ishining ikkinchi bobi “RASMIY MUROJAAT VOSITALARI VA ULARNING TASNIFLANISHI deb nomlangan. Mazkur bob Rasmiy uslub va unda murojaat vositalarining qollanilishi hamda Rasmiy murojaatlarning ichki semalariga kora tasnifi kabi ikki fasldan iborat. Ikkinchi bob uchun alohida xulosa mavjud.

Birinchi faslda berilgan malumotlar orasida, Rasmiy murojaatlar - davlat va jamoat rahbarlarining ozaro rasmiy uchrashuvlardagi suhbatlarida, yiginarida, yozishmalarida, tashkilot, idora, ofislarda rahbar va ishchi xodimlar ortasidagi muloqot jarayonida, koggina rasmiy hujjatlarda, shuningdek, notanish kishilar ortasidagi muloqotning boshlanish jarayonida turli emotsiyalardan (faqat hurmat manosidan tashqari) holi ravishda qollaniladigan murojaat shakllaridir degan fikrlar talabning oziga tegishli bolib, bu ishning tayyorlanish jarayonida koplak adabiyotlar bilan tanishib chiqqanligidan dalolat berib turibdi. Shuningdek, rasmiy murojaatlarni subektiv jihatdan tasnifi keltirilgan, subektiv jihatdan murojaatlarni organish shartliigi, chunki murojaatlar II shaxsga qaratilib, uning xususiyatlari (ismi, yashash joyi, mansabi, unvoni, kasbi va boshqalar)ga nisbatan murojaat qilinishi tabiiy ekanligi haqida fikrlar bor. Ammo turli yiginarlarda, majlislarda, nutq sozlovchi, adresant ozing kasb-kori, mansab-unvonidan kelib chiqqan holda adresatlarga murojaat qiladi va buni xodimlar murojaati, boshliqlar murojaati, shuningdek, prezident murojaati, vazirlar murojaati, tele yoki radioshov(vo)men murojaati kabi tiplarga ajratish mumkinligi haqida ham qiziqarli malumotlar aytib otilgan.

Ikkinchi faslga Murojaat vositalarining ichki guruhlari deb nom berilgan bolib, ushbu faslda ham bir qancha yaxshi malumotlar bor. Murojaat vositalari toifaviy jihatdan tahlil qilganda, bir-biriga teng darajadagi kommunikantlar orasidagi munosabat va teng bolmagan kommunikantlar munosabati tarzida ajratish mumkinligi, bu Sh.Iskandarovanning tadqiqotida simmetrik va assimetrik munosabat deb qayd etilganligi, bunda, simmetrik muomalada mavqeyi jihatdan kommunikantlarning ikkisi ham bir xil orin tutsa, assimetrik muomalada esa kommunikantlarning biri boshqaruvchi bolishi misollar orqali ifodalangan. Bu holat rasmiy murojaatlarni yuzaga chiqaruvchi asosiy omillardan biri hisoblanishi takidlangan.

Umuman olganda, mazmunan ikki tuzilishdagi rasmiy murojaatlar bir manoni ifodalasa-da, ammo qollanilish vaziyatiga kora bir-biridan farq qiladi. Sodda tuzilishdagi rasmiy murojaatlar notanish kommunikantlar ortasidagi muloqotda qollanilsa, qolgan holatlarda esa murakkab tuzilishdagi rasmiy murojaatlar foydalaniladi.

Rasmiy murojaatlarni organar ekanimiz, shuni aytish kerakki, ushbu murojaatlarda mantiqan rasmiylik yuzaga chiqsa hamki, ammo uning qollanilish doirasi, foydalanish ottenkalari, rasmiy uslubga nisbatan kengdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROYXATI:

Karimov I.A. Adabiyotga etibor manaviyatga, kelajakka etibor // Ozbekiston adabiyoti va sanati. Toshkent, 2009, 3-iyul.

Ahmedova N. Ozbek tilida murojaat birliklarining semantik-konnotativ tadqiqi: filol. fanlari nomz. ... diss. Toshkent, 2008.

Akbarova Z. Ozbek tilida murojaat shakllari va uning lisoniy tadqiqi: filol. fanlari nomz. ... diss. Toshkent, 2007.

Begmatov E. Adabiy norma va nutq madaniyati. Toshkent: Fan, 1983.

Boboyeva A. Hozirgi ozbek adabiy tilida toliqsiz gaplar: filol. fanlari nomzodi... diss... Toshkent, 1968.

Hojiyev A. Ozbek tili terminlarining izohli lugati. Toshkent: Oqituvchi, 2000.

Iskandarova Sh. Ozbek nutq odatining muloqot shakllari: fil.fan.nomz...diss. Toshkent, 1993.

Mahmudov N. Nutq madaniyati va boshqa fanlar. // O'zbek tili va adabiyoti, 2007 yil, -№ 1. –B 9–14.

Mo'minov S.M. O'zbek muloqot xulqining ijtimoiy-lisoniy xususiyatlari: filol. fan. dok. ... diss. avtoref. –Toshkent, 2000.

Narziyeva M.J. O'zbek tilida shaxsni yosh jihatidan tavsiflovchi otlarning mano tarkibi: filol. fan. nomz... diss. Buxoro, 1992.

Nematov H., Sayfullayeva R., Qurbonova M. Ozbek tili struktural sintaksisi asoslari. Toshkent: Universitet, 1999.

Orinboyev B. Ozbek sozlashuv nutqi sintaksisi masalalari: filol. fan. dok. ... diss. Toshkent, 1975.

Orinboyev B. Hozirgi ozbek tilida vokativ gaplar kategoriyasi. Toshkent:

Fan, 1972.

Nosirov A. Tarixiy haqiqat va uning badiiy talqini (Yulduzli tunlar romani misolida): filol.fanlari nomzodi. ... diss. Toshkent, 1999.

Axmanova O. S. Slovar lingvistikeskix terminov. Moskva, «Sovetskaya ensiklopediya», 1969. s. 270.

O'zbek tilining izohli lug'ati, II jild. Toshkent O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006.

Ozbek tilining izohli lugati, II tom. Moskva, 1981.

Islomova Sh. Qipchoq lahjasidagi iboralarning etnosotsiopragsmatik xususiyatlari. Magistr. dar. olish. Diss Q.,2013y..

Internet saytlar:

www. Ziyonet.uz

www. kh-davron.uz

www. Uza.uz

www. Scientist.uz

Termiz davlat universiteti ozbek filologiyasi fakulteti 4-kurs talabasi Alimardonov Elyor tomonidan filologiya va tillarni oqitish: ozbek tili talim yonalishi boyicha bakalavr darajasini olish uchun "RASMIY MUROJAAT VOSITALARI VA ULARNING SEMANTIK XUSUSIYATLARI" mavzusida bajarilgan bitiruv malakaviy ishga

TAQRIZ

Alimardonov Elyor tomonidan filologiya va tillarni oqitish: ozbek tili talim yonalishi boyicha bakalavr darajasini olish uchun "RASMIY MUROJAAT VOSITALARI VA ULARNING SEMANTIK XUSUSIYATLARI" mavzusida bajarilgan Magistrlik dissertatsiya ishi bilan tanishib chiqdim.

Magistrlik dissertatsiya ishining birinchi bobiga MUROJAAT VOSITALARI VA ULARNING TAVSIFI HAQIDA UMUMIY MALUMOT deb nom berilgan. Bobda alohida ikkita fasl mavjud. Birinchi fasl Ozbek tilida undalma va murojaat vositalari mavzusida bolib, unda undalma va murojaat vositalarining oxshash, shuningdek, farqli tomonlari korsatilgan va sotsiolingvistik jihatdan organilayotgan murojaatlar undalmaga nisbatan keng va kolamdor ekanligi aytib otilgan. Ikkinchi fasl Murojaat vositalarining ichki guruhlanishi yuzasidan fikrlar bildirilgan. Shuni aytish kerakki, Magistrlik dissertatsiya ishida Z. Akbarovanning Ozbek tilida murojaat shakllari va uning lisoniy tadqiqi nomzodlik dissertatsiyasidan malumotlar keltirilgan bolib, bitiruvchi tomonidan shu va boshqa manbalar asosida murojaat vositalari tasnif etilgan. Bob songgida xulosa keltirilgan.

Magistrlik dissertatsiya ishining ikkinchi bobi "RASMIY MUROJAAT VOSITALARI VA ULARNING TASNIFLANISHI deb nomlangan. Mazkur bob Rasmiy uslub va unda murojaat vositalarining qo'llanilishi hamda Rasmiy murojaatlarning ichki semalariga kora tasnifi kabi ikki fasldan iborat. Ikkinchi bob uchun alohida xulosa mavjud.

Birinchi faslda rasmiy uslub haqida qisqacha malumotlar aks etgan va ushbu uslubda murojaatlarning qollanilishi haqida fikrlar keltirilgan.

Ikkinchi faslga Rasmiy murojaatlarning ichki semalariga kora tasnifi deb nom berilgan bolib, ushbu faslda ham bir qancha yaxshi malumotlar bor. Rasmiy murojaatlar - davlat va jamoat rahbarlarining ozaro rasmiy uchrashuvlardagi suhbatlarida, yig'inlarida, yozishmalarida, tashkilot, idora, ofislarda rahbar va ishchi xodimlar ortasidagi muloqot jarayonida, kopgina rasmiy hujjatlarda, shuningdek, notanish kishilar ortasidagi muloqotning boshlanish jarayonida turli emotsiyalardan (faqat hurmat manosidan tashqari) holi ravishda qollaniladigan murojaat shakllaridir degan fikrlar talabaning oziga tegishli bo'lib, bu ishning tayyorlanish jarayonida koplav adabiyotlar bilan tanishib chiqqanligidan dalolat berib turibdi. Shuningdek, rasmiy murojaatlarni subektiv jihatdan tasnifini keltirilgani holda subektiv jihatdan murojaatlarni organish shartligi, chunki murojaatlar II shaxsga qaratilib, uning xususiyatlari (ismi, yashash joyi, mansabi, unvoni, kasbi va boshqalar)iga nisbatan murojaat qilinishi tabiiy ekanligi haqida fikrlar bor. Ammo turli yig'inlarda, majlislarda, nutq sozlovchi, adresant ozing kasb-kori, mansab-unvonidan kelib chiqqan holda adresatlarga murojaat qiladi va buni xodimlar murojaati, boshliqlar murojaati, shuningdek, prezident murojaati, vazirlar murojaati, tele yoki radioshou(vo)men murojaati kabi tiplarga ajratish mumkinligi haqida ham qiziqarli malumotlar aytib o'tilgan.

Murojaat vositalari toifaviy jihatdan tahlil qilganda, bir-biriga teng darajadagi kommunikantlar orasidagi munosabat va teng bolmagan kommunikantlar munosabati tarzida ajratish mumkinligi aytib otilgan. Bu holat rasmiy murojaatlarni yuzaga chiqaruvchi asosiy omillardan biri hisoblanishi takidlangan.

Ishda ayrim uslubiy, grammatik xatolar kozga tashlanadi. Lekin bu kichik kamchiliklar ishning umumiy mazmuniga tasir qilmagan. Magistrlik dissertatsiya ishi Nizom talablariga toliq javob beradi. Shu sababli mazkur ishni davlat attestatsiyasida himoya qilish va ijobiy baholash mumkin deb hisoblaymiz.

Taqrizchi: Termiz shahridagi 13-umumiy orta talim maktabining ona tili va adabiyot fani oqituvchisi Shukurova D.

Karimov I. A. Adabiyotga etibor manaviyatga, kelajakka etibor // Ozbekiston adabiyoti va sanati, 2009-yil, 3-iyul.

A. Fitrat Nahv. Ozbek tili qoidalari to'grisida bir tajriba. Ikkinchi kitob. Samarqand Toshkent, 1924 B - 32

Sh. Zunnun TIL qoidalari Toshkent, 1925

.A. Gulomov "Sodda gap" Toshkent 1955

Sayfullayev A. Hozirgi ozbek adabiy tilida undalma. Toshkent: Fan, 1968.

Mominov S. Ozbek muloqot xulqining ijtimoiy - lisoniy xususiyatlari: filol. fanlari dokt. ...diss.

Toshkent, 2000; Iskandarova Sh. Ozbek nutq odatining muloqot shakllari: filol.fanlari nomz. ...diss. Toshkent, 1993; Rasulov Q. Ozbek muloqot xulqining funksional xoslanishi: filol. fanlari nomz. ...diss. Toshkent, 2008; Akbarova Z. Ozbek tilida murojaat shakllari va uning lisoniy tadqiqi: filol. fanlari nomz. ... diss. Toshkent, 2007; Ahmedova N. Ozbek tilida murojaat birliklarining semantik – konnotativ

tadqiqi: filol. fanlari nomz. ...diss. Toshkent, 2008;

Ozbek tilining izohli lugati, Toshkent, 2006.

Rahmatullayev Sh. Ozbek tilining etimologik lugati (turkiy sozlar),- Toshkent. Universitet, -B 390

Ozbek tilining izohli lugati, II tom. Moskva, 1981. B 277.

Rahmatullayev Sh. Ozbek tilining etimologik lugati (turkiy sozlar),- Toshkent. Universitet, -B 391

Ozbek tilining izohli lugati, 2 jild. Toshkent, 2006. 645-bet

Mominov S. Ozbek muloqot xulqining ijtimoiy-lisoniy xususiyatlari: filol. fanlari dokt. ...diss. Toshkent, 2000; Iskandarova Sh. Ozbek nutq odatining muloqot shakllari: filol.fanlari nomz. ...diss. Toshkent, 1993; Akbarova Z. Ozbek tilida murojaat shakllari va uning lisoniy tadqiqi: filol. fanlari nomz. ...diss. Toshkent, 2007.

Akbarova Z. Ozbek tilida murojaat shakllari va uning lisoniy tadqiqi: fil.fan.nomz.diss. Toshkent, 2007. 21-bet.

Nosirov A. Tarixiy haqiqat va uning badiiy talqini (Yulduzli tunlar romani misolida): filol.fanlari nomzodi. ... diss. Toshkent, 1999. 11bet.

Mominov S. Ozbek muloqot xulqining ijtimoiy-lisoniy xususiyatlari: filol. fanlari d-ri. ...diss. Toshkent, 2000. 136-bet.

Ahmedova N. Ozbek tilida murojaat birliklarining semantik-konnotativ tadqiqi: fil.fan.nomz. ...diss. Toshkent, 2008. 122-bet.

Iskandarova Sh. Ozbek nutq odatining muloqot shakllari: fil.fan.nomz...diss. Toshkent, 1993. 67-bet.

Z. Akbarova Ozbek tilida murojaat shakllari va uning lisoniy tadqiqi 74-76-betlar

Iskandarova Sh. "O'zbek nutq odatining muloqot shakllari", fil.fan.nomz.diss.avt.ref. T., 1993y. -B 16.

Narziyeva M.J. O'zbek tilida shaxsni yosh jihatidan tavsiflovchi otlarning ma'no tarkibi: filol. fan. nomz... diss. - Buxoro, 1992. 49-bet.

N. Mahmudov, A. Rafiyev, I. Yoldoshev Davlat tilida ish yuritish darslik Cholpon Toshkent - 2010

Korsatilgan manba

A. Omonturdiyev Hozirgi ozbek adabiy tili. Sintaksis

Iskandarova Sh. Ozbek nutq odatining muloqot shakllari: fil.fan.nomz.diss. avt.ref. Toshkent, 1993,

19bet.

Shodmon Vohid Qoqon xonligidagi unvon va mansablar kh-davron.uz

Islomova Sh. Qipchoq lahjasidagi iboralarning etnosotsiopragsmatik xususiyatlari. Magistr. dar. olish. Diss Q.,2013y..

Islomova Sh. Ko'rsatilgan manba.

www.Scientist.uz

Mo'minov S. O'zbek muloqot xulqining ijtimoiy-lisoniy xususiyati. Filol. fan. dokt....dis. avtoref.-T.,2000.-B.33

Iskandarova Sh. O'zbek nutq odatining muloqot shakllari: filol. fan. nomz....diss. -Toshkent, 1993. 19-bet.

Akbarova Z. O'zbek tilida murojaat shakllari va ularning lisoniy tadqiqi. Filol.fan.nom...diss. Toshkent, 2007, 15-bet.

Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. Москва, «Советская энциклопедия», 1969. с. 270.

Ahmedova N. O'zbek tilida murojaat birliklarining semantik-konnotativ tadqiqi. Filol.fan.nomdiss. Toshkent, 2008, 114-bet.

Iskandarova Sh. Ozbek nutq odatining muloqot shakllari: fil.fan.nomz.diss. avt.ref. Toshkent, 1993,

19bet.

Iskandarova Sh. Ozbek nutq odatining muloqot shakllari: fil.fan.nomz.diss. avt.ref. Toshkent, 1993,

19bet.

78